

# O'ZBEKISTONDA — OLIY TA'LIM —

Высшее образование в Узбекистане  
Higher education in Uzbekistan  
ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal

№4 2025-yil

ISSN 2181-3051

[www.edujournal.uz](http://www.edujournal.uz)



[/edujournal.uz](https://www.facebook.com/edujournal.uz)



[/edujournal.uz](https://www.instagram.com/edujournal.uz)



[/edujournal\\_uz](https://www.telegram.com/edujournal_uz)



[/edujournaluz](https://www.youtube.com/edujournaluz)



*Ta'lim dunyoni  
o'zgartirish uchun  
ishlatishingiz mumkin  
bo'lgan eng kuchli  
quroldir.*

**Nelson Mandela**

# O‘ZBEKISTONDA — OLIY TA‘LIM —

Tahrir hay‘ati raisi:  
**Qo‘ng‘irotboy Sharipov**  
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Bosh muharrir:  
**Abduvali Xoliqov**  
Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi direktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:  
**Oqil Salimov**  
**Shavkat Ayupov**  
**Sadritdin Turobjonov**  
**Inomjon Majidov**  
**Qalandar Abdurahmonov**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
**Shuhrat Yoqubov**  
**Qobil Ro‘ziyev (Angliya)**  
**Anush Ayrapetova (Rossiya)**  
**Atham Hudoyqulov**  
**Rustam O‘rinboyev (Shvetsiya)**  
**Mustafa Karatash (Turkiya)**  
**Muhammadolim Muhammadsiddiqov**  
**Ismoil Saifnazarov**  
**Akmaral Magauova (Qozog‘iston)**  
**Halim Saidov**  
**Sadoqat Maxsumova**  
**Nozima Muratova**  
**Muzaffar Esanov**  
**To‘ychi Ahmedov**  
**Vazira Abdyujanova**  
**Jaxongir Usmanov**  
**Gulnoza Najmiddinova**

Dizayner:  
**Sunnatulla Musamedov**

Manzil: Toshkent shahri, 2  
Chimboy ko‘chasi, 96 uy

Sayt manzili:  
[www.edujournal.uz](http://www.edujournal.uz)

Elektron pochta:  
[press@devedu.uz](mailto:press@devedu.uz)

Telefon:  
(+998 71) 207-03-43 (125)

Jurnal O‘zbekistondagi oliy ta‘lim  
muassasalariga tarqatiladi.

Muassis:  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,**  
**Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi.**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan  
1495-raqamli guvohnoma bilan

29.12.2021 sanasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

“O‘zbekistonda oliy ta‘lim” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 30-noyabrda № 327/6-sonli qarori bilan iqtisodiyot, yuridik, filologiya, pedagogika va siyosiy fanlar, Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 25-dekabrda 365-son qarori bilan texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA:

### TAHRIRIYAT MINBARI

**SH.Turdiqulova.**  
Olimalar ko‘p bo‘lgan jamiyat rivojlanadi ..... 2-10  
**Sh.Yoqubov.**  
Global konvensiya O‘zbekiston oliy ta‘limiga  
nima beradi? ..... 11-20

### OLIJ TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**S.Allayorova.**  
H-indeksini qanday oshirish mumkin? ..... 21-33

### TADQIQOT

**B.Qosimov, R.Parmanova, R.Ahmedov.**  
Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari talabalarining  
bilimlarini mustaqil baholash tizimini xalqaro  
tajribalar asosida joriy etish yo‘llari ..... 34-39  
**M.Mamarasulov.**  
O‘quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning  
ahamiyati ..... 40-48

### XORIJDA OLIY TA‘LIM

**S.Maxsumova, G.Najmiddinova.**  
Raqamli dunyo universitetlari qanday  
bo‘lishi kerak? ..... 49-57

### TADQIQOT

**Sh.Taylakova.**  
Huquqbuzarlik mavzusidagi mediamateriallarning janr  
turlari va ularning kommunikativ xususiyatlari ..... 58-66  
**Z. Arslonov.**  
Yoshlarning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar:  
Farg‘ona vodiysi misolida ..... 67-75  
**M.Хайтова.** Организация эффективной  
PR-коммуникации в деятельности  
государственных структур ..... 76-85

### YOSHLAR MINBARI

**S.Musamedov.** Dizayner mutaxassislarining  
ta‘lim tizimidagi o‘rni: integratsiya va rivojlanish  
istiqbollari ..... 86-96





**Shahlo TURDIQULOVA,**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
vitse-prezidenti, biologiya fanlari doktori,  
professor

# Olimalar ko'p bo'lgan jamiyat rivojlanadi

**Tadqiqot olib borish nafaqat sabr va vaqt, balki tahlil, to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham talab qiladi. Aslida hayotning qay tarzda kechishi, insonning qanday natijalarga erishishi, qaysi nuqtada muqoyasa yasashida mana shu qilingan qarorlar natijasi o'laroq ro'y beradi.**



*Bugungi suhbatdoshimiz O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, biologiya fanlari doktori, professor Shahlo Turdiqulova ham har bir qarori zalvorini chuqur his qiladiganlardan. Shu boisdan ham dunyo taniydi, e'tirof etadi, 160 dan ortiq ilmiy ishlar muallifining h-indeksi 15 ga teng, ilmiy maqolalariga berilgan iqtiboslar soni esa 2 ming 291 tani tashkil qiladi. Izlanish va tashabbuslardan charchamaydigan Sh. Turdiqulova joriy yilda Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS) a'zosi etib saylandi. E'tiborlisi, olim bu yilgi saylovlarda MDH va Markaziy Osiyodan yagona vakil bo'ldi. Qahramonimizdan TWAS va taqdirlash marosimi haqida so'radik.*

— Butunjahon fanlar akademiyasi har yili akademiklikka tanlov e'lon qiladi. Tanlovda hech kim o'z nomzodini ko'rsata olmaydi, saralash qat'iy tartibda bo'lib o'tadi. Boisi dunyoda 200 taga yaqin Fanlar akademiyasi bor. Butunjahon fanlar akademiyasi esa ularning barchasini birlashtiradi. Hozirda bu tashkilotga 1400 nafar olim a'zo. Akademiya ikki

yilda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Bu yil dunyo olimlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida to'plandi. Unda nafaqat akademiya a'zolari, balki dunyoning turli mamlakatlaridan taniqli olimlar ham qatnashdi. O'tgan va joriy yilda tanlangan 50 nafar yangi a'zoga diplomlar topshirildi. Ular orasida men ham bor edim. Yig'ilishda "Health Challenge" yo'nalishida chiqish qilib, Yangi O'zbekistonda biotexnologiya sohasining rivojlanishi, kelajak rejalari haqida gapirdim. Dunyo olimlari Prezidentning ilm-fan va innovatsiyaga berayotgan e'tiborini e'tirof etdi. Zangiota tumanida qurilayotgan katta biotexnologik klaster haqida ma'lumot berganimda hayratda ekanliklarini yashirishmadi. COVID davrida O'zbekiston olimlari virusni aniqlash, genomlarini o'rganish, lokal shtamlarni topish bo'yicha katta ishlar qilganini ham qiziqish bilan kutib olishdi. Xalqaro mutaxassislar O'zbekistonda genetika va biotexnologiya sohasi yangi bosqichga ko'tarilgani, yo'nalishdagi tadqiqotlar hajmi ortib borayotganini ham ta'kidlashdi.

### — Akademiklikka nomzodlar qanday mezonlarga ko'ra saralanadi?

— Akademiyaning ichki mezonlari bor, saralash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda barcha a'zolarga nomzodlar ro'yxati yuboriladi va ovoz beriladi. Har bir nomzod bo'yicha ma'lumotlar bazaga to'liq joylanadi. Sohalari bo'yicha, shuningdek ayollarga ham alohida kvota ajratiladi. Bu yil tanlanganlarning 30 foizi ayollar bo'ldi. Akademiya ayollar ulushi 28 foizni tashkil qiladi. Agar har yili 30 foiz ayol tanlan-

sa, gender tenglikka kelgusi 50 yilda erishilar ekan. Shuning uchun har 3 yilda faqat ayollar uchun tanlov e'lon qilish taklifi berildi. Faqat ayollar qatnashadigan tanlov orqali 2035-yilgacha gender tenglikka erishish mumkinligi hisob-kitoblar bilan isbotlanibdi. Taklif bir ovozdan qabul qilindi. Bu tajribani O'zbekistonga ham tatbiq qilish zarur, deb o'ylayman. Chunki bizda 76 nafar akademikdan atigi 5 nafari ayol kishi.



### — Ayollarni ilmga, izlanishga jalb qilish bo'yicha Fanlar akademiyasida qanday ishlar qilinmoqda?

— O'zbekistonda ilmiy faol ayollar ulushi 48 foizga yetdi, lekin yuqori lavozimlardagi ayollar soni hanzuz kam. Fanlar akademiyasida 50 foiz xodim ayol bo'lsa-da, rahbarlar orasida ularning ishtiroki maqtagulik emas. Men akademiya tarixida 80 yilda vitse-prezident bo'lgan birinchi ayolman. Shuning uchun ayollar uchun maxsus

liderlik dasturini boshlayapmiz. 20 nafar faol ilmiy xodim ayollarni tanlab olib, haftada ikki marta treninglar o'tkazamiz. Bu g'oya menda Oksford universitetidagi "Organizational Leadership" dasturida qatnashganimdan so'ng paydo bo'ldi. Liderlik o'z-o'zidan shakllanadigan ko'nikma emas, u o'qitilishi, o'rgatilishi kerak.

### — Bu o'quv dasturi faqat biologlar uchunmi?

— Fan yo'nalishining ahamiyati yo'q. Biolog ham, filolog ham qatnashishi mumkin.

Maqsadimiz ayollarni rahbarlikka tayyorlashdan iborat.

### — Bu loyiha qamrovini kengaytirish ham rejalashtirilganmi?

— Albatta. Innovatsiyalar vazirligida ishlaganimda ham 100 nafar lider ayol uchun kurs tashkil qilgandik. Vazirliklar birlashgach, loyiha to'xtab qoldi. Endi Fanlar akademiya-

sida mana shu loyihani davom ettiryapmiz. Rahbar ayollar qancha ko'paysa, rivojlanish shuncha tezlashadi. Kanadalik professor aytganidek, agar ayollar 40 foiz rahbarlik lavo-

zimlarida bo'lsa, iqtisodiyotning o'sish grafi-gi keskin yuqoriga ko'tariladi. Afsuski, bizda ayollar ko'proq "Oila bilan bandman", "Rah-barlik men uchun emas", degan qarashlarga

ishonib qolgan. Ayol bir vaqtning o'zida ham oila, ham karyerani eplay oladi. Buning uchun tasavvurimizdagi stereotiplarni buzishimiz ke-rak, xolos.

**— O'zbekistonda olim ayollar o'rtasida muloqot va networking uchun maxsus platforma deyarli yo'q. Siz yaratgan WomenScience.uz platformasi haqida esa, o'zim ham yaqinda xabar topdim. Mana shunday tashabbuslar qamrovini kengaytirish borasida nimalar qilinyapti?**

— Bu platformani Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda yaratdik. Olim ayollar ensiklopediyasi tayyorlangan edi-yu, qog'ozda qolib ketgandi. Biz uni raqamlashtirib, ochiq platfor-ma yaratdik. Platformada vafot etgan olimalar, akademiklar, faol ayollar haqida ma'lumot-lar to'plandi. Platforma doimiy ravishda boyi-tib borilmoqda. Kimdir o'z ustozini, institutidagi olimani qo'shmoqchi bo'lsa, ariza yuborishi mumkin. Ma'lumotlar tekshiriladi va olimaning

platformada sahifasi paydo bo'ladi. Navbat-dagi bosqich — Markaziy Osiyo olim ayollar jamiyatini tashkil qilish. Yaqinda "She Science Central Asia" forumini o'tkazdik. Unda minta-qaviy muammolar — toza suv, ekologiya, sog'-liqni saqlash, biotexnologiyalar bo'yicha ilmiy loyihalar ustida ishlandi. Endilikda konferensi-yalarni ham yangicha — interaktiv muhokama formatida tashkil qilyapmiz. Chunki ma'ruza-larni uzoq tinglash samarasiz bo'lib qoldi.

**— Bugungi kunda Fanlar akademiyasida qanday fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda?**

— Fanlar akademiyasining asosiy vazifasi — fundamental tadqiqotlarni olib borish. Lekin O'zbekiston uchun faqat fundamental yo'na-lish yetarli emas. Hozir izlanishlarning 40 foizi fundamental, 60 foizi amaliy hisoblanadi. Har bir institut 5 yillik reja tuzgan. Masalan, biologiya yo'nalishida botanika, zoologiya, mikrobiologiya institutlari 2030-yilgacha raqamli tabiat xaritalarini yaratishni maqsad qilgan. Bu xarita orqali qaysi hududda qanday o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar borligini onlayn ko'rish mum-kin bo'ladi. Avval institutlar alohida hududlarda tadqiqot olib borgan. Ularni birlashtirib, bir hu-

dudni kompleks o'rganish tizimini joriy qildik. Bunday yondashuv faqat Fanlar akademiyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shuning-dek, kimyo institutlari sanoat bilan hamkorlikda ishlamoqda. Xususan, mahalliy xomashyodan foydalanadigan korxonalar uchun yangi texno-logiyalar ishlab chiqilmoqda. Genomika insti-tutida uzumning qadimiy navlari asosida yangi navlar yaratildi. Kimyogarlar karbon nanotex-nologiyalari ustida ishlayapti — bu kelajak tex-nologiyalarining asosi hisoblanadi. Fikrimcha, biologlar, kimyogarlar, texniklar birgalikda ish-lashi ilmda juda katta natijalar beradi.



**— Tadqiqot ishining sifatli bajarilishi olimning salohiyatiga bog‘liq. Ammo salohiyatliklarning barchasi ham jamiyat uchun foydali ishlanmalar taqdim etmayotgani ham bor gap. Sabablar esa turlicha, kimdadir izlanish yo‘nalishi yoki mavzusi eski, kimnikidir amaliyotdan butkul yiroq, ba‘zilarida takliflar o‘rinli emas yoki amaliy yechimlar keltirilmagan. Shu nuqtayi nazardan, Siz ilmiy muammoni qo‘yishda nimaga tayanasiz?**

— Ikki xil olimlar bor. Ba‘zilar muammoni ko‘radi, yechimi borasida ham fikrlarini o‘rtoqlashadi. Bunday olimlar kam, mana shunday tadqiqotchilarni doim izlab yuraman. Yana bir guruh olimlar bor, ular o‘z qobig‘iga o‘ranib, laboratoriyada bitta yo‘nalishni ushlab olgan, undan boshqasi bilan ishi yo‘q. Oksfordda «Go to balcone» metodi haqida ma‘lumot berishgandi. Uning nima ekanini sodda qilib tushuntirib bersam. To‘yga borib, stulda o‘tirib, siz yon-atrofigizdagilarni, davrada raqsga tushayotgan-

larning faqat sizga yaqin qismini kuzata olasiz. To‘yxonaning ikkinchi qavatiga chiqib pastga nazar tashlasangiz, manzarani to‘lig‘icha ko‘rish imkoniga ega bo‘lasiz. Ilmda ham xuddi shunday, dunyo ilmi nima bilan mashg‘ul? Qanday muammolar ustida ishlamoqda — bilish, xabardor bo‘lish shart. Jamiyatda qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda? Ishlab chiqarishda yangiliklar bormi? Dunyoni tahlil qilish, kuza-tish lozim. Shundagina hal etilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammo topiladi, natija jamiyat rivojiga

xizmat qiladi. Vazir o‘rinbosari bo‘lib ishlaganimda, olimlar “Bu juda muhim muammo”, deb loyihalar taqdim qilishardi. Bundan kim nima naf oladi, deb so‘rasangiz javob berishmaydi. Hammada javob bitta: mazkur muammo yechimi hammaga kerak! Har bir ilmiy muammoning o‘zi muhim bo‘lgan o‘rni bo‘lsagina u ahamiyatli, kerakli, yechimi foydali hisoblanadi. Ko‘p yoshlar davlat granti asosida tadqiqot o‘tkazish uchun loyihalarini olib kelishadi. Aksariyatida ilmiy muammo yo‘q. Ularga “Davlatning puliga achinmassiz, o‘z vaqtingizga-chi”, deb, yo‘naltirganman.



**— Yaqinda O‘zbekiston olimlari aholining genetik xaritasini yarata boshlagani haqida ma‘lumot o‘qidim. Unda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilg‘or texnologiyalar markazi olimlari mamlakat tarixida ilk bor inson genlarini chuqur o‘rganish — ya‘ni genlarni to‘liq o‘qish va tahlil qilish tadqiqotini amalga oshirgani aytilgan. Tadqiqot natijasida o‘zbekistonliklarda ilgari dunyoda noma‘lum bo‘lgan o‘nlab yangi gen o‘zgarishlari aniqlangani keltirilgan. Mana shu tadqiqot haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tsangiz.**


— Genetika bilan 20 yildan buyon shu g‘ullanaman. Statistika esa bizda diabetga moyillik, onkologiyaga moyillikni ko‘rsatdi. Kasallik yosharayotgani ekologiya yoki farmatsevtika bilan bog‘liq emas. Chunki, bizda tibbiyot yaxshilanyapti. Avval patologik genlar bilan tug‘ilgan chaqaloqlar yoshligida o‘lardi. Buvilarimizdan 10 ta tug‘gan 2 ta qolgan, 5 ta tug‘gan 3 ta qolgan kabi gaplarni eshitardik. Hozir yangi texnologiyalar, dori vositalari yordamida kasalliklar davolanyapti. Afsuski, yomon genlar yo‘qolmaydi, yillar o‘tib u o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda qatnashgan har ikkinchi bolada irsiy mutatsiya bor. Ya‘ni kasallikka moyillik irsiy yo‘l bilan o‘tmoqda. Eng tashvishlisi, bolalarning 86 foizi, hech bo‘lmaganda, bitta “buzilgan” gen tashuvchisi ekani ma‘lum bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich xalqaro me‘yordan ikki barobar yuqori hisoblanadi. Sababi ayrim hududlarda qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ulushi yuqori. Masalan, ba‘zi

viloyatlarda bunday nikohlar umumiy nikohlarning choragiga yaqinini tashkil etadi. Ko‘pchilikdan “Qarindoshlarim oila qurgan – hammasi yaxshi, farzandlari sog‘lom” qabilidagi gaplarni eshitamiz. Men ularga quyidagi savollarni beraman: Ularning 40 yoshdan keyingi hayoti qanday o‘tdi? Keyingi avlod necha yoshgacha yashadi? Javoblar quyidagicha bo‘ldi: Xolam tog‘amning o‘g‘liga erga teggan, 5 nafar bolasidan bittasi yashab qoldi. Yoki farzandlari 60 yoshgacha yashamadi. Demogchimanki, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibati faqat nogironligi bor bolalarning tug‘ilishi yoki tug‘ilmasligi bilan xulosalanishi kerak emas. U diabet, qon tomir, onkologik kasalliklar ham keltirib chiqaradi. Afsuski, buni hech kim tahlil qilmaydi. Yoki siz ota-onam qarindosh bo‘lgani uchun men 45 yoshda onkologik kasallikka chalindim, deyishganini eshitganmisiz? Asosiy sabab qilib ekologiyaning ifloslanishi kabi sabablarni keltirishadi.

### **— Hozirgi kunda qanday ilmiy muammo ustida ishlayapsiz?**

— Rakka qarshi vaksina yaratishni maqsad qilganmiz. Hozircha bu g‘oya. Lekin bu kasallikka chalinganlar soni ortib bormoqda, biz unga yechim topishimiz kerak. Ikkinchisi,

bolalardagi tug‘ma kasalliklarga qarshi dori vositalari ishlab chiqarish ustida ham bosh qotiryapmiz. Sababi bunday vositalar juda qimmat. Bitta dorining narxi 2 million AQSh dollari



turadi. Afsuski, dunyo farm kompaniyalari o'z dorilariga narx belgilashda mamlakatlarning iqtisodiy ahvolini doim ham inobatga olmaydi. Bugun dunyoda biotexnologiya marketga aylangan, ishlab chiqargan narsasini patentlaydi, qolganlar undan foydalana olmaydi. Yaqinda Eronga borib keldik, ular sanksiyalarga qaramay o'z aholisi uchun bu dorilarni ishlab chiqaryapti. Eksport qila olmaydi, faqat mahalliy foydalanish uchun tayyorlaydi. Xitoy esa shu vositaga bitta o'zgartirish kiritadi, nomini o'zgartiradi va ishlab chiqaradi. Hal etilishi ke-

rak bo'lgan masalalar juda ko'p. Ulardan yana biri bioterapiyadir. Yangi gen aniqlangani haqida gaplashdik. Ammo u orqali kelib chiqadigan kasalliklarning oldini olish, ularni davolash ustida ham ishlashimiz kerak. Bugunning olimi bozorni ham yaxshi bilishi, tendensiyalarni baholashi, unga mos tadqiqotlar olib borishi shart. 20 sent turadigan vaksinani ishlab chiqarish O'zbekistonga kerakmi? Bu tadqiqotim qaysi masalaga yechim bo'ladi? Natija hech narsani o'zgartirmasa, demak, bu izlanishni boshlashdan, olib borishdan naf yo'q.

### **— Nega olimlar shunday fikrlaydi? Bu shakllanib qolgan qolipmi yoki u tadqiqot olib borayotgan maktabmi?**

— Bu faqat O'zbekistongagina xos holat emas. Boshqa davlatlarda ham shunday qoliplar mavjud. Biz yondashuvni o'zgartirishimiz kerak. Amerikada ishlaganimda ilmiy rahbarim oshqozon uchun dori vositasi ishlab chiqqan va patent olgan. O'shanda bu dori 24 milliard

AQSh dollari foyda olib keldi, deb aytgandi. Bu odam — Jorj Sakt. Uni fandan chiqqan millioner desak bo'ladi. Ana shu olim bizga bozorni ko'rish, tahlil qilishni o'rgatgan. U "Sen ishlab chiqargan dori vositasi ertaga kerakmi, yo'qmi baholay olishing lozim", degandi.



**— Xalqaro tajriba bilan tanishsiz. Bu sizga tadqiqot natijalarini oldindan baholay olish ko'nikmasini shakllantirishda yordam bergan. Shu nuqtayi nazardan, bugun Fanlar akademiyasida ham xalqaro loyihalar ustida ishlanyaptimi?**

— Hamkorlik eng muhim narsa. Hech qaysi davlat fanni bir o'zi rivojlantira olmaydi. Hattoki Xitoy ham. 20 yil oldin Amerikaga borganimda hamma tadqiqotchilar xitoylik edi. Ular yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, mamlakatiga qaytib, uni amalga joriy qiladi. Bizning olimlarimiz ham bitta joyda o'tirishmaydi. Eng katta hamkorimiz Xitoy fanlar akademiyasi, ikkinchi hamkorimiz Rossiya fanlar akademiyasi. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Germaniya, Italiya kabi davlatlar bi-

lan tanlovlar e'lon qilyapti. Hamkorlikning ikki tomoni bor. Birinchisi, bu yerda ishlab chiqarilgan texnologiya chiqib ketmasligi uchun to'g'ri patentlashimiz, olimlarga buni o'rgatishimiz kerak. Chunki ba'zilar xursand bo'lib "Texnologiyamga xitoyliklar xaridor bo'lyapti", deydi. Men shoshmasliklarini, patentlab keyin taqdim etishlarini aytaman. Avval ulardan o'rgangan bo'lsak, bugun bizda ham yangi ishlanmalar ko'p. Ularni oson chiqarib yubor-masligimiz lozim.

**— Tadqiqotni qilish mushkul jarayon, lekin uni ommalashtirish, xalqaro jamiyatni undan xabardor qilish ham muhim. Bu borada sizda maqtansa arzigulik natijalar bor. Xususan, Q1 reytingda turuvchi jurnallarda ko'plab materiallaringiz chiqqan. Ayting-chi, mana shunday xalqaro bazalarda tadqiqotlarini ommalashtirish olimga nima beradi?**

— Fanlar akademiyasida olimlar uchun qat'iy talablar qo'yganmiz. Scopusda sifatsiz jurnallar bor. Shuning uchun Web of science bazasidagi jurnallarni qabul qilamiz. 2017-yilda maqolalar asosan Q3, Q4 jurnallarida e'lon qilingan bo'lsa, 2024-yilda Q1, va Q2 dagi chi-

qishlar soni o'sdi. E'tiborlisi, yosh izlanuvchilarda tadqiqotlarimni puxta qilib Q1ga kiruvchi jurnalga beraman degan qarash shakllanmoqda. Ilmini ommalashtirish olimga ko'plab hamkorlar, firklashish uchun yangi doiralar va, albatta, xalqaro e'tirofni taqdim qiladi.

 **Clarivate**  
**Web of Science™**

### — Yosh tadqiqotchilarga eng muhim uchta tavsiyani berib o'tsangiz.

— Birinchisi, har qanday masalaga noodatiy yondashuvni o'rganing. Tadqiqotdan maqsad nima, u bilan qayergacha borasiz, xaritani aniq chizib oling. Faqat g'oya va fikr bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Buning uchun sohangizga oid yangiliklardan doim xabardor bo'ling. Mavjud tajribalarni takomillashtirishga harakat qiling. Ikkinchisi, ilmiy etikaga amal qiling, sifatga e'tiborli bo'ling. Har bir qadamingizda sifat birinchi mezoniga aylansin. Odamlar bizda ishlab chiqarilgan narsalar sifatli emas, deyishadi, Nega? Chunki foydalangan narsasida ishonch oqlanmagan. Mana shu qarashni o'zgartirish uchun har kim ishni, avvalo, o'zidan boshlashi, mayda hara-

katlarni ham sifatli bajarishga intilishi lozim. Qilayotgan tadqiqotingizga "O'zbekistonga bo'laveradi", deb emas dunyo standartlari bo'yicha, qat'iy talab bilan yondoshing. Ba'zi ishlarda nega bu kamchilikni bartaraf etmadingiz, desangiz pulimiz yetmadi, degan sabab keltirishadi. Kam pulga sifatsiz qilgandan ko'ra, qilmagan yaxshi. Qaynonam sifatli mahsulot solsang yaxshi ovqat pishadi. Ayab bemaza ovqat qilgandan ko'ra qilmagan yaxshi, derdi. Ilmda ham xuddi shunday. Taassufki, sifatga e'tiborsizlik sabab ko'plab tadqiqotlar shkak tokchalarida qolib ketyapti. Buning uchun mablag', vaqt, resurs sarflanayotgani esa, doim meni tashvishga soladi.

### — O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ilmiy yo'nalishda zudlik bilan hal qilishi kerak, deb hisoblagan masalalaringiz qaysilar?

— Ta'lim sifatini ko'tarmoqchi bo'lsangiz bitta yo'l bor — fanni rivojlantirish. Fanda, ilmda hech narsa qilmayotgan professor bilim bera olmaydi. Faqat o'qitish bilan ta'lim sifati ko'tarilmaydi. Bugun hamma soha har kuni o'zgaryapti, ayniqsa, biologiya. Ustoz fan bilan shug'ullansa, yangilikni auditoriyaga to'g'ridan to'g'ri olib kiradi. O'zim dars berganimda, yangi narsalarni ma'ruzamda aytishim kerak, talabalarga yetkazishim kerak, degan fikr bo'lardi. Laboratoriyada qi-

linayotgan narsalarni darrov laboratoriyaga olib kirib ko'rsatar edim. Ta'limda bu oson emas, pul talab qiladi, vaqt talab qiladi. Professor-o'qituvchilar dars beramanmi yoki fan bilan shug'ullanamanmi, deydi. U har ikkisi bilan shug'ullanishi shart. Dunyo universitetlari shunday ishlamoqda. Shuning uchun ham (QS) reytinglarda asosiy e'tibor ta'limga emas ilm-fanga qaratiladi. Chunki qaysi universitetning ilm-fani kuchli bo'lsa, o'sha yerda ta'lim ham kuchli bo'ladi.

**«O'zbekistonda oliy ta'lim» jurnali  
ijodiy muharriri Sadoqat MAXSUMOVA  
suhbatlashdi.**



**Shuhrat YOQUBOV,**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasining a'zosi, yuridik fanlar doktori, professor

# Global Konvensiya O'zbekiston oliy ta'limiga nima beradi?

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida 264 milliondan ziyod talaba tahsil olayotgan bo'lsa, ularning 7 millionga yaqini xorijiy mamlakatlarda o'qimoqda. Bu jiddiy sur'atlarda yuksalib borayotgan tendensiya bo'lib, 2000-yillarda bu ko'rsatkich atigi ikki millionni tashkil qilgan. Kelgusida bu raqamlar yanada ortishi taxmin qilinmoqda [1].

YUNESKO tomonidan ushbu masalaning xalqaro standartlarini shakllantirish maqsadida 2019-yil 25-noyabrda "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risida"gi Global konvensiya qabul qilingandi. Mazkur konvensiya oliy ta'lim transformatsiyasida juda katta qadam bo'lib, kelajakka befarq bo'lmagan har bir mamlakat tomonidan chuqur tahlil qilinishi, oliy ta'limga oid strategiyalarni belgilashda hisobga olinishi zarur.



Shu jihatdan ushbu Global konvensiyani milliy-huquqiy amaliyot nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish, tahlil qilish, uning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur masalaning turli jihatlarini hozirga qadar dunyo olimlari, tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Masalan, italiyalik bir guruh olimlar qochoqlarning Yevropa mamlakatlari-ga borganda oliy ta'limga oid malakalarini tan olishda turli muammolarga uchrashini tahlil qilib, Global konvensiya bu muammolarni hal etishda muhim rol o'ynashini qayd etgan [2]. Yoki arab dunyosidagi qochqinlarning oliy ta'limdagi muammolari Iordaniyadagi Suriya-dan qochib borgan talabalar misolida tahlil qilingan [3].

Shuningdek, Global konvensiya qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan mintaqaviy hujjatlar va ularning amaliy ijrosi hamda xalqa-

ro darajada shunday hujjatni qabul qilish muhimligi ham ayrim tadqiqotchilar izlanishlarida uchraydi. Xususan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ta'lim malakalarini adolatli va shaffof tan olish siyosatini o'zida aks ettirgan Tokio konvensiyasining implementatsiyasi monitoring qilingan [4].

Umuman, oliy ta'limning malakalarini tan olishga oid tizimning shakllanishi, uning globalashuv jarayoni qariyb 50 yillik tarixga ega. Ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni quyidagi ikki bosqichga ajratib o'rgangan:

Birinchi bosqich 1970–1989-yillarni o'z ichiga olib, talaba va tadqiqotchilar harakatchanligini oshirish maqsadida imzolangan qator mintaqaviy konvensiyalarda o'z ifodasini topgan [5].

Ikkinchi bosqich esa 1990–2000-yillarda amalga oshgan bo'lib, oliy ta'limda sifatni kafolatlash mexanizmlari, yangicha ta'lim shakl-

# GLOBAL CONVENTION



lari hamda ta'lim muassasalari xilma-xilligi kabi muammolarni inobatga olgan yangidan tuzilgan bir qancha mintaqaviy konvensiyalarda o'z aksini topgan [6].

Olimlar Global konvensiyaning ishlab chiqilishi va amalga joriy etilayotganini ikkinchi bosqichdagi ishlarning samarasi, eng yuqori natijasi hisoblanishini qayd etadi.

Global konvensiya 2019-yil 25-noyabrda Fransiyaning Parij shahridagi YUNESKO Bosh anjumanining 40-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, muqaddima, 6 bo'lim va 25 moddadan iborat.

Konvensiya – transchegaraviy ta'limni tan olish sohasida umumiy yo'nalish, yondashuv, mexanizm va prinsiplarni belgilab beradi. U jismoniy shaxslarning oliy ta'limga oid malakalarini adolatli va shaffof tarzda, hech qanday kamsitishlarsiz tan olinish huquqini kafolatlaydi.

Global konvensiyaning XVIII moddasiga muvofiq, oliy ta'limga oid malakalarni tan olish huquqi YUNESKOga a'zo 20 ta davlat ratifikatsiya qilgandan so'ng kuchga kirishi belgilangan. Mazkur Konvensiya ishlab chiqilgunga qadar YUNESKO tomonidan oliy ta'limga oid 6 ta mintaqaviy konvensiya qabul qilingan bo'lib, 126 ta davlat ularning ayrimlarini ratifikatsiya qilgan. Oliy ta'limga oid xalqaro konvensiyalarni tahlil qilgan olim Friman Brigid fikricha, birinchi avlod konvensiyalari asosan ekvivalentlikka e'tibor qaratgan. 1970–1980-yillarda birinchi davrga mansub oltita mintaqaviy konvensiya maydonga keldi. Bular Yevropa, Afrika, Osiyo va Tinch havzasi, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Yaqin Sharq hamda Arab davlatlarida umumiy oliy ta'lim hududini yaratishi kerak edi.

Ushbu konvensiyalar kredit soatlari, o'quv dasturlari, fanlar, sertifikat hamda diplomlarning taqqoslanuvchanligiga urg'u bergan bo'lib, ushbu parametrlardagi keskin tafovutlar sababli amaliy natijaga erishish imkoni bo'lmasdi. Shuning uchun ham ikkinchi avlodga mansub konvensiyalar maydonga kelib, darajalarni tan olish, ko'nikma va malakalarga urg'u bera boshladi.

Ikkinchi avlodga mansub konvensiyalar quyidagilardir: Yevropa (Lissabon konvensiyasi, 1997; amalda); Afrika (Addis konvensiyasi, 2014; 2019-yildan beri amalda); Osiyo-Tinch havzasi mintaqasi (Tokio Konvensiyasi, 2011; 2018-yildan beri amal qiladi); Lotin Amerikasi va Karib mintaqasi (Buenos Ayres konvensiyasi, 2019, hozircha kuchga ega emas); Global konvensiya (2019).

Malakalarni tan olish konvensiyalari tadrijiy ravishda ekvivalentlik, ya'ni ta'lim davri hamda tarkibini mexanik taqqoslash tamoyilidan "tan olish"ga, ya'ni tegishli malakalarni ko'nikmalarga binoan soddalashtirilgan tartibdan tan olish tamoyiliga o'tishni o'zida namoyon qiladi [8].

YUNESKO bayonotiga ko'ra, tashkilot mamlakatlarni "mintaqaviy konvensiyalarning ratifikatsiya qilishini yuksak daraja rag'batlantirsa-da, Global konvensiyani ratifikatsiya qilishdan avval mintaqaviy konvensiyalarga qo'shilish sharti mavjud emas" [9].

Kelajakda Global konvensiyani YUNESKOning 100 dan ortiq a'zo davlatlari ratifikatsiya qilishi hamda oliy ta'limga oid malakalar va ilmiy darajalarni tan olish bo'yicha yagona xalqaro huquqiy makon vujudga kelishi kutilmoqda.

Natijada konvensiyaga a'zo davlatlarning talaba, tadqiqotchi va professor-o'qituvchilari ishtirokchi davlatlar hududida o'qish va ishga joylashish masalasida ushbu mamlakat fuqarolari singari teng huquqlarga ega bo'ladilar. Yana bir muhim jihati, a'zo davlatlar o'rtasida oliy ta'limga oid malakalarni o'zaro tan olishga oid ikki tomonlama bitimlar tuzishga ehtiyoj qolmaydi.

Global konvensiyani 2022-yil 5-dekabrda YUNESKOga a'zo davlatlardan 20 tasi ratifikatsiya qildi va 2023-yil 5-martdan boshlab kuchga kirdi [7].

Konvensiyaga a'zo davlatlar 38 ta (shu jumladan, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Fransiya, Finlandiya, Shvetsiya, Osiyodan 2 ta: Koreya va Yaponiya, MDHdan 2 ta: Armaniston va Moldova). Hozirda dunyoda 264 mln talabadan 6,9 mln. nafari (2000-yilda 2 mln. nafar) chet elda, ulardan 50 foizdan ortig'i esa boshqa mintaqada tahsil olmoqda. Konvensiyaning asosiy maqsadi — milliy ta'lim tizimlarining xalqaro integratsiyalashuvini ta'minlash, oliy ta'limga oid malakalar barcha davlatlarda tan olinishi, talaba va mutaxassislar akademik mobilligini yengillashtirish, oliy ta'lim malakasini tan olish jarayonini soddalashtirish, kamситishga yo'l qo'ymaslik va ma'lumot almashinuvida hamkorlikni ta'minlash. Shuningdek, Konvensiya mintaqaviy konvensiyalar: Yevropadagi Lissabon konvensiyasi (1997-yil, a'zosi 57 ta), Osiyodagi Tokio konvensiyasi (2011-yil, a'zosi 12 ta) va Lotin Amerikadagi Buenos-Ayres konvensiyasini (2019-yil, a'zosi 5 ta) birlashtirib, global mexanizm yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Konvensiyada quyidagilar belgilangan:

1. Ishtirokchi davlatlarga Konvensiyaga a'zo davlat ta'lim tashkilotida olingan malakani kelgusida oliy ta'lim olish, oliy ta'limni davom ettirish, oliy ma'lumotni tasdiqlovchi diplom bilan mehnat bozorida ishtirok etish uchun tan olish bo'yicha majburiyatini ko'zda tutadi.

2. Oliy ta'limga oid malakalarni tan olishning quyidagi tartibini belgilaydi:

(a) malakaga oid talablarda jiddiy farq bo'lmagan hollarda ishtirokchi davlatda berilgan hujjatlar tan olinishi (umumiy o'rta ta'lim attestati, bakalavr va magistr diplomi kabilar); ta'lim olish yili kam bo'lishi (masalan, 2 yillik bakalavriyat), ta'lim dasturi bitiruvchi ega bo'lishi zarur bo'lgan kvalifikatsiyaga mos bo'lmashligi kabilar jiddiy farq hisoblanishi mumkin; (b) jiddiy farq aniqlangan hollarda tan olishni so'rab murojaat qilgan shaxsga malakani baholashdan o'tkazish imkonini berish; (c) tugallanmagan malakaga oid hujjatlarni qisman tan olish; masalan, bakalavriyat dasturida 1-2-kursda 120 kredit to'plaganlikni tasdiqlovchi hujjatni tan olish; (d) tan olishni rad etish sabablarini aniq ko'rsatish va isbotlash; (e) noan'anaviy ta'lim modeli (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqot bo'lmagan) asosida olingan malakalarni ham a'zo davlat qonunchiligi asosida muqobil modellar bo'yicha belgilangan talablar asosida baholashdan o'tkazilishi; (f) qochoqlar va ko'chishga majbur bo'lganlar malakalarini tan olish bo'yicha maqbul va adolatli shartlarni belgilash zarurligi. A'zo davlatlar o'rtasida oliy ta'lim malakalariga oid hujjatlarini tan olishda ma'lumotlar almashish (hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash, malaka daraja-





sini aniqlash kabi) uchun milliy axborot tizimi va markazi faoliyati yo'lga qo'yilishini ko'zda tutadi. Konvensiya qoidalarining ijrosini monitoring qilish, ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash Ishtirokchi davlatlar hukumatlararo konferensiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Konferensiyaga barcha a'zo davlatlar vakillari kiradi, konferensiya 2 yilda kamida 1 marta yig'iladi, amaliyotni muvofiqlashtirish, muammolar bo'yicha o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi. Konvensiyaning qabul qilinishi: (a) talabalar akademik mobilligi (bakalavr yoki magistratura dasturini turli universitetlarda o'qish) oshishiga xizmat qiladi; (v) malakalar xalqaro tan olinishi orqali xorijiy mehnat bozoriga kirish imkoniyati ortishi hamda, o'z navbatida, milliy mehnat bozoriga muayyan darajada "bosim" vujudga kelishi mumkin; (g) milliy oliy ta'lim va malakani tan olish tizimini global tizim bilan integratsiya

qilish, raqobatbardoshlik va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatini kengaytiradi; (d) mamlakatimizning mintaq va xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlanishiga olib keladi.

Global Konvensiya malakalarning tan olinishini soddalashtirishda "sezilarli farq tamoyili"ga tayanadi. Ushbu tamoyilga binonan, malakalar tarkibi, ko'nikmalar, ta'lim muddatlari o'rtasida keskin tafovutlar aniqlanmagan taqdirda, malaka tan olinishi lozim. "Sezilarli farq tamoyili"ni amalga tatbiq qilishda umumiy mexanizmlar mavjud bo'lmasda, ish tartibini belgilab beruvchi namunaviy andozalar tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan [11].

Shu bilan birga, Global konvensiya xorijiy ta'limni baholashda yondashuvlar tengligini kafolatlaydi. Shuningdek, tan olishni rad etish to'g'risidagi qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqini ta'minlaydi.

Mazkur xalqaro huquqiy hujjat YUNESKO-ga a'zo barcha davlatlar uchun ochiq hamda u BMTning oliy ta'lim bo'yicha birinchi butunjahon shartnomasiga aylanishi prognoz qilinmoqda.

Global konvensiyani ratifikatsiya qilish orqali davlatlar oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, uning sifatini yaxshilashga erishadi. Shuningdek, xalqaro akademik mobillik hamda malakalarning tan olinish imkoniyatlari kengayadi.

Akademik harakatchanlik trendlari dalolat beradiki, kelajakda Osiyo qit'asidagi mamlakatlar akademik harakatchanlik nuqtayi nazaridan Shimoliy Amerika va Yevropani ortda qoldirishi mumkin. Xalqaro talabalarning ham eng katta qismi kelajakda kelib chiqishi Osiyodan bo'lgan talabalarga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda masofaviy ta'lim shaklining ommalashib borishi malakalarni tan olishni soddalashtirish mexanizmlarining yaratilishi hamda amaliyotga tatbiq qilinishini eng muhim vazifalardan biriga aylantirib bormoqda.

Osiyo-Tinch havzasi konvensiyasi maydonga kelgach, mintaqadagi mamlakatlar "Osiyo-Tinch havzasi tarmog'ining milliy matbuot markazlari" faoliyat boshlashi uchun dastlabki chora-tadbirlarni ko'ra boshladilar. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar kreditlarni ko'chirish hamda xorijiy malakalarni tan olishga doir bir qancha tashabbuslarni ilgari sura boshladilar. Shuning uchun aytish mumkinki, mintaqaviy konvensiyalar amaliy jihatdan o'z mevasini berishni boshlamoqda.

Rivojlangan Osiyo hamda Yevropa mamlakatlari o'rtasida talabalarga oid ma'lumotlarni

raqamli formatda almashish tizimi yo'lga qo'yilmoqda [12].

YUNESKOning statistika instituti ma'lumotlari, 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 155,9 ming nafarni tashkil etgan [13].

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 11 oyida 188,9 ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'qish maqsadida xorijga chiqqan [14].

O'zbekistonga kelayotgan talabalar soni ham yildan yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, hozirgi ko'rsatkichlar ijobiy emas. Xususan, 2022/23-o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 5 ming nafarni tashkil etgan [15, 2]. Ayniqsa, bu boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy tahlillarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, qo'shni Qozog'istonda 30 mingga yaqin, Malayziyada 130 mingdan ortiq, Turkiyada 250 ming, Rossiyada 351 ming xorijlik talabalar tahsil olmoqda. Hozirda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bu masalaga doir tegishli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, xorijlik talabalarni O'zbekistonga jalb etishga qaratilgan maxsus elektron platforma yaratilmogda. Shuningdek, mazkur sohaning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish ustida ish olib borilmogda.

Oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish global konvensiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining oliy ta'lim bo'yicha birinchi global shartnomasi hisoblanadi. Xususan, u dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalariga kirish va ular o'rtasida mobillikni yaxshilash maqsadida o'quv kurslari, ta'lim to'g'risidagi hujjatlar va

malakalarni tan olishning universal tamoyillarini belgilaydi.

Umuman, xorijda va O'zbekistonda tahsil olgan talabalar huquq va manfaatlarini birdek himoya qilish uchun ham 2025-yilning 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyani (Parij, 2019-yil 25-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni to'g'risida"gi qarorni qabul qildi.

Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi Global konvensiyani ratifikatsiya qilgan 20 dan ortiq mamlakatlar quyidagi ijobiy natijalarga erishgan:

birinchidan, tan olish akademik mobillik, ilmiy tadqiqotlarning xalqarolashuvi va ta'lim olishning zaruriy shartlaridan biridir.

Tadqiqotchi va talabalar harakati ta'lim tizimlari o'rtasida yangi g'oya va tashabbuslarni tarqatishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim hamda tadqiqotlarning sifati va dolzarbligini kuchaytirishga ko'maklashadi;

ikkinchidan, malaka va oldingi ta'limni tan olish tizimini yaratish oliygohlarga ilmiy tadqiqot hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, malakalarni tan olish uchun tuzilmalar talabalarni qabul qilish jarayoni sifatini ta'minlashga ko'maklashadi va migrantlar uchun oliy ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

uchinchidan, malakalarni tan olish BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari 4-bandiga muvofiq, oliy ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini oshirish uchun ijtimoiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liqdir.

Global konvensiyaning ijobiy jihatlari tah-

lil qilganda, mazkur xalqaro huquqiy hujjatning istiqbollari ilmiy prognoz qilgan olimlarning fikrlari ham e'tiborga molik.

Xususan, xitoylik olimlar Ka Xo Mok va Xiao Xan "Global konvensiya rivojlanayotgan mamlakatlarda "ziyolilarning ketib qolishi" (brain drain) muammosiga qarshi samarali kurash vositasi bo'lish bilan birga, xorij tajribasidan foydalangan holda, oliy ta'lim tizimini zamonaviylashtirishga (brain-bridging) yordam beradi" degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, bu O'zbekiston uchun ham muhim omildir [16].

Shuningdek, yana bir guruh xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarida "Global konvensiya akademik harakatchanlik va qo'shma ta'lim dasturlarining soni hamda sifatini oshirishga xizmat qiladi" degan fikrni bildirgan [17].

Ayrim olimlar malakalarni tan olishda firibgarlik holatlarining oldini olish masalalarini ham tahlil qilganlar. Konvensiyaning 3-bo'lim, 3-moddasi, 8-bandida ishtirokchi davlatlar firibgarlik holatlariga qarshi texnologiyalardan foydalangan holda, o'zaro hamkorlikda kurashishi belgilangan. Ammo bunday hamkorlik qay tartibda amalga oshirilishi — yechimini kutib turgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Georg va Pauletto kabi olimlarning fikricha, zamonaviy blokcheyn texnologiyasining paydo bo'lishi xorijiy malakalarni tan olish jarayonini texnologik jihatdan soddalashtirishi hamda malakalarni tan olish jarayonlarida firibgarlikning oldini olishga xizmat qiladi [18].

QR-kodlardan foydalanishga o'tilishi natijasida masalaning texnologik jihatlari katta muammo tug'dirmasa-da, tashkiliy-ma'muriy tomondan hanuz umumiy ish tartibi mavjud emas.



Eng muhimi, malakalarni tan olishning global tizimi joriy qilingach, uning amaliyotda qay darajada samara berishiga oid mulohazalar hisoblanadi. Malaka xorijda tan olinsa ham, undan samarali foydalanishda madaniy [19], mehnat bozoriga xos kasb va til ko'nikmalari [20] kabi omillar, shubhasiz, muhim o'rin tutaveradi.

Mantiqan olib qaralsa, Fransiya mehnat bozorida talab qilinuvchi ko'nikmalar Turkiya mehnat bozorida kerak bo'ladigan kasb ko'nikmalaridan farq qilishi tabiiy.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi Global konvensiyani ratifikatsiya qilishi bilan quyidagi masalalar yechimiga ham e'tibor qaratish zarur:

- oliy ta'lim sifatining farqlanishi: barcha mamlakatlarda ta'lim sifatidagi farqlar, tan olish tizimlari rivojlanmaganligi, Konvensiyada ko'zda tutilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun milliy ma'lumot markazlari ochish bilan bog'liq moliyaviy, kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari va umuman olganda, butun jarayonni qamrab oladigan tizim yaratilishi kerak bo'ladi;

- Konvensiyaga a'zo davlatlar amal qiladigan oliy ta'limga oid xalqaro standart va ko'rsatmalarning O'zbekiston Respublikasida mavjud qonun-qoidalardan farq qilishi hamda ular o'rtasidagi tafovutning yuqori ekanligi. Masalan, mamlakatimizda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Xalqaro tajribada, aksariyat mamlakatlarda, jumladan, konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarda ham bu jarayon bir bosqichda tashkil etilgani kuzatiladi.

Mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan beriladigan ilmiy daraja va unvonlarning Konvensiyani qabul qilgan davlatlar tomonidan tan olinmasligi ehtimoli yuqori ekanligini prognoz qilish mumkin.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgach, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bir qator ustunliklarga ega bo'ladi:

- birinchidan, oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashuvi hamda dunyoning yetakchi oliygohlari bilan integratsiyasi kuchayadi. Shuningdek, ta'lim xizmatlarining tashqi bozorga chiqishiga sharoit yaratiladi;

- ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro imiji oshadi, ta'lim xizmatlarining milliy va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik mavqei yanada mustahkamlanadi, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash imkoniyati paydo bo'ladi;

- uchinchidan, oliy ta'limga oid milliy malakalar, ilmiy daraja va unvonlarning xalqaro tan olinishi professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun tashqi akademik mobillik yutuqlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarini xalqaro akkreditatsiya jarayonlaridan o'tkazish tezlashadi. Oliyogohlar tomonidan berilayotgan malakalar xalqaro darajada tan olinadi hamda ularning xalqaro talablarga muvofiqligi sinovdan o'tkaziladi;

- beshinchidan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, professor-o'qituvchilarining jahon mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishlari, ra-

qobatbardosh kadr sifatida tanilishlari, xalqaro darajaga chiqishlariga shart-sharoit yaratiladi;

oltinchidan, transchegaraviy oliy ta'limda sifatni ta'minlash bo'yicha ko'rsatma va mezonlardan foydalangan holda, ta'lim sifatini oshirishga erishiladi;

yettinchidan, zamonaviy oliy ta'lim tizimining bir qismi bo'lgan masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, masofaviy ta'limga ixtisoslashgan milliy va xorijdagi universitetlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda

mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistondagi universitetlar uchun ham Global konvensiyaning ta'siri katta. Ushbu xalqaro hujjat oliygohlar oldiga yangi mas'uliyat va vazifalarni qo'yadi. Dunyo standartlariga moslashish, ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida yuksaltirish talab etiladi [21]. Muhimi, Konvensiya mobillik uchun to'siqlarni kamaytirib, universitetlarimizning xalqaro darajaga chiqishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Global Convention on Higher Education. <https://www.unesco.org>.
2. Recognising Refugee Qualifications for Access to Higher Education: A European Perspective. June 2023. DOI: 10.4018/978-1-6684-7781-6.ch003. In book: Global Perspectives on the Difficulties and Opportunities Faced by Migrant and Refugee Students in Higher Education. Luca Lantero. Chiara Finocchietti.
3. Arab World Refugee Challenges in Higher Education: The Case of Syrian Refugee Students in Jordan Qusai Haj-Yehiya and Khalid Ara Higher education challenges for immigrant and refugee students in a global world. New York: Peter Lang.
4. Monitoring implementation of the Tokyo Convention on recognition: a multi-stakeholder approach to the internationalization of higher education in the Asia-Pacific. July 2021. International Journal of Comparative Education and Development ahead-of-print(ahead-of-print). Follow journal. DOI: 10.1108/IJCED-10-2020-0075. Wesley R. Teter. Libing Wang.
5. Making History: The Importance of a New Global Convention on the Recognition of Higher Education Qualifications | Articles (unesco.org)
6. Draft preliminary report concerning the preparation of a global convention on the recognition of higher education qualifications - UNESCO Digital Library
7. <https://www.unesco.org/en/higher-education/global-convention>.
8. Freeman, Brigid. (2021). Global and national qualifications recognition governance: Tensions, myths, and opportunities to maximise graduate mobility. 10.13140/RG.2.2.28649.01123
9. UN treaty on qualifications recognition enters into force. Brendan O'Malley. 03 March 2023. <https://www.universityworldnews.com/post>.
10. Global HE recognition convention parties get to work. Nic Mitchell 14 July 2023. <https://www.universityworldnews.com/post.php?story>
11. E.Stephen Hunt and Sjur Bergan (2010). Developing attitudes to recognition: substantial differences in an age of globalization. No. 13. Council of Europe higher education series (coe.int). Retrieved from: PDF - Developing attitudes to recognition: substantial differences in an age of globalisation (Council of Europe higher education series No. 13) (coe.int)

12. Lokhoff, J. (2021). Recognition of Foreign Qualifications Celebrates Higher Education Collaboration Too. In: van't Land, H., Corcoran, A., Iancu, DC. (eds) *The Promise of Higher Education*. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-67245-4\\_29](https://doi.org/10.1007/978-3-030-67245-4_29)
13. ЮНЕСКОнинг статистика институти материаллари асосида // Ўзбекистонда таҳсил олаётган хорижлик талабалар сони маълум қилинди. (kun.uz).
14. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги материаллари асосида // Ўзбекистонлик талабалар энг кўп қайси давлатларда ўқиётгани маълум бўлди (xabar.uz)
15. HEMIS – Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi. <https://hemis.uz>.
16. Ka Ho Mok & Xiao Han (2016) From 'brain drain' to 'brain bridging': transnational higher education development and graduate employment in China, *Journal of Higher Education Policy and Management*, 38:3, 369-389, DOI: 10.1080/1360080X.2016.1174409
17. Nguyen Hai Ngan Tran, Carla Alexandra da Encarnação Filipe Amado & Sérgio Pereira dos Santos. (2023) Challenges and success factors of transnational higher education: a systematic review. *Studies in Higher Education* 48:1, pages 113- 136.
18. Michoulis, George & Petridou, Sophia & Vergidis, Kostas & Michoulis, George. (2020). Verification of Academic Qualifications through Ethereum Blockchain: An Introduction to VerDe.
19. Jones, Elspeth. (2013). Internationalization and employability: The role of intercultural experiences in the development of transferable skills. *Public Money & Management*. 33. 10.1080/09540962.2013.763416.
20. DUVANDER, ANN-ZOFIE. (2001). Do Country-Specific Skills Lead to Improved Labor Market Positions?: An Analysis of Unemployment and Labor Market Returns to Education among Immigrants in Sweden. *Work and Occupations - WORK OCCUPATION*. 28. 210-233. 10.1177/0730888.
21. Мустофоқулов Ш. Ўзбекистон таълим тизимининг глобал майдондаги дадил қадами // Халқ сўзи. 2025 йил 19 ноябрь, № 241 (9136).





**Soliha ALLAYOROVA,**

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori

# H-indeksini qanday oshirish mumkin?

Oliy ta'limni tizimli isloh va modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da belgilab berilgan. Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari qatorida ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan "Xirsh" indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini oshirish ham keltirib o'tilgan. 2019-yilda bu ko'rsatkichga ega professor-o'qituvchilar 142, 2025-yil dekabr oyi boshidagi statistikaga ko'ra, esa 600 nafarni tashkil qildi. Raqamlar maqsadli ko'rsatkichlarga erishilayotgani, belgilangan vazifalar bajarilayotganini dalillamoqda. Nazarimizda, bu ta'lim tashkilotlarida kadrlarni ishga qabul qilish, rag'batlantirish talablariga "Xirsh" indeksi masalasi kiritilgani bilan bog'liq. Ammo, hanuz "xirsh"ning nima ekanini tushunmaydigan, "qalbaki" ko'rsatkichlar bilan ko'krak keradiganlar ham bor. Qolaversa, sohaga yangi, yosh izlanuvchilar ham kirib kelmoqda. Ayni sabablarni inobatga olib Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori Soliha Allayorova bilan suhbat qildik.

— **“Xirsh” indeksi ilmiy salohiyatni baholashda qanchalik ishonchli mezon? Uning afzalliklari va cheklovlari haqida aytib bersangiz?**

— “Xirsh” indeks — bu olim yoki tadqiqotchi tomonidan nashr etilgan ilmiy ishlarining samaradorligi, mahsuldorligi va iqtibos ta’sirini o’lchaydigan ko’rsatkich. Ushbu tushuncha fanmetrikaning tarkibiga kiradi. H-indeksi xalqaro miqyosda Nobel mukofotiga sazovor bo’lish, ilmiy tadqiqotlarga qabul qilish va eng yaxshi universitetlarda lavozimlarni egallash kabi yutuqlarga erishishda yordam beradi. Respublikamizda ham olim va tadqiqotchilar faoliyati samaradorligini belgilashda ushbu mezon muhim ahamiyatga ega. Jumladan, akademik unvonini berish, Innovatsion rivojlanish agentligi qoshidagi Ilmiy texnik Kengashlarga a’zolik, qolaversa, davlat ilmiy loyihalariga rahbarlik qilishda olimlarning nufuzli ilmiy bazalardagi h-indeksi e’tiborga olinadi. Shu bilan birga, ayrim oliy ta’lim muassasalari KPI mezonlariga ham Scopus va WOS bazalaridagi h-indeksiga qarab ustamalar beriladi. Bu indeks aslida qanday ma’noga ega? Ushbu atamaning ilmiy jamoatchilikka kirib kelishi San-Diegodagi Kaliforniya universiteti fizigi Xorxe Xirsh tomonidan fiziklarning ilmiy faoliyati samaradorligini ko’rsatuvchi metrika sifatida taklif qilingan. 2005-yildan ilmiy muomalaga kiritilgan h-indeks olimning ilmiy ish-

lari, maqolalariga qilingan murojaatlar soniga asoslanadi. Bundan tashqari, ilmiy faoliyat samaradorligini o’lchovchi boshqa indekslar ham mavjud. Jumladan, 2006-yilda Leo Egji tomonidan taklif etilgan G-indeks — olimning ilmiy samaradorligini baholash indeksi bo’lib, u tadqiqotchining eng ko’p iqtibos olgan maqolalarining jami iqtiboslari asosida hisoblanadi. Yana biri – I-indeks. Ammo, ular “Xirsh” kabi ommalashmagan. Eng yirik fanmetrik bazalar, jumladan, Scopus, WOS, RINTs, ResearchGate kabi bazalarda ilmiy faoliyat samaradorligi Xirsh indeksi bilan o’lchanadi. Bugungi kunda olimlarning ilmiy salohiyatini baholashdagi asosiy xalqaro mezon h-indeks hisoblanadi. U — muallifning maqolalari soni va shu maqolalar soniga mos iqtiboslikning mavjudligi bilan o’lchanadi. Masalan, Xirsh indeksi 3 bo’lishi uchun kamida uchta maqolaga 3 tadan (kamida 9 ta) iqtibos olingan bo’lishi lozim. Lekin uni soxtalashtirish, ya’ni sun’iy oshirish mumkin. Xususan, 2021-, 2022-yillarda oliy ta’lim tashkilotlari professor-o’qituvchilardan xalqaro ilmiy bazalardagi profillar ustida ishlash bo’yicha talabni kuchaytirdi, oqibatda iqtibos va Xirsh indeksini sun’iy oshirish holatlari kuzatildi.

# h-index

**— Nega mana shunday holatlar ko'paydi? Aslida, professor-o'qituvchilarning "Xirsh" indeksini oshirishga to'siq bo'layotgan muammolar nimalardan iborat?**

— Maqola jamiyat, insoniyat uchun foydali bo'lsa, undan iqtibos olinadi. Afsuski, respublikamizdagi aksariyat mualliflar (ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda) tadqiqot o'tkazmasdan maqola yozadi. Yirik mikrobiolog, xalqaro darajadagi akademik Dilfuza Egamberdiyeva ishonchli va nufuzli nashrlarda o'zbekistonlik tadqiqotchi-olimlarning faol emasligini quyidagicha izohlaydi: "Ko'pgina olimlar tadqiqot metodologiyasi va natijalarini taqdim qilish bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Shuning uchun izlanishlarini yuqori darajadagi jurnallarga taqdim eta olishmaydi". Bizning fikrimizcha ham asosiy muammo – tadqiqot metodologiyasining zaifligidir. Ma'lumki, barcha magistratura mutaxassisliklariga "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani birinchi semestrda 5 kreditlik yuklama asosida o'qitiladi. U magistrlarda mutaxassislik doirasida nazariy va empirik tadqiqot olib borish ko'nikmalari, ilmiy faoliyat natijalarini chop ettirish, faoliyat ko'rsatkichlari (iqtibos, Xirsh indeks)ni oshirish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Aksariyat oliy ta'lim muassalarida ushbu fan mutaxassis tayyorlovchi kafedra professor-o'qituvchilari, ayrim OTMda ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, falsafa fanlari bo'yicha ilmiy darajaga egalar tomonidan olib boriladi. Biz bu ma'lumotlarni fanini qaysi kafedra tomonidan o'tilishiga emas, balki tegishli sohaning tadqiqot metodologiyasini chuqur biluvchi mutaxassislar o'qitishi

maqsadga muvofiqligini e'tiborga olish zarurligi uchun keltirdik. Vazirlikning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'ida bakalavriat bosqichi barcha ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi majburiy fanlar blokidagi "Falsafa", "Dinshunoslik" va "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanlari dasturlarining O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilishi belgilab qo'yilgan. Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasidagi majburiy fanlar nazarda tutilmagan. Bu masalaga e'tibor qaratishimizning sababi shundaki, aksariyat OTM "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani dasturi va sillabusini tayanch tashkilotlardan oladi va mutaxassislik malaka talablariga mos yoki mos emasligiga e'tibor qaratmay, tashkilot nomi, mas'ullar ism-sharifini o'zgartirib, tasdiqlab o'quv jarayoniga tatbiq qiladi. Bu noto'g'ri. Chunki har bir mutaxassislikning malaka talablari alohida mazmunga ega, umumiy kompetensiyalar o'xshash bo'lsa-da, kasbiy kompetensiyalar farq qiladi. Malaka talablari mazmunidan kelib chiqib o'quv dasturlari yaratiladi. Demak, "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani o'quv dasturini ham tayanch OTMdan to'g'ridan to'g'ri olib o'quv jarayoniga tatbiq etmay malaka talabi, kerak bo'lsa, hududiy ish beruvchilar talabidan kelib chiqib yondashishlari lozim. O'quv dasturini ishlab chiquvchi professor-o'qituvchilar fan nomi va yuklama hajmi-kre-



ditlar miqdorini o'zgartira olmaydi, xolos. Mavzular, mustaqil ta'lim topshiriqlari, fanni o'zlashtirish uchun tavsiya qilinadigan manbalar fan bo'yicha ma'ruza o'tadigan o'qituvchi tomonidan mutaxassislikning zamonaviy tendensiyalari va trendlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi kerak. Magistrantlarda ilmiy faoliyat mazmunini tushunish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, mutaxassislik doirasida tadqiqotlar olib borish, ilmiy nashr faolligi ko'rsatkichlarining ahamiyati, xususan, iqtiboslik va h-indeks kabilar ushbu fan doirasida o'qitiladi. Lekin fan bo'yicha amaldagi o'quv dasturlari mazmunini tahlil qilib chiqsak, barcha OTM o'quv dasturlarida yuqorida keltirilgan masalalarga e'tibor qaratilmagan. Natijada, magistraturani bitirib oliy ta'limga o'qituvchi bo'lib ishga kirganlar xalqaro bazalardagi profil, iqtibos va Xirsh indeksi haqida ma'lumotga ega bo'lmay turib, pedagogik faoliyatga jalb qilinmoqda. Universitet tomonidan talab qilingan ilmiy ko'rsatkichlar haqida tayanch bilim va tasavvurga ega bo'lmagani sababli o'qituvchilarning aksariyati hatto Google Scholar da ham o'z profilini yuritmaydi. 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini

qabul qilish to'g'risida"gi farmonda oliy ta'lim muassasalari mazmunini Universitet 3.0 konsepsiyasi asosida tashkil qilish belgilangan. Endi bir tasavvur qiling, xalqaro ilmiy bazalar yoki, umuman, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmagan pedagoglar bilan qanday qilib Universitet 3.0 modelini amalga oshirish mumkin? Bu masalaga yechim ta'limning quyi bosqichidagi o'qitish sifatiga bog'liq. Shuning uchun magistratura bosqichida talabalarni ilmiy faoliyatga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan to'liq qurollantirishimiz lozim. Bunga "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanining mazmunini takomillashtirish bilan erishish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda professor-o'qituvchilarning h-indeksi ko'rsatkichini yaxshilash uchun tadqiqotlar sifatini oshirishimiz zarur. Yetakchi filolog olim, professor Bahodir Karimning: "...tadqiqotchilar yozilganlarni yozish, aytilganlarni aytish, ko'chirilganlarni ko'chirish bilan cheklanmoqdalar", deganida ham aynan shu sohadagi kamchiliklarni nazarda tutgan bo'lsa, ajabmas. Bu shuni ko'rsatadiki, professor-o'qituvchilarning h-indeksini oshirishiga to'siq bo'layotgan tashqi muammolar yo'q. Buning uchun "iste'molchi"si bor maqola yozish kerak, xolos.



Google  
Scholar



**— Qisqa muddatda h-indeksni oshirishning ishonchli, samarali usullari bormi? Ularni keltirib bera olasizmi?**

— Xirsh indeksi inson tomonidan yaratilgan boshqa instrumentlar kabi boshqarilishi, ya'ni rejali oshirilishi mumkin. Lekin uni oshirishning eng to'g'ri, tabiiy va halol usuli, takror bo'lsa ham aytishimiz lozim, yaxshi maqola yozish. Chunki, bu yo'ldagi har qanday usul Xirshning tabiiy oshishiga zid ekanligini unutmaslik kerak va bu akademik

halollikka zid. Ayniqsa, Xirsh emas, iqtiboslikning qisqa muddatda oshishi olimning akademik ishchanligiga putur yetkazadi. Ilmiy tadqiqot mavzui shu masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ko'plab olimlarning xalqaro bazalardagi profillarini o'rganganman. Qisqa muddatda h-indeksini oshirishning tadqiqotchi-kuzatuvchiga qanday ta'sir qi-



lishini tushuntirib bermoqchiman. Aytaylik, Google Scholar bazasidagi yetakchi olimning 2020-yildagi iqtiboslik soni 15 ta, 2021-yilda 7 ta, 2022-yilda 350 ta, 2024-yilda 12 ta, 2025-yilda 5 ta. Bu muallifning Google Scholar profilining o'ng tomonidan yaqqol ko'rinib turadi. Barcha iqtiboslarning asosini ham ko'rishingiz mumkin. Bu kabi profillar, afsuski, ko'p. Yana bir yomon tomoni – aksariyat ustozlarimiz, fan doktori, professorlarimizning profillarida shu holat yosh olimlarga nisbatan uchraydi. Buni ham sababini aytishimiz mumkin – 2018-2019-yillarda oliy ta'lim, ilmiy faoliyat sohasida katta o'zgarishlar boshlangan vaqtida iqtiboslik va Xirsh indeksi ham kun tartibiga chiqdi. Har bir oliy ta'lim muassasasida hatto, shu masalalar bo'yicha mas'ullar belgilandi. Bu to'g'ri siyosat edi. Lekin biz uni bajarishda yana kamchilikka yo'l qo'ydik – iqtiboslikni sun'iy oshirish usullari borligini bilib olib, suiiste'mol qildik. Ustoz-professorlarimiz uchun bu profillarini yosh shogirdlar, ITni yaxshi tushunadigan kafedra o'qituvchilari mas'ul bo'ldi va iqtiboslikni har xil yo'llar bilan oshirishdi. Ayrim hollarda yoshi katta ustoz-professorlarimiz o'z profillarini o'zlari boshqarmaydi va tabiiyki, iqtiboslikning sun'iyligiga ham e'tibor qaratmaydi. Lekin Scopus va WOS bazasida iqtiboslik va Xirshni oshirish Google Scholar-dagi kabi oson emas.

Shu o'rinda tadqiqotchi-olimlarning ilmiy faoliyat metrikasini o'zida aks ettiruvchi platformalarning mazmunini qisqacha bayon etsak.

Google Scholar ([scholar.google.com](http://scholar.google.com)) — barcha yo'nalishlardagi ochiq ilmiy nashr-

larni o'zida jamlagan bepul qidiruv tizimi. Faoliyatini 2004-yil noyabr oyidan boshlagan. Hozirgi kunda Google Scholar Yevropa va Amerikaning nufuzli yirik nashriyotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, nashr qilingan maqolalarni ro'yxatdan o'tkazish va to'liq hajmda taqdim etish xususiyatiga ko'ra Scopus va Web of Science ga o'xshaydi. Mutaxassislar tomonidan platformaning ishlash funksiyasi Scirus, CiteSeerX va GetCITED saytlariga o'xshash ekanligi qayd etilgan.

Scopus ([scopus.com](http://scopus.com)) – dunyodagi eng yirik ilmiy adabiyotlarni jamlagan ma'lumotlar bazalaridan biri. U o'zida tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, texnika, tibbiyot va san'at yo'nalishlariga oid 49 208 dan ortiq 7000 ta xalqaro nashriyotlar tarkibiga kiruvchi davriy nashrlarni jamlagan. Scopusni mutaxassislar ilmiy-tadqiqot natijalarining sifatini qat'iy standartlar asosida saqlagan holda muntazam ravishda ma'lumotlarni boyitib, ularni foydalanuvchilar va mualliflar uchun qulay taqdim eta oladigan platforma sifatida e'tirof etadi. Scopus ma'lumotlarining sifati yetakchi universitetlar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan ko'p yillar davomida e'tirof etib kelinmoqda. Shu bois ham xalqaro reyting tashkilotlari QS World University Rankings, Financial Times va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari ko'rsatgichlarini aynan Scopus bazasidan oladi.

Web of Science ([clarivate.com/webof-sciencegroup/solutions/web-of-science/](http://clarivate.com/webof-sciencegroup/solutions/web-of-science/)) – eng qadimgi (arxiv ma'lumotlari 1980-yildan boshlab saqlanib kelinmoqda) xalqaro bibliometrik platforma hisoblanadi. Web of Sci-



ence gumanitar, tabiiy fanlar va texnik sohalarda olimlar tomonidan yozilgan va yetakchi xalqaro jurnallarda chop etilgan 50 milliondan ortiq ilmiy maqolalarni o'zida jamlagan. U 33 mingga yaqin xalqaro jurnallarni, rus tilidagi ikki yarim mingdan ortiq jurnallarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, Web of Scienceda mualliflar, iqtiboslar darajasi hamda muassasalar haqida ma'lumotlar mavjud. Qidiruv qulayligi uchun foydalanuvchilar ma'lumotlarni muallif, ilmiy tashkilot, mamlakat, nashr, mavzu toifalari bo'yicha filtrlashlari mumkin (xuddi Scopusdagi kabi). Mazkur platformadagi ma'lumotlar har hafta yangilanib boriladi.

ResearchGate (<https://www.researchgate.com>) – bu olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yozilgan maqolalarni keng o'quvchilar ommasini bilan bo'lishish, ularning fikr-mulohazalarini o'rganish, savol-javoblar o'tkazish hamda hamkorlarni topish uchun tashkil etilgan foydali ijtimoiy tarmoq. Unga 2008-yilda asos solingan. 2014-yilda Nature tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar hamda Times Higher Education jurnalida chop etilgan maqolada berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ResearchGate faol foydalanuvchilar bo'yicha eng katta akademik ijtimoiy tarmoq hisoblanadi.

RINS (Rossiya ilmiy iqtiboslar indeksi) – bu Rossiya milliy fanmetrik bazasi va analitik tizimi bo'lib, u Rossiya nashrlaridagi iqtiboslanishini monitoring qiladi va tizimlashtiradi. Shu orqali tadqiqotchilar, tashkilotlar va jurnallar faoliyatining samaradorligini maxsus indekslar orqali baholash imkonini beradi. U "Ilmiy elektron kutubxo-

na" ([www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru)) kompaniyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Bugungi kunda yuqorida keltirilgan ilmiy bazalardan tashqari ham ko'plab fanmetrik va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi platformalar mavjud. Biz respublikamiz olimlari uchun eng umumiy va asosiylariga e'tibor qaratmoqdamiz. Keltirilgan bazalardan tadqiqotchi-olimlar korporativ pochta orqali ro'y-xatdan o'tishlari lozim. Korporativ pochtdan o'qituvchilarimiz faol foydalanishi lozim. Korporativ pochta faolligi OTM saytining ham barqarorligini ta'minlaydi.

Google Scholar, Scopus, Web of Science, ResearchGate, RINS – platformalarining o'ziga xosligi mavjud. Jumladan, Google Scholar, Web of Science, ResearchGate, RINS da tadqiqotchi profilni o'zi yaratadi. Tadqiqotchining ma'lumotlari to'g'ri kiritilganda tizimning instrumentlari muallifning tegishli bazalarda indekslangan ilmiy tadqiqot ishlarini profilga chiqarib beradi.

Scopus bazasi tadqiqotchining maqolasi tizimda indeksatsiya bo'lgandan so'ng muallifga Scopus ID yaratib, profil linkini taqdim etadi. Google Scholar – tadqiqotchiga profil linki beradi; Web of Science, ResearchGate, RINSda tadqiqotchi profilni o'zi yaratadi. Web of Science tadqiqotchiga Research ID raqam beradi; RINS tadqiqotchiga 8 ta raqamdan iborat SPIN- kod beradi.

Umuman olganda, magistraturani bitirib oliy ta'limda pedagogik va ilmiy faoliyat yuritish maqsadida bo'lgan barchaga yuqoridagi ilmiy bazalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish tavsiya qilinadi.



### — Qaysi turdagi ilmiy maqolalardan ko‘proq iqtibos olinadi va buning sababi nimada?

— Odatda, maqola yozganimizda bizgacha mavzuning o‘rganilganini asoslashda, nazariya va yondashuvlarni muhokama qilganda boshqa mualliflarning ilmiy ishlaridan iqtiboslar keltiramiz. Demak, ilmiy atamalar, nazariya va tamoyillar, usul va vositalar, yondashuv va qarashlar kabilarni o‘zida aks ettirgan maqolalarga ko‘proq murojaat qilinadi. Shu bilan birga, maqolalarning nazariy xulosalari ham keyingi tadqiqotchilar uchun muhim. Ko‘proq iqtibos olinishiga maqolaning metama‘lumotlari to‘g‘ri shakllantiril-

ganligi ham ta‘sir qiladi. Metama‘lumotlar bu – maqola mavzusi, muallifning ism-sharifi, annotatsiya va kalit so‘zlar. Ushbu elementlar qanchalik to‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lsa, maqolaga murojaatlar shuncha ko‘p bo‘ladi. Ba‘zan maqola juda dolzarb, muhim ilmiy muammoga yechim taklif qilingan bo‘lishi mumkin. Lekin maqolaning kalit so‘zlarini belgilashda shu ilmiy muammoni aks ettiruvchi atamalar keltirilmagan bo‘lsa, maqolaga umuman iqtibos berilmasligi mumkin. Chunki, ko‘pchilik tadqiqotchilar ilmiy ba-



zalardan qidiruvni kalit soʻzlar orqali amalga oshiradi. Har doim yodda tutish kerakki, barcha indekslovchi bazalar maqolaning metamaʼlumotlarini indeksatsiya qiladi, ma-

qolaning toʻliq matnini emas. Shuning uchun ushbu maʼlumotlar yuqori akademik uslubda, aniq, qisqa va tushunarli shakllantirilishi, jozibador boʻlishi ham kerak.

### — Maqolalarni qaysi platformalarga joylashtirish iqtiboslarni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi?

— Bizga maʼlum, Google Scholar va Scopus bazalariga tizimning oʻzi maqolani indeksatsiya qiladi. WOS va ResearchGate platformalariga muallif maqolalarni yuklashi mumkin. Yuklangan maqolalar WOS va ResearchGateda indeksatsiya qilingan nashrlarda chop etilmagan boʻlsa-da, shu maqolalardan keltirilgan bazalarda indeksatsiya qilingan

nashrlarda chop etilgan maqolalar iqtibos olsa, iqtiboslik va h-indeksi shakllanadi va oshishi mumkin. 4-5 yillar avval Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ScienceWeb platformasi yaratildi, 2023-yillarda faol ishladi, ushbu platforma mualliflarning Google Scholar va Scopus profillarini ham oʻziga integratsiya qilgan edi. Lekin bizga maʼlum



bo'lmagan sabablar bilan shu platforma faoliyati ommalashmadi. Shuning uchun hozircha maqolalarni joylashtirish mumkin bo'lgan eng katta platforma deb ResearchGateni aytishimiz mumkin. O'zbekistonlik olimlarning barchasini ham ushbu platformadan foydalanish darajasini yuqori deb ayta olmaymiz. Bu ham nazarimizda, ta'lim muassasalarining ilmiy va innovatsiya ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlari e'tibor qaratishlari lozim bo'lgan masalalardan biri. Bu fikrimizni quyidagi holat bilan izohlashga harakat qilamiz: O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq

(mintaqaviy) markazida 2025-yil sentabr-noyabr oylarida malaka oshirgan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi guruhlarda ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning ResearchGate platformasidan foydalanish darajasi 30 foizga ham yetmaydi. Bu ko'rsatkich ushbu professor-o'qituvchilarning korporativ pochtdan foydalanish darajasini ham gipotetik jihatdan baholash imkoniyatini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, professor-o'qituvchilarning ilmiy-innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiluvchi fanmetrik bazalardan foydalanish darajasini oshirish lozim.

### — Jurnallarni to'g'ri tanlash mezonlari qanday? Qalbaki jurnallardan saqlanishning sinalgan usuli bormi?

— Jurnal tanlash tadqiqotchining alohida qobiliyatiga aylanmoqda. Ayrim hollarda tadqiqotchilar shu qobiliyatning yetishmasligidan o'zlarining bir necha yillik mehnatlarini "yirtqich" jurnallarga topshirib qo'ymoqda. Tadqiqotchi maqola yozishi davomida, hatto maqola yozishni boshlamasdan avval qaysi jurnalga ushbu qo'lyozmani chop etishga berishini bilishi kerak. Maqolani yozib bo'lib keyin jurnal qidirish bu – xato. Jurnalni to'g'ri tanlash mezonlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- davriy nashr, qat'iy reglamentga ega;
- retsenziyalash real ishlaydigan (peer review, (double-blind review));
- bepul (bunday nashrlar O'zbekistonda kam, lekin xorijda ko'p);
- indekslanishga ega (OAK, RINTs, Scopus, WOS va hokazo);

– tahrir hay'ati a'zolarining ochiq va shaffofligi;

– nashr uchun to'lovlarning aniq ko'rsatilishi (qaysi xizmat uchun qancha to'lov talab qilinishi oshkora);

– nashr muddati (ishonchli nashrlar hech qachon 3 kun yoki bir hafta muddatda maqola chop ettirmaydi).

Qalbaki jurnallar yuqoridagi keltirilgan sifatlarning mavjud emasligi bilan farqlanadi. Jumladan, ular:

- qisqa muddatda chop etishni va'da qiladi;
- jurnal sayti sifati professional bo'lmaydi;
- qo'lyozmani taqrizdan o'tkazish haqida ma'lumot topa olmaysiz;
- tahrir hay'atining soxtaligini farqlash mumkin;
- jurnal nomida «American...», «International...» kabi so'zlarning bo'lishi;

- asoslarsiz to'lov belgilangan;
- soxta metrikalar, masalan, noma'lum bazalardagi Impact Factor 9.2 kabi va hokazo.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkin, har bir professor-o'qituvchi o'zining tadqiqot sohasi, kerak bo'lsa, mavzusi bo'yicha Scopusdan 2 ta, WOSdan 2 ta, RINSdan 2 ta, Research-Gatedan 2 ta, OAKdan kamida 2 ta jurnallarning

doimiy obunachisi bo'lishi kerak. Bu zamon talabi. Agar tadqiqotchining maqolasi nashr qilingan jurnal OTM yoki OAK tomonidan sifatsiz yoki ishonchsiz deb topilgan bo'lsa, bu tadqiqotchining kamchiligi. Bizning fikrimizcha, ilmiy tadqiqot natijasini chop ettirish uchun nashrni tanlay bilish ham hozirgi zamon tadqiqotchilariga qo'yilayotgan muhim talablardan biridir.

**– Xalqaro ilmiy hamkorlik h-indeksi o'sishiga qanday ta'sir qiladi? Bunday hamkorlikni qanday yo'lga qo'yish kerak?**

– Xalqaro ilmiy hamkorlik h-indeksi o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. Xalqaro hamkorlikni hammualliflikda ilmiy maqola yozib amalga oshirish mumkin. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar olimlari uchun ilmiy hamkorlik, xususan, hammualliflikda maqola nashr ettirish juda muhim. Chunki:

- hamkorlik natijasida iqtiboslar oshadi va bu h-indeksi oshishiga olib keladi;
- xorijlik nufuzli hammualliflar tufayli yuqori impakt-faktorli jurnallarda maqola chop ettirish osonlashadi;
- tadqiqotning ko'lami va ta'siri oshadi;
- maqolada mualliflarning ko'p bo'lishi



– ilmiy ish, ilmiy g'oyaning ommalashishiga sabab bo'ladi va o'quvchilar auditoriyasining oshishi iqtiboslikni oshiradi.

Bunday hamkorlikni yo'lga qo'yishning yo'llari ko'p. Bu masaladagi eng samarali instrument — ResearchGate. Chunki ushbu

platforma har bir soha bo'yicha dunyoning eng yetakchi olim va tadqiqotchilarni avtomatik birlashtiradi. Tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlariga ko'ra profil oynasida yetakchi mutaxassislar va ularning ilmiy ishlari haqida manbalarni taqdim etadi.

### — **Universitetlar professor-o'qituvchilari bilishi shart bo'lgan eng muhim indikatorlarga ham to'xtalib o'tsangiz.**

— Har bir professor-o'qituvchi, avvalo, ilmiy bazalarda profilga ega bo'lishi va ushbu profilni o'zi faol, doimiy boshqarishi kerak. Buning uchun:

birinchidan, OTM domenidagi korporativ pochta faol bo'lishi;

ikkinchidan, ixtisosligi bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqot tendensiyalari va trendlarini bilishi;

uchinchidan, ilmiy mavzusi (yo'nalishi) bo'yicha zamonaviy paradigmani yaratuvchi ilmiy maktablar faoliyati bilan tanish bo'lishi;

to'rtinchidan, dunyoning TOP-10 ta universitetlarida o'zi o'tadigan fanlar qanday o'qitilayotganini, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga qanday yondashilayotganini bilishi;

beshinchidan, ilmiy faoliyat natijalari-

ni tijoratlashtirishga qobiliyatli bo'lishi;

oltinchidan, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarining jamiyatda iste'molchisi kim ekanligini bilishi;

yettinchidan, ilmiy yo'nalishi bo'yicha kamida 2 tadan OAK, RINTs, Scopus va WOS bazalarida indekslanuvchi ilmiy jurnallarni bilishi, chop etiladigan ilmiy maqolalardan xabardor bo'lishi;

sakkizinchidan, ilmiy faoliyati samaradorligini monitoring qilib borishi zarur.


Bir so'z bilan aytganda, professor-o'qituvchilar oliy ta'limdagi faoliyatini ta'lim-tadqiqot-tijoratlashtirish asosida tashkil qilishi lozim. Olimning intellekti, ilmi o'zi va jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Professor-o'qituvchi ilmining jamiyatni barqaror rivojlanishi uchun qo'shadigan hissasini tasavvur qila olishi lozim.

### — **Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish h-indeksni oshirish jarayonida qanchalik samara beradi?**

— Sun'iy intellekt vositalaridan h-indeksini oshirish jarayonida foydalanish maqsadga

muvofiq emas. Chunki bu ilmiy ko'rsatkichlarning soxtalashtirilishiga olib keladi.





### — Ilmiy etika: h-indeksni oshirishda qanday noto'g'ri yondashuvlardan ehtiyot bo'lish kerak?

— Olimlar orasida ilmiy etika tamoyillari-ga amal qilish eng muhim qadriyatga aylanib bormoqda. Chunki fan-texnika rivoji, sun'iy intellektdan foydalanish ta'siri barcha soha kabi ilmiy faoliyat sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Tadqiqotchilar o'z-o'ziga iqtibos berishda me'yorga amal qilishi kerak. Aksariyat Scopus jurnallariga o'z-o'ziga iqtibos keltirish taqiqlanadi, ayrimlarida esa 10 foizgacha cheklov belgilab qo'yilgan. Ilmiy jamoalarda iqtibos berishni rejalashtirish orqali h-indeksini oshirish ham ilmiy etikaga zid. Maqola qo'lyozmalarini sifatsiz jurnallarda (predatory journals)

chop qilishdan ehtiyot bo'lish kerak. Tayyor maqolaga hammuallif bo'lish – ilmiy etikaning eng og'ir va ommalashayotgan masalasi. Keltirilgan har bir yondashuvlarning olim va ziyolilar o'rtasida sodir bo'layotgani katta inqirozlarimizdan. Tadqiqotchi olim uchun maqsad – h-indeksini oshirish bo'lishi kerak emas. Ilmiy tadqiqotlar olib borishning tub mohiyati – jamiyat va hayotdagi muammolarga ilmiy yechimlar ishlab chiqishdir. Agar har bir kichik tadqiqot – maqola shu vazifani bajarsa iqtibos ham, uning ketidan h-indeks ham tabiiy tarzda oshadi.

### — Mazmunli va foydali suhbatingiz uchun rahmat!

**“O'zbekistonda oliy ta'lim” jurnali  
ijodiy muharriri Sadoqat Maxsumova suhbatlashdi.**

**Botir QOSIMOV,**

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Ta'lim samaradorligini tadqiq qilish bo'lim  
boshlig'i

**Ruxsat PARMANOVA,**

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Ta'lim samaradorligini tadqiq qilish bo'lim bosh  
mutaxassisi

**Ruslan AHMEDOV,**

Urganch davlat tibbiyot instituti Ta'lim sifati  
nazorati bo'lim boshlig'i

# Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilimlarini mustaqil baholash tizimini xalqaro tajribalar asosida joriy etish yo'llari

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasini isloh qilish jarayonida oliy tibbiy ta'lim tizimining sifatini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning bilim darajasini xalqaro standartlar asosida baholash, ularning amaliy ko'nikmalarini mustaqil nazorat qilish va shaffof tizimni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Prezidentimizning 2022-yil 6-maydagi **“Tibbiyot ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ–238-son qarorida** ham tibbiy kadrlar tayyorlash sifatini baholashda xalqaro mezonlardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida **mustaqil baholash markazlarini** tashkil etish va ularni xalqaro akkreditatsiya talablariga muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tibbiy ta’limda baholash tizimining o’rni**

Tibbiyot yo’nalishlarida o’qitish jarayoni-ning samaradorligi nafaqat nazariy bilimlarni o’zlashtirish, balki amaliy klinik ko’nikmalarni shakllantirish bilan belgilanadi. Shu sababli, baholash tizimi **bilim, malaka va kompeten-**

**siyalarni** to’liq qamrab olishi lozim. An’anaviy baholash shakllari (yozma yoki og’zaki imtihonlar) bugungi kunda talab etilayotgan **obyektiv va mezonli baholash** tamoyillariga to’liq javob bera olmaydi.

### **Xalqaro tajribalar tahlili**

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimlarini mustaqil baholash tizimini joriy etish bo’yicha xalqaro markazlar faoliyatini taqqoslash, har bir tashkilotning o’ziga xos metodologiyasi, imtihon tizimlari va global ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlari nuqtayi nazaridan zarur hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi tibbiy ta’lim markazlari (AQSh, Avstraliya, Kanada, Germaniya va Turkiya)da talabalarning bilim va amaliy ko’nikmalarini baholashda quyidagi usullar keng qo’llaniladi:

### **Talabalar bilimini mustaqil baholash xalqaro markazlarining asosiy jihatlari:**

Davlati	Xalqaro Markaz	Yo’nalish	Baholash tizimi	Asosiy farq
AQSH	National Board of Medical Examiners (NBME)	AQSH tibbiyot ta’limi va litsenziyasi	USMLE (United States Medical Licensing Examination)- testlari, klinik va nazariy bilimlarni baholash	Tibbiyot bilimlarini to’g’ridan to’g’ri baholash
AQSH	Educational Commission for Foreign Medical Graduates (ECFMG)	Xalqaro tibbiyot bitiruvchilari uchun baholash	USMLE (United States Medical Licensing Examination)- orqali xalqaro tibbiyot bitiruvchilarini baholash	Xalqaro bitiruvchilarni AQSH tizimiga kiritish
Kanada	Medical Council of Canada (MCC)	Kanada tibbiy litsenziyasi	MCCQE testlari, klinik va nazariy bilimlarni baholash	Kanada amaliyotiga kirish uchun zarur bo’lgan bilimni tekshirish
Avstraliya	The Australian Medical Council (AMC)	Avstraliya tibbiy litsenziyasi	AMC imtihonlari, klinik va nazariy bilimlarni baholash	Avstraliya tibbiy amaliyotiga kirish uchun zarur bo’lgan bilimni tekshirish
Qozog’iston	National Center for Independent Examination (NCIE)	Qozog’iston Respublikasida tibbiy xizmatlar sifatini oshirish	OSCE (Objective Structured Clinical Examination) - bu obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon	Qozog’istonda tibbiyot xodimlari va talabalarining bilimini mustaqil baholash





Mustaqil baholash tizimi dunyoning turli mamlakatlarida, xususan, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda. Quyidagi xalqaro tajribalar tibbiyot ta'limida mustaqil baholash tizimining samarali joriy etilganligini ko'rsatadi:

### **1. Buyuk Britaniya tajribasi:**

Buyuk Britaniya tibbiyot ta'lim muassasalarida **“Formativ”** baholash (talabaga o'qish jarayonida fikr-mulohaza qilish hamda o'z bilim darajasini nazorat qilib borish), **“Summativ”** baholash (tegishli bosqich yakunida talaba bilimi standartga muvofiqligini belgilash uchun o'tkaziladi) va **“Interaktiv testlar”** talabalar bilimni baholashda qo'llaniladigan asosiy usullar hisoblanadi. Talabalar o'z bilimlarini turli testlar, interaktiv mashqlar va klinik simulyatsion trenajorlar orqali sinovdan o'tkazadilar. Ushbu tizimlar talabalar bilimni doimiy ravishda nazorat qilib borishga undaydi va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi.

### **2. AQSH tajribasi:**

**Bilim va nazariy tayyorgarlikni baholash:**

Mavzular bo'yicha oddiy va murakkab javobli testlar, qisqa javobli savollar ishlab chiqiladi;

Standartlashtirilgan milliy imtihonlar o'tkaziladi, masalan: USMLE Step 1 va USMLE Step 2.

**Amaliy va klinik ko'nikmalarni baholash:**

Talabalarning bemorlar bilan muloqot qilishlari, tibbiy ko'rik o'tkazishlari, tibbiy holatni tahlil qilishlari va muolaja rejasini tuzishlari kabi ko'nikmalarni baholashga qaratilgan qadam baqadam bajariladigan amaliy imtihonlar — masalan Objective Structured Clinical Examination (OSCE) o'tkaziladi;

Klinik stajirovkalar bosqichi – professorlar, shifokorlar tomonidan nazorat qilinadi va baholanadi. Bunda talabaning amaliyotdagi faoliyati, jamoada qanday ishlagani, bemorga tibbiy yordam ko'rsatishi kuzatib boriladi.

AQSHda tibbiyot ta'limida **OSCE (Objective Structured Clinical Examination)** keng

qo'llaniladi. Bu tizim talabalarning klinik ko'nikmalarini, shu jumladan, tashxis qo'yish, bemor bilan muloqot qilish, amaliy muolajalar o'tkazish va boshqa klinik vaziyatlarni sinovdan o'tkazadi.

**OSCE (Objective Structured Clinical Examination)** – bu obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon bo'lib, tibbiyot ta'limida talabalar yoki bitiruvchilarning klinik bilimlari, ko'nikmalari va professional kompetensiyalarini

baholash uchun qo'llaniladigan amaliy imtihon formatidir.

**OSE (Objective Structured Examination)** – bu obyektiv tizimlashtirilgan imtihon bo'lib, tibbiyot ta'limida talabalar bilimini baholashda strukturaviy va standartlashtirilgan yondashuvni ta'minlovchi test shaklidir. **OSE**, odatda, nazariy va amaliy elementlarni birlashtirgan, biroq **OSCE** (klinik ko'nikmalar) kabi to'liq amaliyotga qaratilgan emas.

### OSE va OSCE o'rtasidagi farqlar:

№	Mezoni	OSE	OSCE
1	To'liq nomi	Objective Structured Examination	Objective Structured Clinical Examination
2	Yo'nalishi	Nazariy-analitik	Amaliy-klinik
3	Baholanishi	Tahlil, fikrlash, qaror qabul qilish	Ko'nikmalar, amaliyot, muloqot
4	Bemor ishtiroki	Odatda yo'q (rasmlar, testlar, matnlar)	Aktyor yoki simulyatsiya qilingan bemor
5	Resurs talabi	Kamroq	Ko'proq (aktyor, xona, uskunalar)
6	Qo'llanilish sohalari	Klinik fikrlash, testlar, yozma topshiriqlar	Amaliy ko'nikmalar, kommunikatsiya, diagnostika

### 3. Avstraliya tajribasi:

Avstraliyada tibbiyot oliy ta'lim muassasalari **Problem-Based Learning (PBL)** – muammolarni hal qilishga asoslangan o'qitish metodini qo'llaydi. Bu metodda talabalar jamoa tarzida klinik muammolarni hal qilishadi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Bunda reflektiv yondashuv yordamida talabalar o'z bilimlarini va amaliyotlarini tahlil qilib, takomillashtirishga harakat qiladilar.

### 4. Shvetsiya tajribasi:

Shvetsiyada **simulyatsiyalar** va **self-assessment** (o'zini baholash) metodlari keng

qo'llaniladi. Talabalar o'z bilimlarini baholash, tahlil qilish va o'zlarining zaif tomonlarini aniqlash uchun **self-assessment** usullaridan foydalanadilar. Simulyatsiyalar orqali klinik vaziyatlar yakunida talabalarga to'g'ri qarorlar qabul qilish, amaliy ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish imkoniyati beriladi.

Yuqoridagi rivojlangan davlatlar tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining tajribalaridan kelib chiqib, Respublikamizning tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash jarayonlarida keng qo'llash uchun quyidagilarni **taklif qilamiz:**

**Formativ va Summativ baholash tizimi:** tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida formativ baholash tizimini joriy etish. Bu orqali talabalarining bilimlarini muntazam ravishda tekshirib borish va ularning rivojlanishiga doimiy yo'l ko'rsatish imkoniyati oshadi. Bu tizim interaktiv testlar, masalalar va turli xil klinik vaziyatlarini o'z ichiga olishi lozim;

**Klinik simulyatsion trenajorlar:** Simulyatsion markazlar moddiy-texnik bazasini zamon talabiga javob beradigan so'nggi rumsdagi trenajorlar bilan jihozlash va ushbu markazlarda amaliy hamda nazariy ko'nikmalarni keng qo'llash orqali talabalarining klinik ko'nikmalarini real vaziyatlarda baholash jarayonini yo'lga qo'yish;

**OSCE baholash tizimini joriy etish:** tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida **OSCE baholash** tizimini har bir fan kesimida joriy etish. Bu orqali talabalarining klinik ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish, kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish va real vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatadi;

**Elektron baholash tizimlari:** Ta'lim dasturlarining malaka talablaridan kelib chiqqan holda nazariy, amaliy va klinik ko'nikmalarni to'liq o'z ichiga olgan masofadan turib baholash elektron dasturlarini yaratish. Bu orqali talabalar bilimlarini baholashda adolat va shaffoflik ta'minlanadi hamda natijalarni tezda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi;

Respublikamizning tibbiyot oliy ta'lim mu-

assasalari uchun yagona talabalar bilimini mustaqil baholash tizimini yaratish.

### **Takliflarning amalga oshirilishi**

Mustaqil baholash tizimini joriy etish uchun quyidagi amaliy qadamlar kerak:

Tibbiy ta'limni akkreditatsiyalashda xalqaro tashkilotlar talablari asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Hududiy OSCE markazlarini tashkil etish uchun simulyatsion markazlar, laboratoriyalar, standart bemorlar bazasini yaratish.

Elektron test tizimlarini (CBT) bosqichma-bosqich joriy etish va test bazasini xalqaro klinik protokollar bilan muvofiqlashtirish.

Baholash jarayonida mustaqillik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida "Tibbiyot ta'limida milliy baholash agentligi"ni tashkil etish.

O'qituvchilar va baholovchi ekspertlar uchun trening va malaka oshirish dasturlarini xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish.

### **Xulosa**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida mustaqil baholash tizimini joriy etish — Respublikamizda tibbiyot sohasida inson kapitalini rivojlantirishga, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Jahon tajribasiga asoslangan OSCE, CBT va boshqa mexanizmlarni milliy tizimga moslashtirish orqali tibbiyot ta'limini yangi bosqichga olib chiqishga erishiladi.



**Foydalanilgan manbalar ro'yxati:**

1. O'Neill, P., & Cotter, C. (2020). Innovations in Medical Education: Transforming Assessment Practices. *Medical Education Journal*, 54(2), 145-157.
2. Boud, D., & Molloy, E. (2013). *Rethinking Models of Assessment in Higher Education*. Springer Science & Business Media.
3. Eva, K. W., & Regehr, G. (2005). Self-assessment in the Health Professions: A Reformulation and Research Agenda. *Academic Medicine*, 80(10), S46-S54.
4. Frank, J. R., et al. (2019). Competency-based medical education: Theory to practice. *Medical Teacher*, 41(3), 1-7.
5. Meyer, M., et al. (2018). The effectiveness of active learning methods in medical education: A systematic review. *BMC Medical Education*, 18(1), 1-10
6. Michaelsen, L. K., et al. (2020). Team-based learning: A transformative use of small groups in college teaching. *Journal of Higher Education*, 89(2), 272-292.
7. Muhammad Hassan Zaman (2024). Medical Education Innovations: Enhancing Student Engagement and Learning Outcomes. *Journal of Multidisciplinary Healthcare*, 1, 2024 91-98.
8. skma.edu.kz - National Center for Independent Examination (NCIE)
9. nacmc-iq.org - National Assessment Centre of Medical Competencies (NACMC)
10. amc.org.au - Australian Medical Council (AMC)
11. cpepdoc.org - Center for Personalized Education for Physicians (CPEP)



**Mahmud MAMARASULOV,**

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
tadqiqotchisi

# O'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning ahamiyati

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Oliy ta'lim tizimi ham bu jarayondan mustasno emas. O'quv jarayonini raqamlashtirish nafaqat ta'lim jarayonini yengillashtiradi, balki boshqaruvning shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshiradi. Talabalar, professor-o'qituvchilar va ta'lim muassasalari boshqaruvi o'rtasidagi axborot almashinuvini avtomatlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishiladi. Shu sababli raqamlashtirish hozirgi davr oliy ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida oliy ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa o'quv jarayonlarini boshqarishda yangi yondashuvlarni shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalar, shuningdek, raqamlashtirishni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi, talaba esa ta'lim jarayonining asosiy figurasiga aylanadi.

O'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish bu – ta'lim jarayonining turli jihatlari yaxshilash va tartibga solish uchun raqamli vositalar va tizimlardan foydalanish demakdir. U ta'lim muassasalarida o'qitish, ma'muriy vazifalarni bajarish va qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

**Ta'lim boshqaruvini raqamlashtirish** – bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholashda raqamli tex-

nologiyalar, elektron kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, raqamli o'quv platformalari va boshqa onlayn vositalardan foydalanishga asoslangan kompleks boshqaruv tizimidir. U o'quv jarayonining har bir bosqichida (darslarni tashkil etish, o'quv materiallarini yetkazish, talabalar faoliyatini kuzatish, natijalarni baholash) samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ta'lim sifatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi.

Biz quyida ta'lim boshqaruvining raqamlashtirilgan shakllari va ularning asosiy yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz.

### **O'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning nazariy asoslari**

O'quv jarayonini boshqarish oliy ta'lim muassasalari uchun qiyin vazifa bo'lishi mumkin, ammo raqamlashtirish o'quv natijalarini yaxshilash va ma'muriy vazifalarni soddalashtirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etdi. Texnologiyalar va raqamli vositalarning rivojlanishi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yanada samarali va tizimli boshqarishga imkon yaratadi.

Ta'limni raqamlashtirish orqali o'quv jarayonini boshqarishning nazariy asoslari raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim muassasasini boshqarish va uni integratsiyalashuv jarayoniga yo'naltiruvchi konsepsiyalar hamda tamoyillar majmuasini o'z ichiga oladi. O'quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Axborot tizimlari orqali boshqaruvni avtomatlashtirish – ma'lumotlar markazlashtiriladi, qaror qabul qilish tezlashadi.



2. Elektron ta'lim platformalarini joriy etish – Moodle, Google Classroom, Canvas va Microsoft Teams kabi tizimlar o'quv jarayonini soddalashtiradi.

3. Elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish – elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar va boshqa elektron manbalar o'quv jarayonini boyitadi.

4. O'quv jarayonini monitoring qilish tizimini takomillashtirish – talabalar va professor-o'qituvchilar faoliyati real vaqtda nazorat qilinadi.

5. Talaba va o'qituvchi o'rtasida raqamli kommunikatsiyani yo'lga qo'yish – onlayn muloqot, maslahatlar va material almashinuvi ta'minlanadi.

Bu jarayonlar oliy ta'lim boshqaruvini zamonaviy talablarga moslashtiradi, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Raqamlashtirish oliy ta'lim muassasalariga ta'lim jarayonini yanada samarali boshqarish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta'lim mazmunini yetkazib berish, ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, hamkorlik va muloqotni yaxshilash hamda ta'lim natijalarini yaxshilash uchun raqamli vositalardan foydalanish orqali oliy ta'lim muassasalari talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun yanada jozibador o'quv muhitini yaratishi mumkin.

### **Registrator ofisi – raqamli boshqaruvning asosiy bo'g'ini**

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish asosida boshqarish mexanizmi, ma'lumot texnologiyalari va boshqaruv tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimi sifatida registrator ofisi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarida **Registrator ofisi** faoliyati yo'lga qo'yilishi o'quv jarayonining raqamlashtirilishida muhim qadam bo'ldi.

Biz eng, avvalo, registrator ofisi o'zi nima, uning vazifalari nimalardan iborat, degan savolga javob topishimiz kerak bo'ladi.

Registrator ofisi — fanlarga talabalarni birlashtirish va ularning o'quv davridagi barcha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qayd qilishning markazlashgan xizmat turi bo'lib, universitetning o'quv faoliyatini kredit-modul tizimida tashkil etilishini nazorat qiladi.

Registrator ofisining asosiy vazifalari talabalarni tizimda shakllantirish, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarga xizmat ko'rsatish, akademik faoliyatni yuritish va ta'lim jarayonining ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlashdan iborat. Ofis OTTning strategik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, byurokratik to'siqlarni bartaraf etadi va tahliliy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

### **Registrator ofisining asosiy vazifalari**

<b>Vazifa</b>	<b>Tavsif</b>
Qabul menejmenti	Talabalar hujjatlarini qabul qilish, tekshirish va rasmiylashtirish
Ro'yxatga olish	Talabalarni guruhlariga birlashtirish, hujjatlarni saqlash
Akademik menejment	Kurslarga yozilish, o'qish jadvali va nazorat ishlarini tashkil etish

Vazifa	Tavsif
Kundalik ma'muriy jarayonlar	Davomat, tadbirlar va master-klasslar tashkil qilish
Bitirish va akademik ta'til	Talabalarni bitirish, ta'til va o'qishdan chetlatish jarayonlarini boshqarish
Qaydlar menejmenti	Talabalar va universitet faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni saqlash hamda boshqarish

Registrator ofisi tarkibida ikkita asosiy bo'lim mavjud: **Xizmat ko'rsatish (front office)** va **Ma'lumotlar bazasi (back office)**.

**Front office** xodimlari talabalar bilan bevosita ishlaydi, ularning hujjatlarini yuritish, imtihon va kurs nazoratlarini tashkil etish, akademik va ma'lumotnoma xizmatlarini taqdim etish, shuningdek, xalqaro va ichki xizmatlarni amalga oshiradi.

**Back office** xodimlari statistik ma'lumotlarni yuritish, talabalar bazasini shakllantirish, o'quv jarayonining elektron tizimda to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilish, hujjatlar arxivini yuritish va tahliliy hisobotlar tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Registrator ofisi talabalarga akademik, ilmiy, xalqaro, yoshlar, marketing, buxgalteriya va boshqa qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatadi.



Shu bilan birga, Ofis OTT faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar tayyorlash, loyiha va takliflarni shakllantirish, oliy ta'lim jarayonini qonuniy me'yorlar asosida tashkil etish huquqiga ega va majburiyatlarini bajaradi.

Registrator ofisi oliy ta'lim jarayonining markaziy koordinatsion tizimi sifatida OTTning samarali ishlashini ta'minlaydi, talabalar faoliyatini tizimli ravishda boshqaradi va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Elektron kutubxonalar va axborot-resurs markazlarini raqamlashtirish**

Oliy ta'lim tizimida elektron resurslardan foydalanish ko'lamini kengaytirish raqamlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Kutubxonalar an'anaviy ravishda kitobxonlar uchun cheksiz ma'lumot manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda. Soha texnologik taraqqiyot natijasida rivojlanib, kutubxonalar faoliyati ham takomillashdi va hozirda raqamli hamda innovatsion kutubxonalar tashkil etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida elektron kutubxona platformalarining tashkil etilishi, ilm olish istagidagi yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Elektron kutubxona tushunchasi yangicha bo'lib, uning rivojlanishi so'nggi 20 yil davomida kuzatildi.

Raqamli kutubxonalar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- Turli formatdagi adabiyotlarni saqlash, tarqatish va himoya qilish hamda foydalanuvchi va axborot-resurs markazi o'rtasida samarali o'zaro aloqani ta'minlash;

- Geografik va vaqtga bog'liq cheklovsiz mavjudlik;

- Joylashtirilgan ma'lumotlarning nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda tanilishi va ularga havola hamda iqtiboslar orqali keng tarqalishi;

- Ta'lim jarayonida yaratilgan mahsulotlarni ommaga taqdim etish va ulardan keyingi tadqiqotlar uchun manba sifatida foydalanish imkoniyati.

Elektron kutubxona axborot tizimi — katta hajmdagi raqamli ma'lumotdan qulay foydalanishni ta'minlaydigan, ma'lumotni to'plash, saqlash, qidirish, himoya qilish va olish bo'yicha xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan majmuadir. Bu tizim ma'lumotni tashkil qilish, qidirish, saqlash va samarali foydalanishga urg'u beruvchi maxsus apparat, tarmoq va dasturiy ta'minotdagi arxitektura elementlaridan iborat.

Internet tarmog'i rivoji, raqamli hujjatlar va ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniyatlarini yaratadigan dasturiy ta'minotning paydo bo'lishi, ma'lumotlarni saqlash joylarining hajmini oshirish va xarajatlarni kamaytirish elektron kutubxonalar imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron kutubxonaning muhim xususiyatlari qatoriga saqlanadigan va taqdim etiladigan ma'lumotlar formati, to'liq matnli qidiruv, indeksatsiya, ma'lumotlarga kirish tezligi hamda mualliflik huquqlari nuqtayi nazaridan foydalanish imkoniyatlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qaroriga asosan "Elektron kutubxona"



(unilibrary.uz) platformasi yaratildi.

“Elektron kutubxona” platformasini yaratish jarayonida quyidagi maqsadlar ilgari surildi:

– Oliy ta’lim sohasida o’quv va ilmiy axborotlar bilan ta’minlash maqsadida elektron kutubxona axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– Oliy ta’lim muassasalari kutubxona fondida saqlanayotgan darsliklar, monografiyalar va dissertatsiyalarning elektron ma’lumotlar bazasini tashkil etish va yuritish;

– Oliy ta’lim muassasalari, o’qituvchilar va ilmiy xodimlarning ilmiy-uslubiy portfelini shakllantirish, shuningdek, ilmiy jamoatchilik profilini yaratish;

– An’anaviy va masofaviy ta’limning barcha ishtirokchilari uchun yagona elektron ta’lim resurslari makonini tashkil etish;

– Barcha davlat oliy ta’lim muassasalari kutubxona fondidagi o’quv adabiyotlarini to’liq elektron shaklga o’tkazilishini ta’minlash.

“Elektron kutubxona” platformasini yaratish va unga adabiyotlarni joylashtirish jarayonida barcha davlat oliy ta’lim muassasalari kutubxona fondidagi o’quv adabiyotlari to’liq

elektron shaklga o’tkazildi. Bu esa fondan erkin foydalanishni yo’lga qo’yish va keng jamoatchilik orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

### **Raqamli o’quv platformalarining samaradorligi**

Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canvas kabi platformalar o’quv jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy afzalliklari:

- masofaviy ta’limni samarali tashkil qilish;
- topshiriqlarni avtomatik baholash;
- talaba faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlari;
- o’quv materiallari bilan tezkor almashinuv.

Raqamli platformalarning qo’llanilishi, ayniqsa, pandemiya davrida o’zining yuqori samaradorligini ko’rsatdi.

Ta’lim jarayonini raqamli boshqarish uchun turli platformalar mavjud bo’lib, ularning har biri o’ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega. Ta’lim sohasida qo’llaniladigan mashhur platformalardan ba’zilari haqida to’xtalib o’tamiz.

### **Ta’lim sohasida keng qo’llaniladigan platformalar hamda dasturiy ta’minotlar**

<b>№</b>	<b>Boshqaruv platformasi</b>	<b>Boshqaruv platformasiga ta’rif</b>	<b>Platforma va dasturiy ta’minotlar</b>
1.	Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS)	Ta’lim mazmuni, baholash va aloqani boshqarish hamda yetkazib berish uchun markazlashtirilgan joylashuvni ta’minlaydi	Blackboard, Canvas va Moodle
2.	Virtual sinf platformalari	Videokonferensiya aloqa, chat va ekran almashish kabi interfaol xususiyatlarga ega jonli, onlayn darslarni o’tkazish imkonini beradi	Zoom, Microsoft Teams va Google Mee

3.	Kontent yaratish platformalari	Videolar, taqdimotlar va viktorinalar kabi ta'lim mazmunini yaratish hamda almashish uchun vositalarni taqdim etadi	Edpuzzle, Kahoot va Nearpod
4.	Baholash platformalari	Bu platformalar baholashni yaratish va boshqarish, shuningdek, talabalar faoliyatini tahlil qilish hamda hisobot berish uchun vositalarni taqdim etadi	ExamSoft, Gradescope va Turnitin
5.	Talabalar uchun axborot tizimlari	Bu platformalar talabalarning baholar, davomat va jadvallar kabi ma'lumotlarini boshqarish uchun markazlashtirilgan joylashuvni ta'minlaydi	PowerSchool, Infinite Campus va Skyward

Ushbu platformalar o'quv jarayoni uchun kompleks raqamli boshqaruv tizimini yaratish uchun alohida yoki birgalikda ishlatilishi mumkin.

### Ta'lim sifatini monitoring qilishni raqamlashtirish

Oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash va oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ta'lim sifatini monitoring qilish jarayonida raqamlashtirish texnologiyalaridan keng foydalanish e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biridir. Raqamli yechimlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish hamda oliy ta'lim muassasalarida ichki nazorat tizimini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Ta'lim sifatini monitoring qilish — bu ta'lim jarayonining natijadorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va sifatni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish jarayonidir. Sifat monitoringi quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- Talabalar bilim darajasi va bitiruv ko'rsatkichlari;
- Akademik sodiqlik va kursdan kursga o'tish darajasi;

- Talabalar qoniqish darajasi;
- Bitiruvchilarning ishga layoqatliligi va ish beruvchilar fikri;
- Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning ilmiy-uslubiy faoliyati.

Ta'lim sifatini samarali nazorat qilish uchun ushbu ma'lumotlarni tizimli ravishda yig'ish, tahlil qilish va baholash zarur.

Markazlashgan ta'lim sifatini monitoring tizimida raqamlashtirish bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etadi:

**1. Ma'lumotlarni tezkor yig'ish va saqlash:** Raqamli platformalar orqali oliy ta'lim muassasalari ma'lumotlarini real vaqt rejimida yig'ish mumkin.

**2. Tahlil va hisobotlarni avtomatlashtirish:** Ma'lumotlar avtomatik tarzda tahlil qilinib, vizual hisobotlar shaklida taqdim etiladi.

**3. Ish yukini kamaytirish:** Ma'lumotlarni qo'lda yig'ish va qayta ishlash zaruriyati yo'qoladi, bu vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

**4. Ma'lumotlar xavfsizligi va izchillik:** Raqamli tizimlar ma'lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va xavfsiz tarzda boshqarish imkonini beradi.

**5. Analitik imkoniyatlar:** Raqamlashtirilgan monitoring orqali talabalar, professor-o'qituvchilar va muassasalar faoliyati bo'yicha chuqur tahlillar o'tkazish mumkin.

Ta'lim sifatini monitoring qilishni raqamlashtirish oliy ta'lim tizimida sifat nazoratini takomillashtirish va uni samarali boshqarishning muhim yo'nalishidir. Raqamli texnologiyalar ish yukini kamaytirish, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, tahlilni tezlashtirish va ta'lim sifatini yaxlit ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan raqamli monitoring tizimi muassasalarning ichki nazorat tizimlariga xalaqit bermasdan, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash asosida faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

#### **Raqamli boshqaruvning afzalliklari**

Raqamli boshqaruv — bu tashkilot, muassasa yoki davlat tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali samarali boshqarish usuli bo'lib, u an'anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

#### **1. Ma'lumotlarni tezkor yig'ish va qayta ishlash**

Raqamli boshqaruv orqali tashkilotlar va muassasalar ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish va tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, ta'lim muassasalarida talabalar faoliyati, o'qituvchilar samaradorligi va ilmiy natijalar avtomatik tarzda tizimga kiritiladi, bu esa qo'lda ma'lumot yig'ish zaruratini yo'q qiladi.

#### **2. Qaror qabul qilishni tezlashtirish**

Avtomatlashtirilgan tizimlar asosida boshqaruv qarorlari aniq va tez qabul qilinadi. Ma'lumotlar bazasidagi statistik va analitik ma'lumotlar rahbarga asosli va tezkor yechimlar qabul qilish imkonini beradi.

#### **3. Samaradorlik va resurslarni tejash**

Raqamli boshqaruv ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson resurslari va vaqtni tejashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, keng ko'lamli muassasalar va tashkilotlarda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

#### **4. Ma'lumotlar xavfsizligi va nazorat**

Raqamli boshqaruv tizimlarida ma'lumotlar markazlashtirilgan holda saqlanadi, ularning himoyasi va kirish huquqlari qat'iy nazorat qilinadi. Bu axborot xavfsizligini oshiradi va muammolarning oldini oladi.

#### **5. Monitoring va hisobot berish imkoniyati**

Raqamli tizimlar yordamida barcha jarayonlar real vaqt rejimida monitoring qilinadi va avtomatik hisobotlar tayyorlanadi. Bu boshqaruvning shaffofligini oshiradi va natijalarni tezkor baholash imkonini beradi.

#### **6. Analitik imkoniyatlarni kengaytirish**

Raqamli boshqaruv tizimlarida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydali natijalar chiqarish imkoniyati mavjud. Masalan, oliy ta'limda talabalar bitiruv darajasi, professor-o'qituvchilar faolligi va ilmiy nashrlar samaradorligini kompleks baholash mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish nafaqat o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshiradi, balki ta'lim sifatiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim muassasalari faoliyatida shaffoflik, tartiblilik va innovatsion yondashuvni ta'minlab, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Shu bois raqamlashtirish O'zbekiston oliy ta'lim tizimi islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.



Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy raqamli ta'lim platformalarini joriy etish, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish hamda elektron o'quv materiallari, videodarslar va interaktiv testlarni taqdim etuvchi platformalarni ko'paytirish;

o'quv jarayonining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish uchun integratsiyalangan axborot tizimlarini ishlab chiqish va tatbiq etish. Bunda elektron jurnal, o'quv rejalari kabi vositalarni keng joriy etish orqali qog'ozbozlikni kamaytirish;

masofaviy ta'lim formatlarini keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, onlayn kurslar va vebinarlar orqali talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;

professor-o'qituvchilar uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda raqamli pedagogika va interaktiv dars o'tish metodikalarini o'rgatish;

o'quv jarayonini monitoring qilish va tahlil qilish uchun raqamli vositalarni joriy etish hamda talabalar va professor-o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish orqali ta'lim sifatini oshirish.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Abdullayev B. Ta'limni raqamlashtirish konsepsiyalari: mazmun va mohiyati // Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – № Special Issue 7. – B. 218–221.
2. Шереекина О., Михайлова О., Пятницкий А. Особенности цифровизации образования: направления, возможности // Региональная информатика и информационная безопасность. – 2021. – С. 242–244.
3. Babaraximova D. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – № 18. – B. 956–962.
4. Gauthier N., Husain M. Dynamic security analysis of Zoom, Google Meet and Microsoft Teams // Silicon Valley Cybersecurity Conference (SVCC 2020): Revised Selected Papers. – Springer International Publishing, 2021. – P. 3–24.
5. Berdiyeva G. Raqamli ta'lim muhiti nazariyasi: rivojlanishning zamonaviy darajasi // Research and Publications. – 2023. – T. 1. – № 1. – B. 42–47.
6. Muxtorov O. Raqamli iqtisodiyot: yangi ta'lim tizimi va yangi qadamlar // International Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 1. – № 11. – B. 53–66.
7. Saykili A. Higher education in the digital age: The impact of digital connective technologies // Journal of Educational Technology & Online Learning. – 2019. – № 2(1). – P. 1–15. – DOI: 10.31681/jetol.516971.
8. Raximova D., Nosirova G. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'limni raqamlashtirish masalalari: afzalliklar va kamchiliklar // Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indekslash xizmati. – 2024. – T. 1. – № 1. – B. 161–164.
9. Xabibulloev D., G'ulomov I. Ta'limni raqamlashtirish // Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2023. – B. 160–163.
10. Гуря В.В., Дикарев С.Б. Система проектирования электронных образовательных ресурсов. – Ростов-на-Дону: ЦББП, 2003. – 125 с.




# Raqamli dunyo universitetlari qanday bo'lishi kerak?

Ijtimoiy tarmoqlar va mediada ta'lim tizimidagi muammolar haqida ko'p gapirilgan, gapirilmogda, bundan keyin ham gapiriladi. Nega? Chunki ta'lim jamiyat taraqqiyotining o'zagi, barcha ixtirolar, yangiliklarga doya soha. Faqat u mana shu mavqeyini saqlab qolish uchun amaliyot bilan yonma-yon, kerak bo'lsa, bir qadam oldinda yurishi zarur. Ammo so'nggi yillarda raqamli dunyo tasavvur qilganimizdan-da tezroq rivojlanmogda. Natijada ta'lim sifati va standartlariga talab butunlay o'zgarmogda. Xo'sh, nima qilish lozim? Bu savol faqat biznigina emas, mintqa ta'lim mas'ullarini-da o'ylantirmogda. Masala yechimiga birgalikda kirishish esa ijobiy natijaga qisqa muddatda erishish imkonini yaratishi mumkin.

Buning uchun o'zaro hamkorlik, tajribalar almashinuvi, fikrlar qo'llab-quvatlovi bo'lsa kifoya. "O'zbekistonda oliy ta'lim" jurnali ijodkorlari Pokistonning Islomobod shahrida bo'lib o'tgan hududiy seminarda qatnashdi. Germaniya, Mongoliya, Qirg'iziston, Bangladesh va Pokiston oliy ta'lim tizimi vakillarini

bir yerga jamlagan muloqotda kelajak ta'limi haqida ham fikrlar almashildi, g'oya va takliflar muhokama qilindi. Biz esa ishtirokchilardan raqamli dunyoda oliy ta'lim muassasalari qanday bo'lishi kerakligi haqida so'radik. Quyida mutaxassislar javoblarini e'tiboringizga havola qilamiz.

## Oliygothlar o'z standartlarini qanday qilib zamonaviy, raqamli dunyoga moslashtirishi mumkin?



***Tinimgul Eshieva, dotsent, Markaziy Osiyodagi Amerika universiteti (Qirg'iziston):***

— Texnologik taraqqiyot o'zgarishni talab qilmoqda. Ta'lim muassasalari bu sur'atdan ortda qolmasligi kerak. Men bu borada bir nechta muhim qadamlarni ko'ryapman. O'quv rejalarini tez-tez yangilash. Ularga yangi texnologik o'zgarishlar, axloqiy muammolar va madaniy o'zgarishlarga oid materiallarni kiritish. Amaliyotchilarni – texnologiya, tahlil, media va strategik kommunikatsiyalar sohasidagi mutaxassislarni faol jalb qilish. Xalqaro hamkorlikni fakultetlararo, fanlararo kuchaytirish. Bugungi talabalar gibrid (aralash) reallikda yashaydi va ta'lim bu ko'p o'lchovlilikni aks ettirishi shart.



***Aniqqa Ali, PhD, dotsent, Xalqaro Islom universiteti (Pokiston):***

— Menimcha, akademiya (universitetlar) faqat bilim berish bilan kifoyalanmasligi, balki faol ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratishi lozim. O'quv dasturlariga raqamli savodxonlik, ma'lumotlar tahlili va kontent yaratishdagi axloqiy mezonlarni kiritish kerak.

Aralash (Blended) ta'lim muhim, u ta'limni yanada moslashuvchan va interaktiv qiladi. Bu, ayniqsa, infratuzilma muammolari mavjud mintaqalarda juda muhim. Shuningdek, baholash yakuniy imtihonlardan tashqari, talabalar ni nafaqat testlarga, balki hayot va ishga tayyorlaydigan haqiqiy raqamli loyihalarga asoslanishi kerak.



**Muhammad Farid Gulabzay, o‘qituvchi, Mash‘al universiteti (Afg‘oniston):**

— Afg‘onistonda media ta‘limidagi asosiy muammolardan biri — eskirgan o‘quv rejasi bo‘lib, u talabalar uchun deyarli amaliy ahamiyatga ega emas. Jurnalistika fakultetlari Youtube, Facebook, Instagram va X kabi zamonaviy media platformalarini o‘rgatishi kerak. Yana bir katta muammo — o‘quv studiya va uskunalarning yetishmasligidir. Talabalar nazariy bilim oladilar, lekin yangi media tizimlarida amaliyot o‘tkazish imkoniyati kam. Menimcha, Oliy ta‘lim vazirligi stajirovkalar, o‘quv dasturlari, seminarlar va workshop (mahorat maktabi)larga ko‘proq e‘tibor qaratishi kerak. Bunday imkoniyatlar talabalarning malakasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, jurnalistika fakultetlarida ham talabalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali raqamli dunyoga tayyorlash uchun aniq rejalar bo‘lishi shart.



**Kristina Zell, Loyiha menejeri, Deutsche Welle Akademie (Germaniya):**

— Men universitetda bevosita ishlamasam-da, Deutsche Welle Akademie tomonidan yaqinda tashkil etilgan xalqaro seminar va sammitdan olgan asosiy tushunchalarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Ko‘pgina hamkasblarimiz talabalarni haqiqiy tahririyat muhiti bilan bog‘laydigan amaliy stajirovkalarga ehtiyoj borligini ta‘kidladilar. Bunday imkoniyatlar talabalarga kasbiy aloqalar, networkingni shakllantirish, o‘ziga ishonishga va bugungi jurnalistikani shakllantirayotgan va jadal rivojlanayotgan texnologiyalar, ish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun universitetlar tahririyatlardagi stajirovkalarni jurnalistika ta‘limining ajralmas tarkibiy qismi sifatida integratsiya qilsa, foydali bo‘ladi.



**Rooma Shahzadi, PhD, Sialkot universiteti (Pokiston):**

— Universitetlar akademik tuzilmalari, texnologik infratuzilmasi va o‘qitish yondashuvlarini hozirgi raqamli talablar darajasiga moslashtirishi lozim. Sialkot universiteti zamonaviy raqamli vositalar, multimedia jihozlari va yuqori texnologiyali media laboratoriyalarini o‘quv jarayoniga joriy qilgan. Bu talabalar uchun efirga tayyorlash, montaj, raqamli ishlab chiqarish va ijtimoiy media kommunikatsiyasi bo‘yicha amaliy tajribani mustahkamlash imkonini yaratadi. Endilik-



da universitetlar zamonaviy laboratoriyalar va raqamli ta'lim platformalariga sarmoya kiritishi zarur.

Ikkinchidan, universitet o'quv dasturlari raqamli jurnalistika, ijtimoiy media strategiyalari, media sohasida data tahlil, mediasavodxonlik va raqamli kontent yaratish kabi yangi yo'nalishlarni qo'shish orqali yangilanishi lozim.



**Nazia Afrin, o'qituvchi, Liberal san'atlar universiteti (Bangladesh):**

— Universitetlar zamonaviy texnologiyalarni olib kelish, foydalanishdan tashqari ta'lim standartlarini real kasbiy amaliyot bilan uyg'unlashtirishi kerak. O'quv dasturlari soha mutaxassislari bilan yangilanib borilishi zarur. Shundagina talabalarga berilayotgan bilim hozirgi mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladi. Bangladesh bo'ylab o'tkazgan mahalliy treninglarimda nazariya bilan amaliyot o'rtasida katta tafovut borligini ko'p kuzatganman. Baholash tizimlari isloh qilinishi, amaliy loyihalar ham akademik natijalar sifatida e'tirof etilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalari — tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, zamonaviy bilim berish vazifasini bajarishi shart. Raqamli dunyoga moslashuv akademik bilim hamda kasbiy tajribani birlashtira olgan taqdiridagina ro'y beradi.



**Fazli Vahid, Kohat fan va texnologiya universiteti (Pokiston):**

— Pokistonning oliy ta'lim tizimi muhim burilish nuqtasida turibdi. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanishi, sun'iy intellektning (SI) kengayishi va onlayn ta'limning kuchayishi universitetlar oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ko'pgina Pokiston universitetlarining eng katta muammolaridan biri — o'quv dasturlarining eskirganidir. O'quv dasturlarini raqamli muhitga moslashtirish bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ishonchli Internet, raqamli kutubxona va zamonaviy kompyuter laboratoriyalari mamlakatning barcha hududlarida birdek rivojlanmagan. To'g'ri, Pokiston ta'lim va tadqiqot tarmog'i (PERN) universitetlarga yuqori tezlikdagi internet yetkazilishini ta'minlaydi. Ammo barcha universitetlarda bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun ichki texnik salohiyat yetarli emas. Raqamli infratuzilmagina masofaviy ta'limni rivojlantirish va talabalarining global tadqiqotlarga kirish imkonini yaxshilaydi.

Shu bilan birga professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonlikka ega bo'lishi ham muhim. Ko'plari an'anaviy usulda dars beradi, ammo bu yondashuv raqamli avlod talabalariga javob ber-

maydi. Nazarimda, o'qituvchilarning raqamli pedagogika, SI (sun'iy intellekt) vositalaridan foydalanish, onlayn baholash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish uchun treninglar tashkil qilish lozim. Universitetlarga sanoat bilan kuchli hamkorlik ham zarur. Pokiston ish beruvchilari bugun raqamli vositalar, SI tizimlari va hamkorlik platformalarini tushunadigan nomzodlarni tanlamog'da. Ishlab chiqarish sektori bilan muntazam muloqot, amaliyot dasturlari va hamkorlikda dars mashg'ulotlari tashkil qilish har qachongidan ham muhim. Moslashuvchan o'qitish modellari esa oliy ta'limni yanada inklyuziv va kelajakdagi o'zgarishlarga tayyor qiladi.

### ***Ayni damda sun'iy intellekt (SI) oliy ta'lim uchun qanday xavflarni tug'dirmoqda?***

#### ***Tinimgul Eshieva, dotsent, Markaziy Osiyodagi Amerika universiteti (Qirg'iziston):***

— Paradoks shundaki, SI qanchalik kuchli bo'lsa, bizda tahlil, taqqoslash, izlanish va original g'oyalarni shakllantirish kabi insoniy qobiliyatlarga ehtiyoj shunchalik ortadi. Sldan samarali foydalanish uchun kishi avvaldan kuchli intellektual ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Yana bir xavf — "tezkor bilim" odatlarining paydo bo'lishidir. Yoshlar tezkor javoblarga o'rganib qolishi mumkin, bu esa chuqur tushunishning o'rnini bosmaydi. Aynan shu yerda o'qituvchining o'rnini hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi — biz navigator (yo'naltiruvchi) bo'lishimiz lozim. Talabalarga Sldan ijodiy, tahliliy va tadqiqot jarayonlarida o'z ovozi yo'qotmagan holda qanday qilib mazmunli foydalanishni ko'rsatishimiz zarur.

Bu, ayniqsa, jurnalistika, kino va media kabi ijodiy sohalarda muhim. Algoritmik vositalar ijodkorlik o'rnini egallay olmaydi. Noodatij narsa yaratish ko'p o'qish, chuqur mushohada yuritish, kuzatish va tahlil qilishni talab qiladi. SI yordamchi bo'lishi mumkin, lekin manba bo'la olmaydi. Shuningdek, o'quv rejalariga SI etikasini integratsiya qilish ham muhim. Talabalar nafaqat texnik jihatlarni, balki Slning ijtimoiy, madaniy va akademik oqibatlarini ham tushunishlari kerak.

#### ***Aniqa Ali, PhD, dotsent, Xalqaro Islom universiteti (Pokiston):***

— Men ikkita asosiy xavfni ko'ryapman: birinchidan, haqiqiy ta'limga tahdid. Agar talabalar Sldan yengil yo'l sifatida foydalansa, ular tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan intellektual mashaqqatni his qilishmaydi. Ikkinchidan, ko'pgina SI tizimlari asosan G'arb ma'lumotlari asosida o'qitilganligi sababli Pokiston, Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarning nuqtayi nazarlari inobatga olinmasligi yoki noto'g'ri taqdim etilishi xavfi bor. Bu esa mintaqalar,





mamlakatlar, millatlarni global media muhitida marginallashtirishga olib kelishi mumkin.

SI o'ringizga ishlab bermaydi, u Siz qilgan ishni takomillashtirishi mumkin, xolos. Universitetlar talabalarga mana shu fikrni singdirishi, har bir hudud intellektual resurslari va qadriyatlarini global SI diskursining bir qismi bo'lishini ta'minlashi kerak.



**Muhammad Farid Gulabzay, o'qituvchi, Mash'al universiteti (Afg'oniston):**

— SI, bir tomondan, qiyinchiliklarga duch kelgan va o'qituvchilari bilan darhol bog'lana olmaydigan talabalar uchun yo'nalish olishlarida foydali bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, SIga haddan tashqari tayanish talabalarda tashabbuskorlik va mavzularni mustaqil o'rganish istagining yo'qolishiga olib keladi.

Talabalar fikrlash o'rniga topshiriqlarni ChatGPT yoki shunga o'xshash tizimlar orqali bajarsa, kelajakda passiv va motivatsiyasiz bo'lib qolishi mumkin.



**Kristina Zell, Loyiha menejeri, Deutsche Welle Akademie (Germaniya):**

— Men talabalarning SI vositalariga haddan tashqari qaram bo'lib qolayotganidan xavotirdaman. To'g'ri shakllantirilgan prompt (so'rov) orqali har qanday murakkab savolga go'yoki mukammal va to'liq javob olish oson bo'lib qoldi. Ilgari talabalar savolni diqqat bilan o'rganishi, argument ishlab chiqishi, uni asoslash uchun tadqiqot o'tkazishi va muqobil nuqtayi nazarlarni o'rganishi kerak edi.

SI bu tahliliy jarayonning ayrim jihatlarini yaxshilashi mumkin. Ammo bu qulaylik talabalarning tadqiqot, munozara va mustaqil fikrlash istagi va qobiliyatini kamaytirishi mumkin – bu haqiqiy muammo.



**Rooma Shahzadi, PhD, Sialkot universiteti (Pokiston):**

— Sining oliy ta'limga, ayniqsa, Pokiston universitetlariga tug'dirayotgan eng katta xavfi — akademik halollikning zaiflashuvi. Talabalar SI vositalaridan noto'g'ri foydalanib, mehnat qilmay topshiriq yoki ilmiy ishlar yaratishi mumkin. Agar talabalar avtomatlashtirilgan yechimlarga haddan ziyod tayanib qolsa, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik susayadi.

Taassufki, Pokiston o'qituvchilarining ko'pchiligi SI vositalari



bo'yicha yetarli malakaga ega emas. Bu esa ta'lim sifatida bo'shliqlar paydo qiladi. Ma'lumotlar xavfsizligi masalasida ham jiddiy bosh qotirilishi lozim, sababi ko'plab universitetlarda kuchli kiberxavfsizlik tizimlari mavjud emas.

**Nazia Afrin, o'qituvchi, Liberal san'atlar universiteti (Bangladesh):**

— Sun'iy intellektning eng katta xavfi texnologik emas, balki intellektualdir. Talabalar g'oya yaratish yoki topshiriqlarni bajarishda SIga haddan tashqari tayanib qolsa, o'ziga xoslik, tanqidiy fikrlash va akademik halollik zaiflashadi. Xuddi shu xavfni men tahririyatlarda ham ko'raman — yosh jurnalistlar ba'zan to'g'ridan to'g'ri tadqiqot va tekshiruv o'rniga SI dan foydalanishga urinmoqda. Texnologiya imkoniyatlari cheklangan hududlardagi talabalar uchun esa raqamli tafovut yanada kengayadi. Universitetlar sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha aniq axloqiy qoidalar ishlab chiqishi va tahlil, mas'uliyat va shaffoflikni mustahkamlashi kerak.



**Fazli Vahid, Kohat fan va texnologiya universiteti (Pokiston):**

— SI imkoniyatlar yaratishi bilan birga yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ulardan biri akademik halollikka putur yetishi bilan bog'liq. Talabalar endi SI yordamida esse yozishi, topshiriqlarni bajarishi yoki matnlarni tahlil qilishi mumkin. Bu universitetlarda baholash usullarini yangilash, zamon talablariga moslashtirish lozimligini bildiradi. SI vositalari qurilma, barqaror Internet va texnik savodxonlikni talab qiladi — bu imkoniyatlar esa, ayniqsa, qishloq hududlaridagi ko'plab talabalarda mavjud emas. Natijada, shahar va hududlardagi o'quv yurtlari o'rtasidagi tafovut kengayadi. Bu masala hal etilmasa, SI ta'limdagi tengsizlikni yanada oshiradi.



Yana bir xavf — insoniy muloqotning kamayishi. SI asosida avtomatik baholash yoki virtual repetitorlarga haddan tashqari tayanish o'qituvchilar bilan muloqot, munozara va emotsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin. Biroq ta'lim samaradorligi insoniy aloqani talab qiladi.

Bundan tashqari o'quv dasturlarining zamondan ortda qolishi ham kutilayotgan muammolardan biri. SI sanoatlarni universitetlarga qaraganda tezroq o'zgartirmoqda. Dasturlar tez-tez yangilanmasa, talabalarda mehnat bozorida talab qilinmaydigan ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa bitiruvchilarning ish topish imkoniyatini pasaytiradi.

**Sun'iy intellekt barcha narsani o'zgartirayotgan bir paytda talabalarga qaysi ko'nikmalar kerak bo'ladi?**



***Tinimgul Eshieva, dotsent, Markaziy Osiyodagi Amerika universiteti (Qirg'iziston):***

— Kelajak ko'nikmalari, birinchi navbatda, insoniy ko'nikmalaridir. Eng muhimi esa, shubhasiz, tanqidiy fikrlash, ya'ni ma'lumotni baholash, talqin qilish va kontekstualashtirish qobiliyati, deb o'ylayman. Shuningdek, ijodkorlik, yangi g'oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyatisiz ham kelajakda qiyin bo'ladi. San'at, adabiyot, kino va madaniy amaliyotlar empatiya va dunyoqarashni shakllantiradi – bu lar insonni har qanday algoritmdan kuchliroq qiladigan sifatlardir. Men texnologik savodxonlikni kuchli gumanitar asos bilan birlashtirish talabalarga haqiqiy raqobatbardoshlikni berishiga qat'iy ishonaman.



***Aniq Ali, PhD, dotsent, Xalqaro Islom universiteti (Pokiston):***

— Men talabalarimga SI kuchli, lekin u insonning o'rnini bosa olmasligini aytaman. Talabalar tanqidiy kuratorlik – SI natijalarini shubha ostiga qo'yish, noxolislikni aniqlash va axloq jihatidan asoslangan hukmlarni chiqarish qobiliyatini shakllantirishi kerak. Moslashuvchanlik esa texnologiyalar rivojlanib borar ekan, doimiy o'rganish, izlanish va malaka oshirish rejimiga ko'nikishga ko'maklashadi. Sldan passiv foydalanish o'rniga, u bilan hamkorlik qila oladiganlar-gina kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishadi.



***Kristina Zell, Loyiha menejeri, Deutsche Welle Akademie (Germaniya):***

— SI hayotimizning juda ko'p jihatlarini tez o'zgartirayotgan bir paytda, empatiya (o'zgalarni his qilish qobiliyati) odamlar qadrlashni va rivojlantirishni davom ettiradigan asosiy ko'nikma va qadriyat bo'lib qolishiga chin dildan umid qilaman. Jurnalistikada empatiya faktlarning mas'uliyat bilan taqdim etilishini va jamiyatni parokanda qilish yoki qutblashtirish uchun ishlatilmasligini ta'minlaydi.

Dezinformatsiya tez tarqalayotgan bir paytda talabalar haqiqiy faktlarni soxta hikoyalardan ajratishni o'rganishlari, dezinformatsiyaning ijtimoiy birlik uchun qanchalik xavfli ekanligini tushunishlari, manipulyativ axborot oqimlarini farqlashlari kerak. SI jadal rivojlantayotgan dunyoda texnologik malakani insoniy sezgirlik va axloqiy muhokama bilan birlashtira oladigan talabalar muvaffaqiyat qozonadi.

**Rooma Shahzadi, PhD, Sialkot universiteti (Pokiston):**

— Ta'lim va mehnat bozorida SI keng qo'llanilayotgani sababli Pokistondagi talabalar muvaffaqiyat uchun texnik, kognitiv va shaxslararo ko'nikmalar majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ijodkorlik va innovatsiya ham o'rnini bosib bo'lmaydigan insoniy fazilatlaridir, ayniqsa, media, kommunikatsiya va jurnalistika sohalarida. Axloqiy fikrlash va mediasavodxonligi esa noto'g'ri ma'lumot, SI tarfkashligi va ijtimoiy mas'uliyatlarga qarshi kurashishda muhim.



Muloqot va hamkorlik ko'nikmalari jamoalarda va turli sohalarda samarali ishlash uchun zarur. Talabalar Pokistonning o'sib borayotgan raqamli iqtisodiyotida yangi imkoniyatlar yaratish uchun tadbirkorlik va innovatsion tafakkurga ham ega bo'lishlari kerak.

**Nazia Afrin, o'qituvchi, Liberal san'atlar universiteti (Bangladesh):**

— Texnik savodxonlik muhim bo'lsa-da, kelajak uchun eng zarur ko'nikmalar baribir insoniy fazilatlariga tayanadi: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, moslashuvchanlik va hamdardlik. Talabalar avtomatlashtirilgan kontent davrida ma'lumotni shubha bilan qabul qilish, kontekstni tushunish va mas'uliyatli qaror qabul qilishni o'rganishlari kerak.



Hududlar, madaniyatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda. Natijada ko'plab global muammolar mintaqaviy darajadagi yechimlarni talab qiladi. Bundan buyog'iga universitetlar nafaqat malakali mutaxassislarni, balki fikrlay oladigan, axloqiy va global qarashga ega fuqarolarni tarbiyalashi lozim.

**Fazli Vahid, Kohat fan va texnologiya universiteti (Pokiston):**

— SI ish bozorini o'zgartirayotgani haqiqat. Talabalar esa SI qanday ishlashi, undan samarali foydalanish bilan birga katta ma'lumotlar bilan ishlash, algoritmik fikrlash va SI yaratgan kontentni tanqidiy baholay olishi kerak. SI ishonarli matnlar, rasmlar va videolar tayyorlashi mumkin. Talabalar bu ma'lumotning to'g'riligini aniqlay olishi, chalg'ituvchi kontentni farqlashi va yolg'on axborotning oqibatlarini tushunishi lozim. Talabalar rollarni almashtira olishi, yangi vositalarni o'zlashtirishi va kutilmagan vaziyatlarga javob bera olishi zarur. Muloqot, jamoada ishlash, yetakchilik va emotsional intellekt — bu sohalarda mashinalar odamlarga yetisha olmaydi. SI ma'lumot to'plashga yordam berishi mumkin, ammo talabalarining o'zi dalillarni sharhlashi, kontekstni tushunishi va muammolarni hal qila olishi muhim. Bu ko'nikmalar tez o'zgaradigan sohalarda barqarorlikni ta'minlaydi.



**Sadoqat MAXSUMOVA, Gulnoza NAJMIDDINOVA**

*Toshkent — Islomobod — Toshkent*





**Shaxnoza TAYLAKOVA,**  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

# Huquqbuzarlik mavzusidagi mediamateriallarning janr turlari va ularning kommunikativ xususiyatlari

So'nggi yigirma yil ichida global axborot makoni tubdan o'zgardi, bunda asosiy determinantlardan biri bu mediakonvergensiya bo'ldi. Mazkur hodisa matbuot, radio, televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, texnologik va mazmuniy jihatdan integratsiyalashuvi jarayonini anglatadi.



“Konvergensiya – bu turli media platformalari bo‘ylab kontent oqimi, media kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik va auditoriyaning o‘zlari xohlagan turdagi ko‘ngilochar tajribalarni bo‘lishish uchun istalgan joyga ko‘chib yurish harakati sanaladi” [1]. Ya’ni mediakonvergensiya faqat texnologik integratsiya emas, balki ishlab chiqaruvchi, tarqatuvchi va auditoriya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq hamkorlik jarayonidir. Bu bir tomondan, tarqalish tezligi va auditoriya qamrovini oshirsa, ikkinchi tomondan, kontent sifati va ijtimoiy ta’sir masalalarida yangi muammolarni yuzaga chiqaradi.

Rus olimi O.Molchanova ham bu haqida “Konvergent tahririyat – bu bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish va ijodiy faoliyatga ega bo‘lgan tuzilma bo‘lib, turli ommaviy axborot vositalari uchun mediamahsulot yaratadi. Ommaviy axborot vositalari auditoriyasi endi kontentning passiv iste’molchisi bo‘lib qolmay, doimiy yangilanib boradigan axborot makonining markaziga aylanmoqda” [2]. Bugungi kunda faqat tahririyatlar emas, auditoriya ham faqat iste’molchi sifatida emas, axborot yaratuvchisiga aylanyapti. Ammo bu jarayon janr va uslub jihatidan keskin o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa an’anaviy jurnalistika janrlarining o‘zgarishiga, ilgari mavjud bo‘lmagan, mutlaqo yangi janr shakllari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

“Janr” tushunchasi jurnalistika nazariyasida axborot yetkazishning shakl, uslub va strukturasi ifodalovchi muhim kategoriyalardan biridir. Har bir janr o‘zining maqsadli auditoriyasi, ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Janr kommunikatsiyaning asosiy birligi sifatida nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, kognitiv omillar ta’sirida shakllana-

digan murakkab hodisadir. U har qanday matnning identifikatsiyasini ta’minlaydi va uni ma’lum bir ijtimoiy kommunikativ voqelikning namunasi-ga aylantiradi. Shunday ekan, janrni faqat yuzaki lingvistik belgilar asosida aniqlash imkoniyati cheklangan; u, avvalo, tildan tashqari kontekst orqali belgilanadi. “Zamonaviy janr tadqiqotlarida ikki asosiy yondashuv farqlanadi, formaga asoslangan (pastdan yuqoriga) va funksiyaga asoslangan (yuqoridan pastga) talqinlar. Birinchisida matn turlari grammatik, leksik va sintaktik birliklarning statistik taqsimoti orqali tasniflanadi, ikkinchisida esa janrlar ijtimoiy-kognitiv funksiyalari va kommunikativ vazifalari orqali belgilanadi. Biroq amaliyotda bu ikki yondashuv ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi: lingvistik yuzaki xususiyatlar janrni taxmin qilishga yordam beradi, lekin uning to‘liq identifikatsiyasi uchun kengroq kontekst, ijtimoiy-madaniy sharoit, ishtirokchilar umumiy bilimlar maydoni zarur bo‘ladi” [3]. Masalan, an’anaviy janrlardan xabar, maqola, reportaj, ocherk kabi o‘ziga xos struktura va til me’yorlariga ega bo‘lib, ularning o‘quvchi ongiga asosan matnning mazmuniy zichligi, dalillarning aniqligi tahlilning keng qamrovliligi orqali amalga oshadi. Televideniye janrlarida esa vizual, audio vositalar birlashuvi va jurnalist mahorati muhim rol o‘ynaydi. Internet jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlarda esa janrlar yanada dinamik, interaktiv va multi-mediaviy shaklga ega bo‘lib, matn, foto, video, audio va grafika bir material ichida uyg‘unlashishi mumkin.

Ilgari faqat matbuotga xos bo‘lgan tahliliy janrdagi materiallar endi onlayn nashrlarda interaktiv infografika, videointervyu va audio podkast bilan boyitilgan holda taqdim etilmoqda.

Telereportajlar esa Internet platformalarida kengaytirilgan matnli ko‘rinishda va 360° formatdagi videolar bilan birgalikda tarqatilishi mumkin. Bu esa mediamahsulot ishlab chiqaruvchilardan nafaqat janr bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni, balki texnologik savodxonlik, vizual dizayn, raqamli hikoya qilish kabi ko‘nikmalarni ham talab etadi.

Bunday sharoitda janrlarning o‘zgarishi ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, gibril janrlar, ya‘ni bir nechta an‘anaviy janr xususiyatlarini birlashtirgan uslubdir. Media tadqiqotlarida bu holat “ikki yoki undan ortiq janr elementlarini uyg‘unlashtirish orqali hosil bo‘lgan yangi janr turi” [4] sifatida ta‘riflanadi. Masalan, Live-reportaj va multimediyaviy longrid [5] esa jonli efir, matn, foto, audio va video komponentlarini birlashtirgan gibril kommunikatsiya formatlariga misol bo‘la oladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoq platformalariga moslashgan mikrojanrlar paydo bo‘ldi. Odatda, bitta ijtimoiy tarmoq yoki format doirasida yuzaga keladi va o‘z auditoriyasining iste‘mol talablariga qarab moslashadi. “Yigirma birinchi asrda subjanrlar ko‘payib, yanada torayib bordi, shunday darajaga yetdiki, ularning ko‘pi endi mikrojanr sifatida qaralishi ma‘qulroq” [6]. Masalan, TikTok, YouTube Shorts va Instagram kabi platformalariga joylangan, odatda, 30-90 soniya davom etadigan vertikal formatdagi videolar mikrojanrlar sirasiga kiradi. Mikrojanr atamasi dastlab musiqada qo‘llanilgan bo‘lsa-da, Internet madaniyatida tez sur‘atlar bilan kengayib, turli ko‘rinishlardagi ijtimoiy, vizual va stilistik yo‘nalishlarni ifodalay boshladi.

Ushbu formatlarning asosiy xususiyati – auditoriya e‘tiborini tez jalb qilish, qisqa vaqt ichida

asosiy g‘oyani yetkazish va hissiy reaksiya uyg‘otishdir. Masalan, Instagramdagi reels videolarda dinamik montaj, boshlanishida kuchli “hook” (qiziqtiruvchi element), yorqin vizual effektlar va foydalanuvchini izoh qoldirishga undovchi strukturalardan foydalaniladi.

Auditoriyaga ta‘sir nuqtayi nazaridan ham mediakonvergensiya yangi tendensiyalarni yuzaga chiqardi. An‘anaviy janrlarning qat‘iy qoidalari buzilib, foydalanuvchi endi bir materialni turli formatlarda, turli kanallarda qabul qilishi mumkin.

O‘zbekiston mediamaydonida, ayniqsa, huquq-tartibot organlari faoliyati haqida tarqatilayotgan materiallar orasida xronikal uslubdagi xabar janri ustunlik qiladi. Gazetalarda ham ularning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalarida ham voqeani qayd etuvchi qisqa xabarlar ko‘p uchraydi. Bu holat, bir tomondan, o‘quvchiga tezkor va aniq ma‘lumot yetkazish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-huquqiy profilaktika nuqtayi nazaridan yetarlicha samara bermaydi. Chunki xronikal xabar voqeani sodir bo‘lgachgina yoritadi, uning sabablarini tahlil qilmaydi va muammoning oldini olish mexanizmlarini izohlamaydi.

Huquqbuzarlik mavzusidagi materiallar asosan xabar janrida ko‘pligi an‘anaviy jurnalistika me‘yorlari va rasmiy axborot formatining qat‘iyiligi bilan bog‘liq. Lekin zamonaviy media sharoitida auditoriya faqatgina “voqea qanday bo‘ldi?” degan savolga emas, balki “nega bunday bo‘ldi?” va “bunday holat qayta takrorlanmasligi uchun nima qilish kerak?” savollariga ham javob kutadi. Shu bois, xronikal xabardan tashqari tahliliy maqolalar, reportajlar va intervyular ulushi oshirilsa, bu nafaqat voqealarni yoritish, balki

ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik ongini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, "Postda" gazetasining Internet saytida voyaga yetmaganlar profilaktikasiga oid materiallar faqat xabar shaklida berilgan. Ularning mazmuni voqea tafsilotlarini bayon qilish bilan chegaralanadi. Masalan, "Romitan tumani IIB tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, kech soat 23:50 larda tumanning "Tarnaut" mahallasida yashovchi, 2005-yilda tug'ilgan, voyaga yetmagan shaxs mast holatda "Alisher Navoiy" nomli mahalla hududida joylashgan "Dirham" kafesi oldida turgan "Damas" rusumli avtomashinani olib qochadi. Holat yuzasidan viloyat ichki ishlar organlari tomonidan surishtiruv ishlari olib borilib, viloyat miqyosida "to'sib ushlar" maxsus rejasi harakatga keltirildi. O'z vaqtida olib borilgan tezkor-texnik hamda qidiruv-surishtiruv tadbirlari natijasida ushbu avtotransport vositasini olib qochgan shaxs qo'lga olindi. Ayni paytda mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 267-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda" [7]. Ushbu xabarda material sof voqea bayoni bilan chegaralangan, tahlil, intervyu yoki mutaxassis fikri yo'q. Bu esa shunchaki "voqeani qayd etish" vazifasini bajarib qolgan.

Umuman olganda, xabar janri o'zining strukturaviy va funksional xususiyatlari sababli huquqbuzarlik profilaktik vazifani bajara olmaydi. Chunki mazkur janrning asosiy maqsadi – voqea tafsilotlarini tezkor, qisqa va faktologik shaklda yetkazishdir, bu esa hodisaning ijtimoiy ildizlari, sabab-oqibat munosabatlari hamda oldini olish mexanizmlarini keng yoritish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, profilaktikaga undash



uchun xabar janri, odatda, yetarli kommunikativ salohiyatga ega emas, bunday maqsadlar ko'proq tahliliy maqola, suhbat, reportaj yoki hujjatli film kabi kengroq izoh va tushuntirish imkonini beruvchi janrlar orqali amalga oshiriladi.

Televideniyeda ham voyaga yetmaganlar bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid materiallar, odatda, bir nechta janrlar doirasida tayyorlanadi. Xabar, reportaj, jurnalist surishtiruv, tok-shou, hujjatli film kabi janrlar yetakchi sanaladi. Reportaj janrining afzalligi shundaki, u jonli tasvir, ishtirokchilar fikri va mutaxassis izohlarini uyg'unlashtirib, tomoshabinga kuchliroq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, u auditoriyaga "bu jarayon real va dolzarb" degan signalni beradi, lekin ayrim hollarda reportajlar faqat tadbirning tashkiliy tomonini yoritish bilan chegaralanib, huquqbuzarlikning ildiz sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlari chuqur tahlil qilinmay qoladi.

Hujjatli filmlar profilaktika yo'nalishida o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki ular real hayotiy voqealarni, voyaga yetmaganlar taqdiridagi muhim burilishlarni, jinoyatga olib kelgan ijtimoi-





iy-psixologik omillarni chuqur ko'rsatadi. Hujjatli janr tomoshabinda kuchli hissiy aks-sado uyg'otadi, shaxsiy hikoyalar orqali muammoning mohiyatini his qilish imkonini beradi. Bu uslub, ayniqsa, jinoyat yo'liga kirgan yoki aksincha, og'ir vaziyatdan chiqib ketgan yoshlarning real hayotiy hikoyalari orqali profilaktika vazifasini samarali bajaradi. Biroq bu format ham ko'p vaqt va katta moliyaviy resurs talab qilganligi sababli amalda kamroq ishlatiladi.

Tok-shou va interaktiv dasturlar ham muhim vosita bo'lishi mumkin. Tok-shou formatida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari mavzusi bevosita auditoriya ishtirokida muhokama qilinadi, mutaxassislar, davlat organlari vakillari, ota-onalar va yoshlarning o'zi ishtirok etadi. Bu janrning afzalligi shundaki, unda turli nuqtayi nazarlar to'qnashadi, muammo bo'yicha ko'proq javob va yechimlar izlanadi. Shu bilan birga,

tomoshabinlar uchun jonli efirda savol berish imkoniyati ham yaratiladi. Interaktivlik tufayli bunday dasturlar nafaqat ma'lumot beradi, balki jamiyatda munozara va fikr almashish muhitini shakllantiradi.

Shu tarzda televideniye voyaga yetmaganlar profilaktikasi mavzusini turli janrlar orqali yoritadi, biroq ularning har birida ma'lum bir cheklovlar mavjud. Yangiliklar janri voqea haqida tezkor axborot beradi, lekin chuqur tahlil qilmaydi. Reportajlar jarayonni jonli ko'rsatadi, ammo sabablar va oqibatlarini yetarlicha ochmaydi. Tahliliy dasturlar va hujjatli filmlar chuqurroq yondashadi, lekin ular kamroq uchraydi. Tok-shoular muammoni turli tomonlama muhokama qiladi, biroq ularning samaradorligi ishtirokchilarning tayyorgarligiga bog'liq. Badiiy-publitsistik janrlar esa qisqa va kuchli hissiy ta'sir beradi, lekin ularning ta'siri, odatda, qisqa muddatli bo'ladi.



Xorij televideniyesida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi masalasi o'ziga xos janrlar, ommabop formatlar va auditoriyaga ta'sir qilish uslublari bilan ajralib turadi. Amerika va Rossiya tajribasida bu mavzu yondashuvi, janr tanlovi va taqdim etish uslubi sezilarli farq qiladi, ammo ikkalasida ham bir nechta umumiy jihatlar mavjud: jinoyat holatlarini keng yoritish, ularning ijtimoiy sabablari haqida gapirish va yoshlar ongiga ta'sir o'tkazishga urinish. Eng avvalo, Amerika televideniyesida profilaktika ko'pincha real voqealarga asoslangan "true crime" janri, hujjatli seriallar, dramatik seriallar va maxsus tok-shoular orqali amalga oshiriladi. Masalan, A&E telekanalida efigra chiqqan "Beyond Scared Straight" dasturi voyaga yetmagan jinoyatchilarni qamoqxona hayotining keskin va qattiq sharoitlari bilan tanishtirib, ularni jinoyatdan qaytarish maqsadida ishlangan. Ko'rsatuv davomida yoshlar maxsus qamoqxona turida kattalar bilan yuzma-yuz muloqot qiladi, jazolarining og'irligi, ozodlikdan mahrum etilishning ruhiy bosimi ochiq namoyish etiladi. Dastur katta rezonans keltirgan bo'lsa-da, bir qator psixolog va sotsiologlar uning metodologiyasini tanqid qilgan, chunki ba'zi ishtirokchilar uchun bu tajriba travmatik bo'lib, ularni ijobiy emas, balki salbiy yo'nalishda shakllantirgan holatlar ham qayd etilgan.

Rossiya tajribasiga o'tsak, bu yerda ham televideniye voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mavzusini turli janrlarda yoritadi, lekin formatlar ko'proq kriminal-reportaj, yangiliklar ichidagi maxsus rubrikalar va ijtimoiy-huquqiy tok-shoular shaklida bo'ladi. Masalan, NTV telekanalida "Чрезвычайное происшествие" va

"Криминальная Россия" dasturlari yillar davomida jinoyat voqealarini, jumladan, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq hodisalarni keng yoritib kelmoqda. "Петровка, 38" esa Moskva shahar IIBning rasmiy axborot dasturi bo'lib, har bir chiqishida yoshlar ishtirokidagi jinoyatlar, ularning sabablari va oldini olish choralari tushuntiradi.

Rossiya televideniyesida huquqiy-ma'rifiy tok-shoular ham bor. "Человек и закон" (Первый канал) dasturida huquqiy nizolar, jinoyatlar va ijtimoiy muammolar ochiq muhokama qilinadi, voyaga yetmaganlar huquqlari masalalari ham muntazam ko'tariladi. "Момент истины" (ТВ Центр) dasturi esa jinoyat tafsilotlarini hujjatli uslubda ochadi, ko'pincha voqea guvohlari va mutaxassislar ishtirokida tahlil olib boradi. "Yoshlar" kanali "Karusel" da esa bolalar xavfsizligi, Internet xavfsizligi, yo'l harakati qoidalari va sog'lom turmush tarzi bo'yicha maxsus ko'rsatuvlar tayyorlanadi.

Rossiyada dramatik-kriminal seriallar ham ommabop bo'lib, "Школа" (Первый канал) seriali o'smirlarning maktab ichidagi nizolari, deviant xulqi va oilaviy muammolarini yoritadi. "Кадетство" serialida esa intizom, mas'uliyat va yoshlarning to'g'ri yo'l tanlash jarayoni ko'rsatiladi. Shuningdek, Rossiyada hujjatli-reality janrda ishlangan "Закон и порядок. Отдел оперативных расследований" serialida voyaga yetmaganlarga oid jinoyatlar ham qamrab olinadi.

Amerika va Rossiya televideniyesini qiyoslaganda, amerikalik ishlab chiqaruvchilar ko'proq dramatik va emotsional ta'sir kuchiga ega, hikoya asosida qurilgan serial va hujjatli filmlardan foydalansa, Rossiyada rasmiy ma'lumot, fakt va



voqea tafsilotiga tayanadigan kriminal-reportajlar ustunlik qiladi. Amerikada “interaktiv profilaktika” (yoshlarni jarayonga jalb etish, qahramonlar bilan identifikatsiya qilish) metodidan keng foydalaniladi, Rossiyada esa ko‘proq “ogohlantirish va jazo” konsepsiyasi qo‘llaniladi.

Shuni alohida aytish kerakki, har ikki mamlakatda ham ommabop janrlar ichida “true crime” formati yetakchi bo‘lib qolmoqda, ammo uning auditoriya tarkibi farq qiladi. Amerikada yoshlar ham bu janrni faol tomosha qiladi, chunki unda real voqealar dramatik uslubda yoritiladi, qahramonlar hikoyasi bilan hissiy aloqaga kirishish oson. Rossiyada esa bunday dasturlar ko‘proq kattalar auditoriyasiga yo‘naltirilgan, yoshlar uchun esa ixtisoslashgan tarbiyaviy dasturlar alohida bloklarda beriladi. Bu farq shuni ko‘rsa-

tadiki, profilaktika samarasi ham turlicha bo‘lishi mumkin: birida hissiy-hikoyaviy ta’sir, ikkinchisida esa fakt va misol orqali ogohlantirish ustuvor.

Xorij televideniyesi tajribasi shuni isbotlaydiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari mavzusini yoritishda eng samarali usul bu janrlar aralashmasidan foydalanishdir: real voqealarga asoslangan hujjatli filmlar, dramatik seriallar, ijtimoiy tok-shoular, interaktiv dasturlar va ijtimoiy reklamalar uyg‘unlashganda, auditoriyaga ta’sir kuchi ancha ortadi. Shu bois, O‘zbekiston televideniyesi uchun ham Amerika va Rossiya tajribasidan eng samarali elementlarni olib, mahalliy kontekstga moslashtirilgan formatlar yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Internet nashrlarida janr va formatlar an’anaviy matbuot va televidenedan farqli o‘la-



roq ko'proq dinamik, multimediyaviy va interaktiv shaklga ega. Ushbu platformalarda matn, foto, video, audio va infografik elementlar bitta material ichida uyg'unlashtiriladi, shuningdek, foydalanuvchi kontent bilan bevosita o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Internet nashrlaridagi longreadlar, storytelling maqolalari va interaktiv reportajlar aynan shu imkoniyatlardan keng foydalanadi. Longreadlar, odatda, keng qamrovli va chuqur tahliliy material bo'lib, mavzuni bir necha bosqichda, vizual elementlar bilan boyitib yetkazadi. Masalan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi bo'yicha longread maqolalarda yoshlar jinoyatchilikning oqibatlarini bilan tanishtiriladi, tajribali mutaxassislarining fikrlari va statistik ma'lumotlar kiritiladi, interaktiv xaritalar yoki infografikalar yordamida voqealar geografik

jihatdan ko'rsatiladi. Shuningdek, storytelling formatidagi maqolalar o'quvchini voqea ichiga kirib, real hayotiy hikoyalar orqali hissiy jihatdan jalb qiladi. Bu formatlar Internet nashrlarida eng ko'p qo'llaniladigan janrlardan biri bo'lib, matnning o'quvchi ongida yanada mustahkam o'rin olishini ta'minlaydi.

Masalan, "The Guardian" nashri voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi mavzusida bir necha interaktiv va vizual boyitilgan maqolalarni chop etgan. Harvey Willgoose oilasining maktabdagi zo'ravonlikka qarshi olib borgan tashabbuslari haqida berilgan maqolada (Harvey Willgoose family campaign for change knife crime school, 2025) oila va yoshlar markazi faoliyati hikoya qilinadi. Ushbu maqola longread formatida tayyorlangan bo'lib, matn bilan birga



fotosuratlar, infografikalar va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan video lavhalar kiritilgan. Shu tariqa, o'quvchi nafaqat voqea tafsilotlarini o'qiydi, balki voqeaning emotsional va vizual jihatlarini ham qabul qiladi, bu esa yoshlarni zo'rvonlikdan himoya qilishga qaratilgan ta'sirni oshiradi.

Boshqa bir misol sifatida ijtimoiy tarmoqlarda zo'rvonlikni ko'rgan yoshlarning qo'rquvi mavzusidagi maqolani ("Violence on social media making teenagers afraid to go out study finds", 2024) keltirish mumkin. Ushbu materialda tadqiqot natijalari, interaktiv grafikalar, foydalanuvchi izohlari va ijtimoiy tarmoqlardan olingan misollar orqali yoshlarning psixologik holati tahlil qilinadi. Nashr interaktiv elementlar yordamida o'quvchini statistika bilan tanishtiradi, shu bilan

birga ijtimoiy tarmoqlarda qanday xavf-xatarlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday vizual va interaktiv boyitish Internet janrlarining eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Huquqbuzarlik mavzusidagi mediamateriallar uchun janr tanlovi bevosita profilaktika samaradorligini belgilaydi. O'zbekiston mediasida uchun xronikal xabarlar bilan cheklanib qolmasdan, tahliliy maqola, reportaj, intervyu, hujjatli film, interaktiv longread va ijtimoiy tarmoqlardagi pedagogik yo'naltirilgan mikrojanrlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Ana shunda mediakontent nafaqat voqeani qayd etadi, balki yoshlar ongida huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va jinoyatdan tiyilish ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Jenkins, H. *Convergence culture: Where old and new media collide*. New York, NY: New York University Press. 2006.
2. Молчанова, О. С. *Конвергентная журналистика: теория и практика*. Москва: Аспект Пресс, 2018.
3. Dartey, E. A. *Genre Theories and Second Language Writing: Development, Trends and Tensions*. *Journal of Language and Linguistics in Society*, 2024.
4. Oxford Reference. *Hybrid genre*. In *A dictionary of media and communication* (7th ed.). Oxford University Press. <https://www.oxfordreference.com>.
5. <https://www.mplus.org.hk/en/magazine/imaging-cantopop-design-and-performativity-a-side>
6. Driscoll B. *The Rise of Microgenre*. – Stanford: Stanford University Press, 2019. – 256 b. – B. 45.
7. <https://postda.uz/#/uz/news/1734>.





**Zafar ARSLONOV,**

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi  
huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli  
kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti

# Yoshlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar: Farg'ona vodiysi misolida

Globalashuv va ijtimoiy tarmoqlar ommalashib borayotgan bir davrda yoshlarni turli mafkuraviy, g'oyaviy va ma'naviy xurujlardan himoya qilish ularni, ayniqsa, o'smirlik davrida turli noto'g'ri yo'llarga kirib qolish, bilimsizlik va tajribasizlik natijasida kelgusi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada yoshlar uchun tahdid solayotgan omillar – ishsizlik, maqsadsizlik va zararli odatlar tahlil qilingan. Tadqiqot Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida o‘tkazilib, kontent-tahlil, so‘rovnoma, ekspert suhbatlari va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, respondentlar orasida eng katta tahdid sifatida ishsizlik (22,9 %) va maqsadsizlik (20,9 %) qayd etilgan; shuningdek, giyohvandlik va ichkilikbozlik kabi zararli odatlar ham keng tarqalganligi aniqlangan. Oilaviy muhitdagi o‘zgarishlar ham e’tibordan chetda qolmaydi: ayrim respondentlar oilada ajrimlar soni ortayotganini qayd etib, bu holat oilaviy qadriyatlarning mo‘rtlashayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, ekspertlar ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim kontentlar yoshlarning oilaviy qadriyatlar haqidagi tushunchasini buzib, janjal va ajrimlarni kuchaytirayotganini ta’kidlashadi. So‘rovnoma natijalari jinoyatchilikda asosan ishsiz yoshlar ulushi yuqori ekanini ko‘rsatib, ularning bandligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yakunlari asosida oilaviy tarbiyani mustahkamlash, yoshlar bandligini oshirish, ta’lim-tarbiyaviy tizimni takomillash-tirish va sport-madaniy tadbirlarni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar zarurligi tavsiya etilgan. Bu takliflar yoshlar orasidagi salbiy omillarni bartaraf etishda, ularning jamoat hayotiga faol integratsiyasini ta’minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlaridagi yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotiga ta’sir etayotgan salbiy omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekis-

tonda yoshlar siyosati sohasida qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan: 2016-yilgi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”**gi Qonun, 2022-yilgi qarorlar va 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan davlat konsepsiyasi kabi hujjatlar yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Shunga qaramay, yoshlar orasida **onlayn qi-mor o‘yinlari, spirtli ichimliklar va giyoh-vandlik** kabi zararli odatlar, oilaviy ajrim va ziddiyatlar kuzatilmoqda. Toshkentdagi Tashqi iqtisodiyotdagi ijtimoiy tahlil institutlari ham jamoatchilik fikrini o‘rganib, vodiy viloyatlarida radikallashish xavfi yuqori ekanini qayd etishgan: Namangan va Farg‘ona viloyatlarida respondentlarning mos ravishda 86,7% va 78,7%i diniy ekstremizmni eng katta xavf deb hisoblaydi [1]. Shu kabi tendensiyalar yoshlarning milliy-ma’naviy barqarorligi uchun signal hisoblanadi.

Ta’lim va madaniyat sohasidagi tadbirlar bilan bir qatorda, Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi **Yoshlar muammolarini o‘rganish instituti** tomonidan ham hududlarda tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarda anketa so‘rovlari, ekspert suhbatlari va kuzatish usullari orqali yoshlarni qiynayotgan muammolar tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra, yoshlar orasidagi asosiy ijtimoiy tahdid sifatida **ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar** (22,9%) hamda **maqsadsizlik, vaqtni behuda sarflash** (20,9%) ko‘rilmogda. Shuningdek, giyohvandlik va alkogolizm, o‘yin-kulgi uskunalaridan chetdagi hayot (kompyuter, qimor) kabi zararli odatlarga berilish (13,6%), sifatli ta’lim-tarbiya imkoniyatlarining cheklanishi (9,7%), korrupsiya va adolatsizlik (7,3%) ham yoshlarga tahdid

sanaladi. Qizg'in ijobiy o'zgarishlar o'rniga, yoshlar orasida dangasalik va yengil pul topish istagi ham xavotir uyg'otmoqda. Erkak yoshlar orasida eng katta muammo sifatida ishsizlik ko'p tilga olinarkan, qizlar orasida maqsadsizlik muammo bo'lib qolayotgani qayd etilgan.

Yoshlar duch keladigan ijtimoiy muammolarni hal etishda **davlat siyosati** hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, dasturlar va ajratilgan resurslar yoshlarning hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Agar hukumat yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratsa, masalan, bepul yoki imtiyozli ta'lim, kasb-hunarga o'qitish, bandlik dasturlari, uy-joy va kredit imtiyozlari – bu yoshlarda umid va imkoniyatlar ufqini kengaytiradi. Masalan, O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun (2016) hamda 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Yoshlar siyosati bo'yicha davlat konsepsiyasida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilangan [2]. Bu hujjatlar doirasida "Yoshlar daftari" tizimi orqali ishsiz yoshlarni ishga joylashtirish, biznes boshlashga kreditlar ajratish, ta'limda kvotalar berish kabi amaliy ishlar olib borildi. Natijada, masalan, Farg'ona vodiysida minglab yoshlar ish bilan ta'minlanib, ularning jinoyatchilikka yoki nojo'ya harakatlarga berilish ehtimoli pasaygani kuzatilgan. Albatta, davlat siyosati faqat huquqiy hujjatlar bilangina cheklanmay, uning **ijrosi va barqaror moliyaviy ta'minoti** ham muhim – aks holda qog'ozdagi siyosat real hayotda samara bermasligi mumkin.

Yoshlar jinoyatchilik va ijtimoiy salbiy

xulq-atvor tomon intilishini ko'p hollarda iqtisodiy omillar bilan izohlashadi. So'rovlar shuni ko'rsatdiki, yoshi kattaroq erkaklar "yoshlarga katta boylik va yengil hayot haqidagi xomxayollar"ni ijtimoiy tarmoqlardan qabul qilish maqsadida turli yo'llarga kirib qolishini ta'kidlamogda. Intervyu ishtirokchilari yoshlar orasida, ayniqsa, jinoyat sodir etish (12,7%), dangasalik va maishatparastlik (12,7%), giyohvandlik va alkogolga berilish (11,3%), Internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (10,6%) ommalashib borayotganini qayd etishgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik holatlari ko'pincha **ishsizlik va oilaviy notinchlik** bilan bog'liq; so'rovnomma ishtirokchilarining 17,7% ga yaqini jinoyatlar asosan ishsiz yoshlar tomonidan sodir etilayotganini ta'kidlagan, 15,8% i notinch oilalardan chiqqan yoshlar ko'proq jinoyat yo'lga kirayotganini bildirgan. Mamlakat miqyosida o'tkazilgan tadqiqotlarda ham yoshlar orasida jinoyatchilik va giyohvandlikka oid xavotirlar yuqori ekani ko'rsatildi – qatnashchilarning 35,9% o'smirlar va yoshlar orasida giyohvandlik va jinoyatchilikning oshishi haqida qayg'uradi [1]. Ushbu muammolar natijasida jamiyatda depressiya, tushkunlik hamda o'z joniga qasd qilish holatlari ham uchrashi mumkin ekanligi ta'kidlanadi.

### Iqtisodiy tahdidlar

Farg'ona vodiysi viloyatlarida yoshlar bandligi dolzarb masala. Andijon viloyati misolida, prezident Mirziyoyev viloyatda 127 ming nafar ishsiz fuqaro (ishga muhtoj yoshlar) mavjudligini, har yili 50 mingga yaqin yangi yosh aholi mehnat bozoriga kirib kelishi-



ni ma'lum qilgan [3]. Yana bir manbada esa 2021-yilning birinchi choragida 80 ming nafar ishsiz yoshdan bor-yo'g'i 5 mingga yaqiniga doimiy ish topilganligi tanqid qilingan. Rasmiy statistikaga ko'ra, Andijon viloyatida 2023-yil aprel holatiga doimiy aholi tarkibining 32,5% i mehnatga layoqatsiz yosh bo'lsa, 56,2% i mehnatga layoqatsiz yoshdagi aholidir. Xuddi shunday, Farg'ona viloyatida 2024-yil holatiga ko'ra aholining 31,5% i mehnatga layoqatsiz yosh, 56,3% i mehnatga layoqatsiz yoshdagi tomonidan tashkil etiladi [4]. Namangan viloyatida ham mehnatga layoqatsiz yoshlar ulushi taqriban shunga yaqin – O'zbekistonda umumiy mehnatga layoqatsiz yoshdan kichik-

lar 32,1% ni tashkil etayotgan hisob-kitoblarga ko'ra [5]. Ushbu viloyatlarda ishlay oladigan yoshlar sonining ko'pligi, lekin bozordagi takliflar yetishmovchiligi iqtisodiy muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning 22,9% ishsizlik va iqtisodiy muammolarni eng asosiy tahdid deb bilgan. Shu bilan birga erkaklar orasida ishsizlik 27,8% bilan eng dolzarb muammo sifatida qayd etilib, bu yoshlarning bandligini ta'minlash choralari kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida iqtisodiy tahdidlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval

Viloyat	Muammo turi	Ulush (%)	Qo'shimcha izoh
Andijon	Ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar	22,9 %	Yoshlar 22,9 % ishsizlikni eng katta tahdid deb hisoblagan. Bundan tashqari, erkaklar orasida ishsizlik (27,8 %) muammo ekanligi aniqlangan, bu esa bandlikni ta'minlash choralari zarurligini ko'rsatadi.
Farg'ona	Ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar	22,9 %	Yuqoridagi natijalarga ko'ra, mintaqa yoshlari orasida ishsizlik eng keng tarqalgan tahdid. Ijtimoiy tadbirlar orqali bandlikni oshirish tavsiya etilgan.
Namangan	Ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar	22,9 %	Tadqiqotda yoshlarning yaqqol ko'pchiligi ishsizlikni muhim muammo deb ko'rsatgan. Bu hududlarda ham iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarurati vujudga keladi.

Yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh ish o'rinlarini yaratish dolzarb chora-tadbirlarni talab etadi. Mutaxassislar fikricha, ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi sanoat va dehqonchilik sektorida qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish, xususan, yosh mutaxassislar uchun kasb-hunar o'quv markazlarini kengaytirish

muhimdir. Rasmiy hisobotlarga ko'ra, respublika bo'yicha kam ta'minlangan oilalarning farzandlari va yoshlarga imtiyozli kredit va yer ajratish orqali tadbirkorlikni rag'batlantirish choralari ko'rilgan (masalan, 175 ming yoshga 45 ming gektar yer, 76 ming yosh doimiy ishlarga joylashtirilgan). Shunga qaramay,

hududlarda hali ham vazirliklar va hokimliklar tashkil qilishi kerak bo'lgan qo'shimcha dastur va ish o'rinlari mavjudligi e'tirof etilmoqda. Masalan, Andijon vohasida 7000 ta bo'sh ish o'rni mavjud bo'lsa ham, ularning barchasi band etilmaganligi ma'lum qilingan.

### Ma'naviy va madaniy tahdidlar

Yoshlar ma'naviy muhitiga tahdid soluvchi omillarga ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimlari ta'siri ham kiradi. Mutaxassislar ogohlantiradiki, ijtimoiy tarmoqlarda ulkan boylik va "yengil hayot" g'oyalari targ'ib qilinayotgani ko'plab yoshlarni mehnat qilmasdan muvaffaqiyatga erishish ilinjiga solmoqda. Shuningdek, yoshlar orasida dunyoqarash va axloq normalarining sekin o'zgargani oilaviy qadriyatlarining sustlashuviga olib kelmoqda. Tadqiqotlarda respondentlarning 45,6% "notinch oila farzandi" bilan do'st bo'lish mumkinligini, biroq uchdan birga yaqini "ular bilan do'stlashish qiyin kechishini" aytgan. Bunday masalalarga jamoatchilikda e'tibor kuchayishi bilan, yoshlar o'rtasida oilaga hurmat va mehr-oriyat tushunchalari sustlashganligi qayd etiladi. O'z-o'zini boshqarish va maqsadga intilishning rivojlanmasligi, dangasalik va kamtarona turmush tarziga bo'lgan moyillik ham jamoatchilik muammolari sifatida e'tirof etilmoqda.

Agar yoshlarning fiziologik yoki xavfsizlik ehtiyojlari qondirilmasa, ular ruhiy tushkunlikka tushishi yoki **stressdan qochish uchun zararli odatlarga murojaat qilishi** mumkin [6]. Masalan, doimiy ravishda och qolib maktabga keladigan yoki uyida zo'ravonlik muhitida yashaydigan o'smir o'zini xavfsiz his qilmaydi va bu hissiyotdan qutilish uchun alkogol yoki boshqa zararli moddalarni sinab ko'rishi

ehtimoli oshadi. Shuningdek, Maslou piramidasi uchun pog'onasi – **ijtimoiy mansublik va muhabbat ehtiyoji** – ayniqsa, o'smirlar uchun muhim: agar yosh o'zini yolg'iz his etsa, guruhga tegishlilik tuyg'usini qondirish uchun nojo'ya sub-madaniyatlarga qo'shib ketishi mumkin [6]. Aksincha, unga do'stlar va oilada mehr berilsa, **hurmat-e'tibor (to'rtinchi bosqich)** hissini tatib ko'rsa, unda o'zini namoyon etish hamda ijobiy maqsadlar sari intilish kuchayadi [7]. Shu tariqa, motivatsiya nazariyalari yoshlarning maqsadsizlik va ruhan tushkunlik kabi muammolarini **qondirilmagan ehtiyojlar natijasi** deb izohlaydi va ularga yechim sifatida shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan choralarga urg'u beradi.

Axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda jamiyat va maktablarda pedagogik va ma'rifiy chora-tadbirlar zarur. Mutaxassislar fikriga ko'ra, yoshlarning ma'naviyatini mustahkamlash uchun oilaviy tarbiyaga e'tibor kuchaytirilishi kerak (respondentlarning 28,9% buni birinchi o'ringa qo'ygan). Shuningdek, sport va ijodiy faoliyatga keng jalb qilish, yoshlar turmush darajasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha dasturlarni kengaytirish ham muhimligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, yoshlarda maqsadsizlik va vaqtni behuda sarflash muhim muammo sanalgan. Respondentlarning 20,9% maqsadsizlikni asosiy tahdid sifatida qayd etgan. Shu bilan birga turli zararli odatlar – giyohvandlik, alkogolizm va soatlab Internetga qaramlik ham keng tarqalgan muammo ekani (13,6%) aniqlangan. Quyidagi jadvalda Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida ma'naviy tahdid bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Viloyat	Muammo turi	Ulush (%)	Qo'shimcha izoh
Andijon	Maqsadsizlik (hayot maqsadining yo'qligi)	20,9 %	Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarga tez boyib ketish g'oyasi targ'ib etilishi ular orasida maqsadsizlikni kuchaytirmoqda. Bu holat yoshlarni maqsadli faoliyatga jalb qilish va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.
Farg'ona	Maqsadsizlik (hayot maqsadining yo'qligi)	20,9 %	Ijtimoiy tarmoqlardagi "xomxayollar" va yengil hayotga intilish tushunchalari yoshlarda maqsadsizlikning kuchayishini ta'kidlamoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'tmishga e'tibor qaratish lozim.
Namangan	Maqsadsizlik (hayot maqsadining yo'qligi)	20,9 %	Ishsiz va qo'llab-quvvatlanmagan yoshlar orasida maqsadsizlik yuqori. Tadbirkorlik va ijodiy loyihalarni rivojlantirish orqali muammoni yumshatish tavsiya etiladi.
Andijon	Giyohvandlik va alkogolizm	13,6 %	Yoshlarning 13,6 %iga ko'ra, zararli odatlarga berilish keng tarqalgan. So'rovda yoshlarning 23,2 % oilaviy nazorat yetishmasligi, 13,1 % do'stlar ta'siri sababli modda almashinuvi xavfi borligini ta'kidlagan. Bu esa oilaviy tarbiya va psixologik yordamni kuchaytirish zarurligini bildiradi.
Farg'ona	Giyohvandlik va alkogolizm	13,6 %	Mintaqa yoshlari orasida giyohvandlik va ichkilik tashvish tug'diradi. Tadqiqotda oilaning nazorati yetishmasligi modda iste'moliga asosiy omil sifatida ko'rsatilgan (23,2 %). Profilaktika va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish zarur.
Namangan	Giyohvandlik va alkogolizm	13,6 %	Yoshlarda modda almashinuvi va alkogolizm darajasi ma'lum. Jamiyat nazorati pasaygan va do'stlarning yomon ta'siri natijasida bunday muammolar kuchaymoqda. Turli ijtimoiy dasturlar orqali ogohlikni oshirish tavsiya etiladi.



**Izoh:** Yuqoridagi jadvallar umumiy tadqiqot natijalariga asoslanib tuzilgan. Ular Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida yoshlar o‘rtasida qayd etilgan iqtisodiy, ma‘naviy va oilaviy muammolarning tarqalish sur‘atini ko‘rsatadi. Jadvaldagi izohlar tadqiqotda qayd etilgan sabab va tavsiyalarni qamrab oladi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, yoshlar orasida zararli odatlar, jinoyat va behayolik xavfining ildizida ko‘pincha iqtisodiy va oilaviy sharoitlar yotadi. Ota-onasi yetarli e‘tibor ko‘rsata olmagan yoki kambag‘al oilalardagi yoshlar salbiy oqimlarga tezroq berilib ketmoqda. Masalan, so‘rovnoma qatnashchilarining 17,7% ga yaqin qismi jinoyatlar asosan ishsiz yoshlar tomonidan sodir etilayotganini bildirgan; keyingi o‘rinda – turli oilaviy muammolari bor yoshlar (15,8%), agressiv xulqli va maishatparast yoshlar (14,7%) ham topilgan. Mahalliy mutaxassislar fikricha, bunday yoshlar profilaktika inspektorlari nazoratida bo‘lishiga qaramay, ba‘zi holatlarda ularning xulq-atvori avvalgidan yaxshilanmagan yoki qayta jinoyatga qaytgan («agressivroq bo‘lib qolgan»)ligi kuzatilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri axborotlar va ekstremistik g‘oyalar tarqalishi ham yoshlar ruhiyatiga salbiy ta‘sir etmoqda; ularning bir qismi diniy ekstremizm va terrorizmga ochiqdan ochiq qarshi bo‘lishi bilan birga, ayrim guruhlar mazkur g‘oyalarga uchrashi mumkinligi xavotirga sabab bo‘ladi.

### **Oldini olish chora-tadbirlari va takliflar**

1. Yoshlarga iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish. Yoshlarga o‘z yurtida munosib ish

o‘rinlari yaratish va ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash zarur. Masalan, “Yoshlar daftari” dasturi doirasida yoshlarni ishga joylashtirish va biznes loyihalari uchun kreditlar ajratish kabi choralarning ko‘lamini kengaytirish mumkin. Shuningdek, yoshlarni chorvachilik, hunarmandchilik kabi an‘anaviy sohalarda band qilish uchun tegishli sharoitlar yaratish, davlat va xususiy sektor hamkorligidagi keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish muhim.

2. Oilaviy tarbiyani kuchaytirish. Yosh avlod tarbiyasida oilaning o‘rni va mas‘uliyatini oshirish lozim. Malakali psixolog va maslahatchilar yordamida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ko‘mak berish kerak. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yoshlarning qariyb uchdan biri oilaviy tarbiyani mustahkamlashni eng muhim omil sifatida ko‘rsatgan – bu bejiz emas. Shu bois, mahalla va maktablarda ota-onalar uchun maxsus tarbiyaviy treninglar, davra suhbatlari va kurslarni muntazam tashkil etish tavsiya qilinadi. Farzand tarbiyasi bo‘yicha ota-onalarga, ayniqsa, yosh oilalarga zamonaviy usullarni o‘rgatish va ularga muntazam ko‘mak berib borish lozim. Masalan, zamonaviy texnologiyalar asosida ota-onalarga masofaviy maslahat beruvchi maxsus mobil ilova yoki onlayn platformani (“Raqamli tarbiya” kabi) yaratish foydali bo‘lishi mumkin.

3. Ta‘lim tizimini takomillashtirish. Maktab va oliy ta‘lim dasturlarini zamonaviy kasbhunar va hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatishga yo‘naltirish kerak. Chet tillari, axborot texnologiyalari va boshqa talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha to‘garaklar va kurslar tashkil etib, yoshlarning bilim va ma-

lakasini oshirish darkor. Shuningdek, ularni sport, san'at va fan sohasidagi to'garaklar hamda olimpiadalarga faol jalb etish zarur – bu yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida yoshlar uchun psixologik ko'mak tizimini mustahkamlash ham muhim: har bir maktab va kollejda "Ruhiiy salomatlik burchaklari"ni tashkil etish, psixologik savodxonlikni oshiruvchi maxsus mashg'ulotlarni joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish. Yoshlar o'rtasida nosog'lom odatlarga (alkogol, giyohvandlik va boshqalar) qarshi targ'ibotni kuchaytirish zarur. Narkotik moddalar va ichkilikbozlikning zararini tushuntiruvchi ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish kerak. Masalan, Farg'ona vodiysida o'tkazilgan so'rovlarda yoshlarning aksariyati (taxminan 60%dan ortig'i) do'stlari davrasida spirtli ichimliksiz hordiq chiqarishni afzal ko'rishini bildirgan – bunday ijobiy qarashlarni boshqa hududlarda ham keng targ'ib etish lozim. Shuningdek, mahallalardagi profilaktika inspektorlari va psixologlarni jalb qilgan holda, yoshlarning ruhiy holatini kuzatib borish va zarur paytda psixologik yordam berish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Yoshlarni sog'lom va faol hayotga jalb etish maqsadida har oyning ma'lum kunini "Sog'lom turmush tarzi kuni" deb e'lon qilish, o'sha kunda ommaviy yugurish marafonlari, sport musobaqalari va milliy o'yinlar festivalarini uyushtirish mumkin. Mashhur sportchi va san'atkorlar ishtirokidagi bunday tadbirlar yoshlar orasida sog'lom odatlarni shakllanti-

rish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qiladi.

5. Yoshlarni maqsadli va faol hayotga yo'naltirish. Yoshlarda uchrayotgan maqsadsizlik va bekorchilikni yengish uchun ularni foydali mashg'ulotlarga jalb etish lozim. Kasb-hunar o'rgatish kurslari, startap talovlari va ilmiy grantlar orqali yoshlarni yangi tashabbus va g'oyalarga ruhlantirish kerak. Iqtidorli va faol yoshlar uchun maxsus stipendiyalar, mukofotlar va rag'bat dasturlarini joriy etish ham ularning motivatsiyasini oshiradi. Mahallalarda yoshlar uchun "Smart klub" tarzidagi zamonaviy markazlar tashkil etib, ularni bepul Internet, kutubxona va turli treninglar bilan ta'minlash tavsiya etiladi. Bunday maskanlar yoshlarni ilmiy loyihalar, IT va xorijiy tillar bo'yicha to'garaklar, moliyaviy savodxonlik darslariga jalb qilib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordam beradi. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida ko'ngillilik harakatlarini rivojlantirish zarur. Masalan, "Bir oy – bir ko'ngilli faoliyat" tashabbusi doirasida har oy kam ta'minlanganlarga ko'maklashish, ekologik aksiyalar, nuroniylar va bolalar uylari bilan ishlash kabi jamoat ishlarida yoshlarni qatnashtirish mumkin. Bunday tashabbuslar yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi.

6. Axborot maydonini sog'lomlashtirish. OAV va Internet orqali yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kontent ulushini oshirish kerak. Milliy qadriyatlarga mos, foydali va qiziqarli materiallarni ko'paytirish, yoshlar orasida ommalashtirish muhim. Aksincha, zararli axborot va yot g'oyalar tarqalishiga

qarshi huquqiy choralarni kuchaytirish lozim. Yoshlar orasida raqamli madaniyat (digital literacy)ni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish darkor. Maktab va oliy o'quv yurtlarida Internetdan to'g'ri foydalanish, kibergigiyena va zararli kontentdan himoyalaniish mavzularida muntazam seminar-treninglar o'tkazish tavsiya etiladi. Voyaga yetmagan yoshlarni onlayn qimor kabi zararli o'yinlardan himoya qilish uchun maxsus filtr va cheklovchi dasturlar joriy etish kerak. Qimor o'yinlari va boshqa yomon odatlarning salbiy oqibatlarini ochib beruvchi hujjatli filmlar, ijtimoiy roliklar va plakatlar tayyorlab, ularni Instagram, Telegram kabi ommabop tarmoqlarda keng tarqatish lozim. Shu bilan birga, noqonuniy qimor va zararli odatlarni targ'ib qiluvchi shaxslarga (jumla-

dan, ijtimoiy tarmoq "influencer"lariga) nisbatan jazo choralarni kuchaytirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar hayotiga tahdid soluvchi salbiy omillarni kamaytirishning kaliti – ularga har tomonlama imkoniyatlar yaratish, jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash hamda oilaviy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkam tutishga qaratilgan sa'y-harakatlardir. Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlar majmuaviy ravishda amalga oshirilsa, xususan, Farg'ona vodiysi misolida yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy farovonligini oshirishga, ularni jamiyat hayotiga samarali integratsiya qilishga xizmat qiladi. Bu takliflar hududlarda yoshlar siyosatini yanada samarali olib borishga metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Aholi fikri: O'zbekiston uchun eng katta xavf – ekstremizm, korrupsiya va poraxo'rlik - 17.11.2017, Sputnik O'zbekiston <https://oz.sputniknews.uz/20171117/6851375.html>
2. Arslonov Z. D. *Farg'ona vodiysi yoshlarining rivojlanishiga tahdid omillari: tahlil va amaliy yechimlar* – ilmiy maqola (2023).
3. "Andijonda 127 ming nafar ishsiz fuqaro mavjud. Har yili yana 50 ming nafar yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi" — president <https://daryo.uz/2023/02/01/andijonda-127-ming-nafar-ishsiz-fuqaro-mavjud-har-yili-yana-50-ming-nafar-yoshlar-mehnat-bozoriga-kirib-keladi-prezident/>
4. Farg'ona viloyati bo'yicha yosh guruhlarini bo'yicha aholi soni <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14008-farg-ona-viloyati-bo-yicha-yosh-guruhlarini-bo-yicha-aholi-soni.html>
5. Doimiy aholining necha foizi mehnatga layoqatli? <https://www.namstat.uz/uz/qo-mita-yangiliklar/15973-doimiy-aholining-necha-foizi-mehnatga-layoqatli>
6. Indiana Teen Institute – *Understanding Maslow's Hierarchy of Needs in Youth Prevention Efforts* (2024)
7. Understanding Maslow's Hierarchy of Needs in Youth Prevention Efforts <https://www.indianateeninstitute.org/post/understanding-maslow-s-hierarchy-of-needs-in-youth-prevention-efforts>





**Мастура ХАИТОВА,**

доктор философии по филологическом  
наукам (PhD)

# Организация эффективной PR-коммуникации в деятельности государственных структур

Глобализационные процессы и стремительное развитие информационных технологий привели к радикальному увеличению скорости распространения информации. В современном мире мгновенное распространение сведений через интернет и социальные сети становится повсеместным явлением. Этот фактор обуславливает необходимость активного управления информационными потоками со стороны государственных организаций посредством PR-коммуникаций.



Современная информационная среда характеризуется высокой степенью насыщенности данными, что затрудняет донесение ключевых сообщений до целевой аудитории. Наряду с этим, в общественном сознании наблюдается устойчивый запрос на повышение прозрачности и открытости деятельности государственных органов. В связи с этим особую значимость приобретает деятельность информационных служб, направленная на установление диалога с общественностью посредством эффективных PR-технологий, разъяснение целей, задач и направлений работы государственных структур. Американский учёный и основатель журнала «Public Relations Research» Джеймс Грюнинг утверждает, что «PR описывает общее планирование, реализацию и оценку коммуникаций организации с внешними и внутренними общественными группами, которые влияют на способность организации достигать своих целей» [1]. В определении ученого PR особый акцент на таких его задачах, как планирование, реализация и оценка, доказывает, насколько важна роль информационной службы в эффективном функционировании государственных организаций.

В современных условиях государственные структуры вынуждены функционировать в динамично изменяющейся информационной среде, характеризующейся высокой скоростью распространения контента, ростом требований граждан к прозрачности и подотчётности, а также усложнением механизмов общественного

контроля. В этой связи PR-коммуникации становятся ключевым инструментом обеспечения открытого диалога между институтами власти и обществом [2].

Зарубежные исследователи подчёркивают, что государственный PR должен опираться на научно обоснованные модели стратегической коммуникации, обеспечивающие баланс между информированием, участием граждан и управлением общественными ожиданиями [3].

Теоретическая информация, использованная в статье, получена из современных зарубежных и отечественных источников, использованы эффективные методология и методы исследования, тема обогащена теоретическими идеями и основана на результатах исследований, проведенных в последние годы. Выводы научно-практического характера основаны на классификационных и сравнительных методах, совместимость научных мнений и предложений с практикой, в частности с нашим национальным законодательством, подтверждена соответствующими организациями.

Методологическую основу работы составляет систематический анализ научных публикаций по тематике государственного PR, сравнительный анализ зарубежных и отечественных практик коммуникаций в государственном управлении и использование структуры IMRAD. Используемая методология позволяет объективно оценить состояние и перспективы PR-коммуникаций в государственном секторе.



А также изучена деятельность информационных служб Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, проанализирована официальные интернет-ресурсы (веб-сайты). На основании анализа были разработаны практические рекомендации по совершенствованию PR-коммуникационной стратегии данных учреждений.

PR-коммуникации имеют свои особенности, связанные со статусом, целями и задачами государственных организаций, которые служат организации для эффективного налаживания PR-коммуникаций. Его социальные особенности проявляются в акцентировании внимания на принципе

прозрачности, общественной ответственности, эффективном использовании ресурсов, обратной связи и взаимодействии с целевой аудиторией с соблюдением этических норм и норм. Следовательно, PR-коммуникации включают в себя широкий спектр стратегий и тактик, направленных на управление общественным мнением, создание положительного имиджа организации и поддержание отношений с различными заинтересованными сторонами.

PR-коммуникация государственных организаций обладает специфическими особенностями, которые определяются их правовым статусом, целями и функциональными задачами. Данные особенности



формируют основу для эффективного построения коммуникационной деятельности и обеспечения результативного взаимодействия с общественностью. Опираясь на опыт многолетней работы в пресс-службах различных государственных структур, считаю, что социальные особенности PR-коммуникации в данном секторе проявляется в следующих аспектах:

1. Принцип прозрачности. Государственные организации обязаны соблюдать высокие стандарты прозрачности. Их PR-коммуникации должны быть открытыми, достоверными и честными, поскольку именно это обеспечивает формирование и поддержание общественного доверия.

2. **Общественная ответственность.** Коммуникационная деятельность государственных органов, как правило, направлена на акцентирование их социальной значимости и ответственности перед гражданами. В данном контексте PR-коммуникации выполняют функцию инструмента, отражающего приоритеты государственного управления и его ориентированность на общественное благо.

3. **Эффективное использование ресурсов.** Государственные структуры часто сталкиваются с ограниченностью бюджетных средств, что требует рационального подхода к организации коммуникационной деятельности. В связи с этим PR-комму-



никации должны быть строго целенаправленными, экономически обоснованными и ориентированными на достижение максимального социального эффекта.

4. Обратная связь и взаимодействие с целевой аудиторией. Государственные организации должны быть ориентированы не только на информирование граждан, но и на налаживание конструктивного взаимодействия с ключевыми целевыми группами. При формировании PR-коммуникаций необходимо учитывать мнения, ожидания и оценочные суждения аудитории, что способствует повышению эффективности коммуникационной политики.

5. Соблюдение правил и нормативных требований. Деятельность государственных структур, как правило, осуществляется в соответствии с уставами, нормативно-правовыми актами и этическими стандартами. Это предопределяет необходимость строгого соблюдения установленных норм в процессе осуществления PR-коммуникаций, а также предъявляет дополнительные требования к их содержанию и форме.

6. Акцент на партнерских отношениях. Государственные организации функционируют во взаимодействии с различными группами – гражданами, предпринимате-

лями, негосударственными организациями и другими институтами гражданского общества. В связи с этим при выстраивании эффективных PR-коммуникаций необходимо учитывать интересы, потребности и ожидания всех, что обеспечивает комплексный характер коммуникационной деятельности и повышает её результативность.

В узбекской научной традиции PR рассматривается как часть реформ государственного управления, направленных на модернизацию коммуникационной инфраструктуры, повышение качества обратной связи и укрепление доверия граждан к институтам власти [4].

Основная задача государственных PR – создание образа компетентного и эффективного руководства, которое обладает сильной властью и способно решать стоящие перед ним проблемы, не ущемляя конституционных прав граждан на получение полной и достоверной информации.

**Одной из основных задач информационной службы является развитие связей организации с общественностью. Мы рассмотрели деятельность информационной службы Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан посредством SWOT-анализа.**




Министерство	Strengths – сильные стороны	Weaknesses – слабые стороны	Opportunities – возможности	Threats – угрозы
Информационная служба Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан	<ul style="list-style-type: none"> <li>Оперативная доступность новостных сообщений для основной целевой аудитории – студентов;</li> <li>Налаженная обратная связь через официальные Telegram-каналы (edu.uz, «Общение с eduuz»);</li> <li>Возможность комментирования публикаций</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Недостаточное внимание к родителям студентов как важной части целевой аудитории;</li> <li>Низкая частота прямых эфиров и интерактивных мероприятий;</li> <li>Ограниченная двухсторонняя коммуникация</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Использование роста позиций вузов Узбекистана в международных рейтингах для формирования позитивного имиджа страны;</li> <li>Реализация потенциала вовлечения молодежи, не охваченной системой высшего образования</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Распространение негативного информационного фона о трудоустройстве выпускников;</li> <li>Сохраняющиеся сомнения в качестве высшего образования как репутационная угроза</li> </ul>

Информационная служба Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан систематически использует возможности собственных медиаресурсов при осуществлении PR-деятельности. В частности, к ним относятся официальный сайт министерства, официальный Telegram-канал, Telegram-канал пресс-секретаря Назокат Абдукундузовой, официальные страницы на YouTube, Facebook и Instagram, а также консультативная группа для докторантов. Через подобные информационные каналы министерство предоставляет широкой общественности новости о своей деятельности, а также медиапродукты различных форматов.


Доктор наук Н. Муратова отмечает, что

“мультимедиа в результате конвергенции средств массовой информации оказывается одним из важнейших средств не только представления новостей и аналитики, но и привлечения внимания аудитории. Его активное использование обеспечивает превосходство новых медиа над традиционными форматами, такими как радио, телевидение и печать. Мультимедийный подход позволяет создавать более привлекательные, интерактивные и адаптированные продукты для различных платформ и устройств” [5]. Учитывая этот фактор, информационная служба министерства обновила веб-сайт организации на основе современных ИТ-технологий и создала удобства для молодежи, которая является целевой аудиторией министерства.



В результате сайт министерства занял второе место в рейтинге самых посещаемых сайтов. Интерактивный портал госуслуг – [www.mugov.uz](http://www.mugov.uz) занял первое место. Основной причиной это-

го является переход в онлайн-формат с использованием IT-технологий за счет минимизации человеческого фактора в процессе предоставления государственных услуг.



В среднем за месяц официальный обновленный сайт министерства посещают 6,1 млн. пользователей. 40,1% из них заходят на сайт с помощью компьютеров, 59,8% с мобильных устройств.

В рамках диссертационного исследования с целью выявления наиболее используемых целевой аудиторией социальных платформ, обеспечивающих эффективность PR-коммуникаций государственных

учреждений, был сформулирован следующий вопрос: «На странице какого государственного органа в социальных сетях вы чаще всего отслеживаете информа-

цию?». Результаты анкетирования распределились следующим образом: Telegram – 80,4%, Instagram – 29,1%, Facebook – 14,8%, YouTube – 11,7% и Twitter – 1,2%.



Следует отметить, что в данном разделе анкеты респондентам предоставлялась возможность самостоятельно указать альтернативные варианты ответа. Однако незначительная часть участников воздержалась от выбора любого из предложенных или собственных вариантов, что статистически не повлияло на общую тенденцию.

Официальные страницы Министерства высшего образования, науки и инноваций в социальных сетях демонстрируют более высокую активность по сравнению с Министерством юстиции, которое выступает первым объектом настоящего исследования. Данная особенность обусловлена тем, что основная целевая аудитория министерства – это молодежь. На сегодняшний день на официальном Telegram-канале министерства <https://t.me/eduuz> зарегистрировано свыше 158 тысяч подписчиков, а средний охват публикуемых материалов составляет от 30 до 40 тысяч просмотров.

Особенностью контента является наличие функции комментариев под каждой публикацией, что способствует установлению интерактивной связи с аудиторией. Кроме того, функционируют специализированные каналы, такие как <https://t.me/eduuzmuhoqama> – для обращений студентов и <https://t.me/doktoranturatalabgor> – для запросов и коммуникации с докторантами.

PR-деятельность Министерства высшего образования, науки и инноваций играет ключевую роль в формировании открытого информационного пространства и представляет собой эффективный канал взаимодействия с общественностью. В условиях современного медиарынка информационные службы государственных структур формируют и транслируют социально значимую информацию посредством различных медиаплатформ. К основным инструментам коммуникации относятся:

- подготовка и распространение



пресс-релизов, дайджестов, информационных бюллетеней и годовых отчетов;

- организация пресс-конференций, брифингов, пресс-туров и интервью с представителями средств массовой информации;

- обеспечение информационного взаимодействия с национальными и международными СМИ.

С учетом указанных аспектов в рамках настоящего исследования был проведен анализ PR-деятельности, осуществляемой информационной службой министерства за 2023 год, что позволило выявить тенденции, особенности и эффективность реализации информационной политики в контексте медиакоммуникативной стратегии государственного органа.

№	Название медиа-мероприятий	I квартал	II квартал
1.	Пресс-конференция	2	2
2.	Брифинг	1	4
3.	Пресс-тур	4	4
4.	Презентация	89	124
5.	Прямая трансляция	32	39
6.	Видео заявление	48	57
7.	Официальное заявление	64	65
Общее:		240	295

В таблице ниже мы анализируем форму материалов, подготовленных в рамках 535 медиа-мероприятий, проведенных информационной службой министерства:

№	Форма готового материала	I квартал	II квартал
1.	Фото	2412	3017
2.	Видео	317	515
3.	Текст	1056	2148
4.	Инфографика	20	147
Общее:		3805	5827

Из проведенного анализа материалов информационной службы Министерства следует, что при подготовке медиаконтента приоритет был отдан **текстовой форме подачи информации**, а также **визуализации посредством фотоматериалов**, что служит важным инструментом усиления коммуникативного воздействия.

В заключение можно сказать, что ходе анализа деятельности информационной службы Министерства высшего обра-

зования, науки и инноваций Республики Узбекистан была изучена деятельность информационной службы министерства с широкой общественностью, представителями средств массовой информации, системными организациями, а также с целевой аудиторией организации-учащейся молодежью. **В ходе анализа установлено, что официальная страница Министерства высшего образования, науки и инноваций в социальной сети Facebook,**

**ориентированная преимущественно на молодёжную аудиторию насчитывает 2,1 тысяч подписчиков. В социальной сети Instagram, являющейся одной из ключевых платформ коммуникации молодёжи, количество подписчиков превышает 11 тысяч.** Полученные данные свидетельствуют о наличии потенциала для дальнейшего развития цифровых коммуникаций и расширения взаимодействия с молодёжной аудиторией, в том числе за счёт возможного сотрудничества с популярными блогерами **и инфлюенсерами.**

А на основе анализа литературы выявлены следующие ключевые функции PR в государственной структуре:

- обеспечение устойчивую и планомерную информационно-коммуникационную деятельность [6];

- формирование доверия и поддержание устойчивой репутации [7];

- информационно-аналитические, информационно-коммуникационные, консультативно-методические, организационно-правовые задачи;

- предупреждение и управление кризисными ситуациями [8].

И так PR в государственной структуре является ключевым механизмом обеспечения доверия и прозрачности управления, эффективная коммуникация требует комплексного использования цифровых и традиционных инструментов, профессионализация PR-кадров является решающим условием повышения качества коммуникаций. А в Узбекистане требуется дальнейшее развитие системы аналитической оценки эффективности PR-деятельности.

### Список использованной литературы:

1. Grunig. J.E. Excellence in Public Relations and Communication Management. – Taylor and Francis Group, 2008. P. 4.
2. Lee M. The Practice of Government Public Relations. – New York: Routledge, 2021. P. 15.
3. Grunig J.E., Dozier D. M., Grunig L. A. Excellence in Public Relations and Communication Management. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. P. 47.
4. Тултеев И.Т. Система взаимодействия государства и гражданина в Республике Узбекистан. – Ташкент: Изд-во «Фан», 2021. С. 74.
5. Муратова Н. Мультимедийная журналистика: международный и национальный опыт. 10.00.09 – Журналистика (филологические науки). Автореферат диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам. – Т. 2023. С. 16
6. Ворошилов В.В. Современная пресс-служба. – М.: КНОРУС, 2021. С. 117.
7. Grunig J.E. Excellence in Public Relations and Communication Management (reprint edition). – New York: Routledge, 2013. P. 138
8. Wyszomirski A. Public Relations Techniques in Public Administration. – Warsaw: Public Administration Press, 2014. P. 101.



**Sunnatulla MUSAMEDOV,**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik  
va dizayn instituti o'qituvchisi,  
mustaqil izlanuvchi

# Dizayner mutaxassislarining ta'lim tizimidagi o'рни: integratsiya va rivojlanish istiqbollari

XXI asr — bu vizual tafakkur, texnologik innovatsiyalar va estetik idrok davri. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dizayn nafaqat badiiy yo'nalish, balki strategik fikrlash, kommunikatsiya, menejment va ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Zamonaviy ta'lim tizimida dizayner mutaxassislari o'quv jarayonini optimallashtirish, interaktiv muhit yaratish, raqamli kontent ishlab chiqish va o'quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bois dizaynerlik kasbi bugun pedagogik dizayn, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy kommunikatsiya va madaniy estetika kabi turli fanlar bilan uzviy bog'langan holda shakllanmoqda.

### **Dizayner mutaxassislari tushunchasi va ularning ijtimoiy-pedagogik roli**

“Dizayner” atamasi lotincha *designare* — “belgilamoq, loyihalamoq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, zamonaviy ilmiy talqinda g‘oya, shakl, tizim va maqsadni uyg‘unlashtirgan ijodiy faoliyat egasini anglatadi.

Dizayner mutaxassislari turli sohalarda – arxitektura, muhandislik, san‘at, ta‘lim, marketing, axborot texnologiyalari, madaniyat va ommaviy kommunikatsiya yo‘nalishlarida faoliyat yuritadilar.

Ta‘lim tizimida dizayner mutaxassislarning o‘rni alohida e‘tiborga loyiqdir. Ular o‘quv jarayonini vizual, kognitiv va psixologik jihatdan tashkil etish orqali o‘quv materialini talabning idrokiga moslashtirish, motivatsiyani kuchaytirish va interaktiv o‘rganish muhitini yaratish bilan shug‘ullanadilar.

### **O‘quv dizaynerlari (Instructional Designers) va ularning vazifalari**

Dizayning ta‘limdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri — o‘quv dizayni (instructional design) hisoblanadi. Bu yo‘nalish o‘quv jara-

yonini ilmiy asosda tahlil qilish, o‘quv maqsadlarini belgilash, metod va vositalarni tanlash, hamda natijani baholash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Northeastern University (AQSh) ta‘rifiga ko‘ra, *Instructional Design* — bu “muayyan auditoriya ehtiyojlariga moslashtirilgan, o‘rganish samaradorligini oshiruvchi o‘quv jarayonini yaratish san‘ati va fani”dir.

*O‘quv dizaynerining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- o‘quv maqsadlarini aniq belgilash;
- auditoriya psixologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- ta‘lim texnologiyalarini tanlash va uyg‘unlashtirish;
- o‘quv modullarini vizual va interaktiv shaklda loyihalash;
- baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlash.

Bu jarayon o‘qitish samaradorligini oshirish bilan birga, ta‘lim muhitini ijodiy, raqamli va ishtirokchi yo‘nalishga buradi.

### **Dizayner mutaxassislarning turlari va ularning faoliyat yo‘nalishlari**

Ta‘lim tizimida dizaynerlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ixtisoslashadilar:

<b>Dizayner turi</b>	<b>Faoliyat sohasi</b>	<b>Asosiy maqsad</b>
Grafik dizayner	O‘quv materiallari, vizual kontent, taqdimotlar	Axborotni estetik va tushunarli tarzda yetkazish
Web/UX/UI dizayner	Ta‘lim platformalari, mobil ilovalar, onlayn darslar	Foydalanuvchi uchun qulay interfeys yaratish
Instructional designer	Dars metodikasi, baholash tizimi, o‘quv resurslari	Ta‘lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash



Dizayner turi	Faoliyat sohasi	Asosiy maqsad
Learning engineer	Ta'lim texnologiyalari, tahliliy tizimlar	O'quv jarayonini raqamli optimallashtirish
Media dizayner	Video, animatsiya, 3D ta'lim materiallari	Kognitiv faoliyatni jonlantirish va motivatsiyani oshirish

### **O'zbekiston tajribasi: milliy dizayn tizimi, institutlar va ta'limdagi transformatsiyalar**

O'zbekiston dizayn maktabining shakllanishi tarixan boy madaniy va ilmiy merosga tayangan holda rivojlanib kelmoqda. Kamoliddin Behzod maktabi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi bezaklari, Xiva, Buxoro va Samarqand me'moriy yodgorliklari shakl, mutanosiblik, rang va bezak tizimlarida mukammal kompozitsion yechimlarni mujassam etgan bo'lib, ular milliy dizayn estetik tafakkurining tarixiy manbai sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tarixiy asos XX asrda sanoatlashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashib, dizaynni hunarmandchilikdan alohida kasbiy faoliyatga aylantirishga zamin yaratdi.

#### **Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti**

Mazkur institut O'zbekistonda dizayn ta'limi tizimining yetakchi markazi hisoblanadi. Institutning shakllanishi 1954-yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti qoshida rassomlik fakultetining ochilishi bilan bog'liq bo'lib, 1997-yilda mustaqil oliy ta'lim muassasasi sifatida qayta tashkil etildi. Dastlab rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, monumental-dekorativ san'at yo'nalishlari asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, keyinchalik dizayn ta'limi institut faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Bugungi kunda institutda quyidagi dizayn yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi:

- Dizayn: interyer dizayni
- Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto
- Dizayn: libos va gazlamalar
- Dizayn: sanoat dizayni.

O'quv dasturlarida akademik badiiy fanlar — rangtasvir, chizmatasvir, kompozitsiya, milliy san'at tarixi bilan bir qatorda "Dizayn metodologiyasi", "Materialshunoslik", Grafika. Bu fan orqali talabalar turli grafik usullarda ishlash asoslarini o'rganadi. Dizayn fakulteti doirasida kiyim dizayni, amaliy grafika va boshqa dizayn yo'nalishlari o'rgatiladi.

Institutning o'ziga xos jihati shundaki, dizayn ta'limi milliy badiiy meros va zamonaviy loyihalash texnologiyalarining uyg'unligi asosida olib boriladi.

#### **Toshkent arxitektura- qurilish universiteti**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 1991-yilda Toshkent politexnika institutining tegishli fakultetlari negizida tashkil etilgan bo'lib, dizayn ta'limini muhandislik va arxitektura bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirib kelmoqda. Universitetda dizayn arxitekturaviy muhitni shakllantirishning muhim komponenti sifatida qaraladi.

*Bu yerda sohaga doir quyidagi yo'nalish mavjud:*

- Dizayn: interyer dizayni.

Ta'lim jarayonida konstruktiv yechimlar, ergonomika, ekologik dizayn, shahar muhitini tashkil etish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Talabalar real urbanistik va interyer loyihalar us-tida ishlash orqali dizaynni texnik-estetik faoliyat sifatida egallaydilar.

1. Dizayn: avtomobilsozlik dizayni (Andijon mashinasozlik instituti (AndMI).

2. Dizayn: interyer dizayni (Guliston davlat universiteti (GulDU), Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti (BuxDU), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universite-ti (SamDAQU), Toshkent arxitektura-qurilish uni-versiteti (TAQU).

3. Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto (Termiz davlat universiteti (TerDU), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (SamDA-QU), Samarqand davlat universiteti (SamDU).

4. Dizayn: kostyum dizayni (Toshkent to'qi-machilik va yengil sanoat instituti (TTYESI), Na-mangan to'qimachilik sanoati instituti).

5. Dizayn: landshaft dizayni (Samarqand dav-lat arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU), Qoraqalpoq davlat universiteti).

6. Dizayn: libos va gazlamalar (Chirchiq dav-lat pedagogika universiteti, Qarshi davlat univer-siteti (QarDU), Navoiy davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universite-ti (SamDAQU), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (BMTI), Qoraqalpoq davlat universiteti).

7. Dizayn: mediadizayn (O'zbekiston jurna-listika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (O'zJOKU)

8. Dizayn: milliy kostyum (Toshkent to'qima-chilik va yengil sanoat instituti (TTYESI), Termiz davlat universiteti (TerDU).

9. Dizayn: poyabzal va aksessuarlar dizayni (Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (BMTI), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYESI).

11. Dizayn: to'qimachilik va yengil sanoat di-zayni (Namangan to'qimachilik sanoati instituti).

### **Ta'limdagi yangi yo'nalishlar va transformatsiyalar**

So'nggi yillarda O'zbekistonda dizayn ta'limi yangi bosqichga ko'tarildi. O'quv dizayni, raqamli media dizayni, interaktiv metodika, AR/VR texno-logiyalari asosida o'qitish yo'nalishlari shakllandi. Bu yo'nalishlar dizaynni faqat vizual bezak emas, balki axborot, muhit va tajribani loyihalash jarayo-ni sifatida talqin etishga olib kelmoqda.

Natijada O'zbekistonda dizayn ta'limining o'ziga xos modeli yuzaga kelmoqda. Ushbu mo-del milliy estetik merosni saqlagan holda, za-monaviy raqamli platformalar va global dizayn tendensiyalariga moslashishga qaratilgan. Bu yondashuv dizayn ta'limini kreativ iqtisodiyotning muhim strategik resursiga aylantirmoqda.


### **G'arb modeli: innovatsion ta'lim dizayni va texnologik yondashuv**

G'arb universitetlari (masalan, Tilburg Uni-versity, Harvard, Stanford, MIT) o'quv dizay-nini ilmiy va texnologik asosda shakllantirgan. Bu modelning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Natijaga yo'naltirilgan ta'lim (Outcome-Based Education);
2. Konstruktivizm — talabani faol ishtiroki asosida bilim shakllantirish;
3. Multimedia va interaktivlik — o'quv jara-yonini vizual va dinamik qilish;
4. Muammoga asoslangan o'qitish (Prob-lem-based learning);
5. Raqamli baholash tizimlari va learning analytics texnologiyalari.

Masalan, Tilburg universitetida o'quv dizay-nerlari professorlar bilan hamkorlikda har bir









BRAND

GRADIENT  
ELEMENTS



kursning pedagogik dizayn xaritasini (learning design map) ishlab chiqadi, bu esa darsning strukturasi, baholash mezonlari va interaktiv bosqichlarini aniq belgilaydi.

### **Osiyo modeli: an'anaviy qadriyat va innovatsiya sintezi**

Osiyo davlatlarida (Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur) ta'lim dizayni milliy madaniyat, kollektiv o'rganish, ijtimoiy hamkorlik va emotsional intellektga asoslanadi. Masalan:

- Koreya Milliy San'at Universiteti — "Media va ta'lim dizayni" dasturi orqali madaniy kontekstni vizual loyihalashga yo'naltiriladi;
- Yaponiya Tokiodagi Musashino Art University — "Human-centered design" konsepsiyasini ta'limda qo'llaydi;
- Singapur Milliy Universiteti — ta'limda "Design Thinking" falsafasini markazga qo'ygan.

Osiyo modelida asosiy e'tibor shaxsning estetik, hissiy, ma'naviy o'sishiga hamda jamoaviy hamkorlik madaniyatiga qaratiladi. Bu yondashuv o'quv jarayonini nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayoni sifatida ko'radi.

### **O'zbekiston – G'arb – Osiyo integratsion modeli**

O'zbekistonning ta'lim tizimi hozirda integratsion model sari yo'nalmoqda. Bu modelning mohiyati – milliy estetik qadriyatlar, G'arbning texnologik innovatsiyasi va Osiyoning madaniy uyg'unligini birlashtirishdir.

Ushbu model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Milliylik va global fikrlash uyg'unligi – o'zbek xalq san'ati estetikasi bilan zamonaviy dizayn me'yorlarini birlashtirish;
2. Pedagogik dizaynni markazlashtirish –

har bir dars, kurs va modulni ilmiy asosda loyihalash;

3. Texnologik integratsiya – raqamli o'qitish, AR/VR, simulyatsion modellar, sun'iy intellekt asosida dizayn;

4. Hamkorlik tizimi – o'qituvchi, dizayner va talabalar o'rtasida doimiy interaktiv muloqot;

5. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligini ta'minlash.

Bu model O'zbekiston ta'limini xalqaro maydonda raqobatbardosh, innovatsion va madaniy jihatdan mustahkam tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi.

### **Dizayner mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalari**

Oliy ta'lim muassasalarida dizaynerlar quyidagi kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lishlari zarur:

- Ijodiy va tanqidiy fikrlash;
- Pedagogik dizayn metodologiyasi;
- Raqamli savodxonlik va vizual kommunikatsiya;
- Loyiha asosida o'rganish (Project-based learning) tajribasi;
- Etik madaniyat va madaniy sezgirlik;
- O'quv materiallarini tahlil qilish, model-lashtirish va qayta loyihalash ko'nikmalari.

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda xalqaro standartlar — ISTE (International Society for Technology in Education) va IDOL (Instructional Design Organization for Learning) mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dizayner mutaxassislari bugungi ta'lim tizimining ijodiy, texnologik va intellektual markazidir. Ular o'qitish jarayoniga san'at, texnologiya va psixologiyani olib kirib, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va motivatsiyasini oshiradi.

O‘zbekiston – G‘arb – Osiyo modeli bu borada yangi bosqich bo‘lib, u:

- milliy qadriyatlarni asrash;
- global innovatsiyalarni joriy etish;
- insonparvar va estetik ta‘lim muhitini yaratish;
- ijodiy fikrlovchi, raqamli tafakkurga ega yangi avlod dizaynerlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

### **Xalqaro tajribalar: pedagogik va ta‘lim dizaynining jahon amaliyotidagi taraqqiyoti**

XXI asr ta‘lim tizimi global miqyosda tub o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, gibrid o‘quv modellari va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvlarining keng joriy etilishi natijasida o‘qitish jarayonida pedagogik dizayn (pedagogical design) va ta‘lim dizayni (instructional design) tushunchalari yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugungi kunda ta‘lim dizayni – bu nafaqat darsni bezash yoki o‘quv materiallarini vizual shaklda tayyorlash emas, balki ta‘lim jarayonini ilmiy asosda tizimlashtirish, o‘qitish va o‘rganish strategiyalarini modellashtirish, baholash mezonlarini takomillashtirish va o‘quvchi faoliyatini faol ishtirok etuvchi subyektga aylantirish jarayonidir.

Ko‘plab rivojlangan davlatlarda ta‘lim dizaynerlari professor-o‘qituvchilar bilan birgalikda darslarni qayta loyihalash, interaktiv metodlarni tatbiq etish, o‘quv muhitini psixologik va kommunikativ jihatdan qulaylashtirish, shuningdek, raqamli kontentni samarali tashkil etish bilan shug‘ullanadilar. Shu bois, ushbu yo‘nalish bugungi kunda nafaqat universitet tizimida, balki maktab,

kasb-hunar, onlayn ta‘lim va korporativ o‘qitish tizimlarida ham keng qo‘llanilmoqda.

### **AQSH tajribasi: Instruktorlik dizaynining yetuk modeli**

Pedagogik dizayn konsepsiyasining amaliy rivoji, avvalo, Amerika Qo‘shma Shtatlarida shakllangan. Bu sohaning ilmiy asoslari 1940–1950-yillarda AQSh armiyasi uchun tayyorlangan trening dasturlarida vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik universitet ta‘limi uchun moslashtirilgan.

Bugungi kunda AQShning deyarli barcha yirik universitetlarida “Teaching and Learning Center” (O‘qitish va o‘rganish markazlari) faoliyat yuritadi. Masalan, Northeastern University (graduate.northeastern.edu)dagi markaz o‘quv jarayonini tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarni “instruktorlik dizayn” ko‘nikmalariga o‘rgatish bilan shug‘ullanadi.

Instruktorlik dizaynerlari (Instructional Designers) quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- O‘quv dasturlarini tizimli tahlil qilish – har bir fan bo‘yicha maqsad, natija va baholash mezonlarini moslashtirish;
- Interaktiv o‘quv modullarini yaratish – talabalarni faol ishtirok etishga jalb etuvchi topshiriqlar, multimedia, test va muhokama bloklarini ishlab chiqish;
- Gibrid va onlayn ta‘lim dizayni – masofaviy o‘qitish platformalarini ishlab chiqish, kontentni LMS (Learning Management System) tizimlariga integratsiya qilish;
- O‘qituvchilar uchun treninglar – metodik seminarlar, laboratoriyalar va “peer-learning” mashg‘ulotlari orqali o‘qituvchilarni zamonaviy

dizayn fikrlash (design thinking) tamoyillariga o‘rnatish;

- Natijadorlikni baholash – darsning samaradorligini monitoring qilish va qayta tahlil asosida yangilash.

Northeastern universitetining tahliliga ko‘ra, o‘quv dizaynerlar bilan hamkorlik qilgan professor-o‘qituvchilarning darslari 25–30% ga samaraliroq bo‘lgan. Bu natija talabalar ishtiroki, darsdagi interaktivlik, baholashning aniqligi va talabalarning mustaqil fikrlash ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘lgan.

AQShda bu tizim davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadi. Quality Matters (QM) va Online Learning Consortium (OLC) kabi tashkilotlar o‘quv dizaynining xalqaro standartlarini ishlab chiqib, o‘quv dasturlarni sertifikatlaydi. Shu bois, AQSh oliy ta‘lim tizimi bugungi kunda ta‘lim dizayni sohasida dunyo yetakchilaridan biridir.

#### **Yevropa tajribasi: hamkorlik va innovatsiyaga yo‘naltirilgan tizim**

Yevropa mamlakatlari, xususan, Niderlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Finlyandiya o‘z ta‘lim tizimlarida dizaynerlik yondashuvini faol tatbiq etmoqda.

Niderlandiyaning Tilburg universiteti (tilburguniversity.edu) bu borada ilg‘or tajribaga ega. Universitetda faoliyat yuritayotgan Educational Design Team o‘quv jarayonini qayta qurish, talaba faolligini oshirish va pedagogik adolatlilikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqadi.

Tilburg modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Talabaga yo‘naltirilgan dizayn – har bir o‘quvchi uchun individual o‘rganish yo‘nalishi (learning path) ishlab chiqiladi.

2. O‘quv muhiti dizayni – onlayn va oflayn muhit uyg‘unlashtirilib, “faol o‘rganish zonalarini” yaratiladi.

3. Adolatli baholash tizimi – dizaynerlar baholash mezonlarini psixometrik tahlil asosida takomillashtiradilar.

4. O‘qituvchi-dizayner hamkorligi – professor-o‘qituvchilar dizaynerlar bilan doimiy ishlaydi, bu esa o‘quv dasturlarining sifatini kafolatlaydi.

Natijada, Tilburg universitetida talabalar ishtiroki 40 foizga oshgan, darslardan qoniqish indeksi esa 87 foizni tashkil etgan. Shuningdek, “Learning Analytics” texnologiyasi yordamida talabalar o‘z o‘rganish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Yevropaning boshqa universitetlarida ham, masalan, London University College (UCL), Humboldt Universiteti (Berlin) va Aalto Universiteti (Finlyandiya)da o‘quv dizayni muassasalari faoliyat yuritadi. Ular pedagogik dizaynni ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘lab, ta‘lim sifatini o‘lchashning yangi indikatorlarini joriy etganlar.

#### **Germaniya tajribasi: ta‘lim dizayni bo‘yicha universitetlararo tarmoq**

Bavariya Virtual Universiteti (vhb) tomonidan boshlangan “Instructional Designer@vhb” loyihasi Germaniyada ta‘lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion o‘qitish usullarini keng yoyishning asosiy vositasiga aylandi (oth-regensburg.de).

Bu loyiha o‘ziga xos jihatdan – dizayner-mutaxassislarini turli universitetlarda faoliyat yurituvchi yagona professional tarmoqda birlashtirgani bilan ajralib turadi. Har bir ishtirokchi universitet o‘z o‘quv jarayonini tahlil qiladi, zamonaviy dizayn



yechimlarini sinovdan o'tkazadi va eng muvaffaqiyatli modellarni umumiy tarmoqqa joylashtiradi.

Loyihaning asosiy yutuqlari:

- Didaktik innovatsiyalarni integratsiya qilish – har bir fan bo'yicha multimedia o'quv vositalari ishlab chiqilgan;
- O'qituvchi va talaba hamkorligini mustahkamlash – o'quv jarayonining barcha bosqichlari dialog asosida qurilgan;
- Universitetlararo raqamli muhit yaratish – o'quv dizayni standartlari yagona platformada birlashtirilgan;
- Tajriba almashish tizimi – muntazam forumlar, seminarlar va vebinarlar orqali dizaynerlar tajriba almashadilar.

Loyihaning yakuniy hisobotiga ko'ra, "o'qituvchi-dizayner hamkorligi" universitet ta'limining kelajakdagi barqaror modeliga aylanishi kerakligi ta'kidlangan.

### **Osiyo mamlakatlari tajribasi:**

#### **Integratsiyalashgan raqamli ta'lim muhiti**

Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Malayziya va Xitoy o'quv dizaynini raqamli transformatsiya bilan uyg'unlashtirishda eng ilg'or davlatlar sirasiga kiradi. Masalan, Janubiy Koreyada "Smart Education Strategy" dasturi asosida barcha maktab va universitetlarda o'quv jarayoni to'liq raqamli ekotizimga o'tkazilgan. Har bir ta'lim muassasasida "Digital Learning Designer" lavozimi joriy etilgan bo'lib, bu mutaxassislar o'quv resurslarini yaratish, talaba faoliyatini monitoring qilish va o'quv natijalarini tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Yaponiyada esa "Design Thinking Pedagogy" modeli keng tatbiq etilgan. Bu model asosida har

bir o'quv kursi "muammoni hal etish" bosqichlariga ajratilib, talabalar dizayn fikrlash orqali bilimni amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar.

Singapurda "Learning Experience Design" yo'nalishi alohida magistratura sifatida faoliyat yuritadi. Bu dasturlar ta'limning texnologik, kognitiv va estetik jihatlarini birlashtirgan integratsion modelni yaratadi.

### **O'zbekiston uchun xalqaro tajribalarning ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda innovatsion pedagogik yondashuvlar joriy etilmoqda. Davlat siyosati darajasida raqamli ta'lim, innovatsion metodika, kompetensiyaga asoslangan ta'lim dizayni kabi yo'nalishlar bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Pedagogik dizayn markazlarini tashkil etish – har bir universitetda o'qitish va o'rganish jarayonini tahlil qiluvchi maxsus markazlar faoliyat yuritishi lozim;
2. Ta'lim dizaynerlarini tayyorlash – o'quv dizayn yo'nalishida magistratura dasturlarini joriy etish;
3. Raqamli o'quv muhitini kengaytirish – "Moodle", "Canvas", "Google Classroom" kabi tizimlar asosida milliy platforma yaratish;
4. O'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish – xalqaro tajriba asosida treninglar va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish;
5. Innovatsion baholash tizimini joriy etish – dizayn asosidagi diagnostik modellardan foydalanish.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim dizayni zamonaviy ta'limning strategik komponentidir. U o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchini faol o'rganish jarayonining markaziga qo'yish va ta'limni insonparvar, adolatli hamda ijodiy yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi.

AQSh, Yevropa, Osiyo va Germaniya tajribalari O'zbekiston uchun muhim o'rganish manbai bo'lib, ularning asosiy g'oyasi — "ta'lim jarayoni-

ni dizayn fikrlash asosida boshqarish" tamoyilini shakllantirishdir.

O'zbekiston ta'lim tizimi bu yo'nalishda xalqaro tajribani mahalliy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirib, o'zining milliy pedagogik dizayn modelini yaratishga intilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va mamlakatning intellektual kapitalini mustahkamlash yo'lida strategik qadam hisoblanadi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Кожуховская С. М. Перспективы развития дизайн-образования в XXI веке / С. М. Кожуховская // Статья. Кабардино-Балкарский государственный университет им. Х. М. Бербекова.
2. Актуальные проблемы дизайна и дизайн-образования : материалы II Междунар. науч.-практ. конф. (Минск, 19–20 апр. 2018 г.) / Белорусский государственный университет ; редкол.: О. А. Воробьёва (отв. ред.) [и др.]. — Минск : БГУ, 2018. — 241 с.
3. Problems and Solutions of Design-Education and Production Integration : материалы Международной научно-практической конференции (28 апреля 2025 г.). — 389 р.
4. Графический дизайн. Современные концепции / под ред. Е. Э. Павловской. — Москва : Юрайт, 2024. — 120 с.
5. Umarova Z. S., Abdullayeva F. S. Libos dizayni ta'limi: talabalarda kasb malakalarini shakllantirishning aktual muammolari // «Ta'lim va innovatsion tadqiqot» : Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. — 2024. — B. 241–246.
6. Щеглова Т. М. Инновационные технологии и методы обучения при компетентностном подходе в подготовке специалистов дизайна одежды // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Проблемы высшего образования. — 2012. — № 1. — С. 160–166.
7. Мирзаназарова Э. XX аср Ўзбекистон либос дизайни: асосий босқичлар ва ривожланиш тамойиллари : санъат фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент, 2020.
8. Акилова К. Теория, практика и перспективы развития дизайна // SAN'AT. — Тошкент, 2015. — № 3.





